

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

Al Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti

ISMAILOVA SHAMSIYA

***MUTAXASSISLIK FANLARINI O`QITISH
METODIKASI***

fanidan uslubiy qo`llanma

URGANCH – 2013

ANNOTATSIYA.

Mazkur o`quv qo`llanmada jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyrivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda ta`lim-tarbiya tizimining dolzarb muammolari, yahni ta`lim tizim oldiga qo`yilgan zamonaviy talablar qo`yilmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar sharoitida pedagogik jarayonda yosh avlodni hayotga to`laqonli tayyorlash mazmuni, O`zbekiston rivojiga o`z hissasini qo`shishi, jamiyatning faol aozosi bo`lishi talab qilinayotgan mutaxassis shaxsi sifatlarini tarkib toptirishda ta`lim jarayonining o`rni, yuqoridagi vazifalarni samarali hal qilish uchun pedagogik faoliyatni tashkil qilish omillari xususida fikr yuritiladi.

Siz o`z faoliyatingizni qanday tashkil qilgan bo`lar edingiz?

Mazkur o`quv qo`llanma magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun mo`ljallangan.

Taqrizchilar: p.f.n., dotsent S.U.Xodjaniyazov
p.f.n., dotsent M.J.Jumaniyozov

Mundarija

1.MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI. OLIY VA O'RTA MAXSUS, KASB-hUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING ASOSIY PRINTSIPLARI.....	4
2.OLIY VA O'RTA MAXSUS, KASB-hUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Ta'limNING TASHKILY SHAKLLARI.....	18
3.Ta'lim JARAYONINING ZAMONAVIY KONTSEPTSIYASI. SHAXSGA YO'NATIRILGAN Ta'lim.....	30
4.MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH METODLARI.....	39
5.MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA O'TKIR TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.....	49
6.MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA O'TKIR TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.....	56
7.TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI.....	69
8.TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI.....	76

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI. OLIY VA O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING ASOSIY PRINTSIPLARI

O'zbekiston Respublikasi istiqlolini ta'lim muassasalarida xalq xo'jaligining turli sohalari uchun tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, aqliy salohiyati hamda ijodiy qobiliyati belgilaydi degan oya "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yaratilishi uchun asos bo'ldi. Mazkur hujjat Respublika ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beruvchi muhim hujjatdir. Unda ta'lim islohotlarining asosiy maqsadi "Inson uchun har tomonlama uyun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish shart-sharoitini va tahsirchan mexanizmini yaratish, eskirgan va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirishdan iborat" ekanligi qayd etib o'tildi.

Ta'limni insoniylashtirish, shaxs rivojlanishining asosiga aylantirish, fanlarni o'qitishga yangicha yondashishni talab qiladi. Talaba muayyan mutaxassislik yo'nalishida ta'lim olar ekan, u rivojlanishi, shaxslik sifatlarini namoyon qilishi darkor. U nafaqat etuk mutaxassis sifatida shakllanishi, balki komillikni o'zida mujassam qilishi lozim.

Bugungi kunda mutaxassis shaxsiga qanday talablar qo'yilmoqda?

O'z kasbining etuk mutaxassisi.

Mustaqil fikrlaydigan, egallagan bilimlarini amalda qo'llab oladigan.

Bilimlarini mustaqil kengaytirishga qodir shaxslar ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Insoniyat tafakkuri jadal suroatlar bilan taraqqiy qilmoqda: Internet, Marsga ilmiy-tadqiqot ishlarini bajara oluvchi robotlarning uchirilishi, o'zga sayyoralar bilan aloqalar o'rnatishga bo'lgan intilishlar, yangi texnika va texnologiyalar davrimiz misli ko'rilmagan yangiliklari bilan zamondoshlarimizni hayratga solmoqda. SHunday ekan jamiyatimizning ertangi aozosi, oliy ta'lim dargohining bugungi bitiruvchisi o'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lishi bilan birga:

- o'zgaruvchan hayot sharoitiga muvaffaqiyatli moslashuvchan bo'lishi;
- o'z imkoniyatlarini aniq baholay bilishi;
- hayotda o'z o'rnini yo'qotmasligi uchun ta'lim jarayonida o'rgangan bilim va malakalari aniq va to'ri qo'llay bilishi;
- mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilishi, ularni bartaraf qilishning ratsional yo'llarini topishi;
- muayyan muammolarni hal qilish uchun zarur axborotlarni izlash, ular ustida ishlash, tahlil qilish, muammolarni hal qilish bo'yicha turli gipotezalarni ilgari surishi, hal qilishning turli variantlarini ishlab chiqishi, statistik mahlumotlar bilan ishlashi, asosli xulosalar chiqarish va ular asosida muammolarni hal qila bilishi;

- muloqotchanlik, biror masala bo'yicha hamkorlikda faoliyat yurita olishi, keskinlikni oldini ola bilishi;
- solom va samarali, mazmunli hayot kechirishi;
- intellektuallik, madaniyatilik, maonaviyatilik sifatlariga ega bo'lishi kabilar talab qilinadi.

YUqoridagi talablar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi. O'qitishning anoanaviy shakllari tayyor bilimlarni asosan reproduktiv metodlar yordamida o'zlashtirib olishga asoslangan. Bilimlarning tez eskirishi va yangilanishidan iborat bo'lgan, hozirgi informatsion portlash sharoitida ta'limning bunday mazmuni o'zini oqlamaydi. Tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, mohiyatiga etish uchun o'tkir va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish lozim. SHundagina hayotda, mehnat faoliyati jarayonida xatoga kamroq yo'l qo'yish mumkin. SHuning uchun ham hozirgi zamon o'quv jarayoni talabalardan mustaqillik, onglilik, faollik, ijodiylik, muloqotchanlik, moslashuvchanlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilmo'i darkor.

Ta'lim tizimining uzluksizligi – zamon talabi. Uzluksiz ta'lim shunchaki deklaratsiya emas, balki shaxsning zaruriy ehtiyojlariga aylanishi kerak. SHu maqsadda ham yangi axborot texnologiyalariga asoslangan distatsion ta'limda zarurat paydo bo'lmoqda.

Anoanaviy ta'lim tizimidan o'rin olgan o'qituvchi–darslik–talaba tizmasini qat'iylik bilan yangi: talaba–darslik–o'qituvchi tizmasiga o'zgartirish talab qilinmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi xuddi shu printsiplarga asoslangan va bu falsafa, pedagogika va psixologiyada yo'nalish hisoblanadi.

Agar anoanaviy ta'lim tizimida asosiy bilim manbai sifatida o'qituvchi va darslik hisoblangan bo'lsa, ta'limga yangicha yondashuvda o'qituvchi asosan talabaning mustaqil va faol ta'limiy faoliyatining tashkilotchisi, ishonchli konsulptanti va yordamchisi sifatida maydonga chiqadi. O'qituvchi o'z mahoratini, bilimi, malakalarini talabalar faoliyatini diagnostika qilish, bilimlarni egallash va amaliyotdan ulardan to'ri foydalanish bo'yicha yordam berishi lozim bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan yuksak darajada mahorat talab qiladi.

Talabalar oldida turgan bosh vazifa – o'z bilimlarini mustaqil kengaytirishning samarali yo'llarini egallab olishdir. Mutaxassis zarur axborotlarni mustaqil topib olishi, muammoni hal qilishning maqsadga muvofiq yo'llarini izlashi, olayotgan bilimlarini chuqur tahlil qilishi, ularni amalda qo'llashi kerak.

Tayyor bilimlarni shundaygina o'zlashtirib olish va umumlashtirish darajasida ta'lim beriladigan bo'lsa, yuqoridagi vazifalarni hal qilishda to'ri kelmasligi mumkin. hozirgi sharoitda ta'lim berishda ta'lim shu zailda ko'rilsa insoniyatning tayyor bilimlarini o'zlashtirib olishi, yaoni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkazish bilan shuullanish talabalar tafakkurini rivojlantirishga olib kelmaydi va bu amalda isbotlangan. Oliy ta'lim talab darajasida tashkil qilinsagina ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin. SHunday ekan o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishimiz zarur.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, metodika – ta’limning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari va o’rganilayotgan muayyan fanlar orqali ta’lim-tarbiya berishning usullarini tadqiq qiluvchi fan.

Keyingi vaqtlarda metodikaning nazariy va metodologik asoslari, uning pedagogik fanlar tizimidagi o’rni va amaliyot bilan aloqasi, rivojlanish qonuniyatlari, ilmiy tadqiqot metodlari, metodik tadqiqotlar samaradorligini oshirish yo’llari kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi metodika fani nazariyasining taraqqiyotiga asos bo’la oladi. Bundan tashqari metodik hamda qiyosiy metodik tadqiqotlar olib borilmoqdaki, bunda metodikaning fan sifatida shakllanishi, shuningdek, o’quv fanlarini metodikasi bo’yicha to’plangan tajribalar chet mamlakatlar metodik fanlari tizimiga nisbatan qiyosiy o’rganilmoqda.

O’quv adabiyotlarda quyidagi klassik ta’rif mavjud: “Metodika quyidagi masalalarni hal qilib beradi: nima uchun o’qish? qanday o’qish? nimani o’qish va qanday o’qish?” Boshqacha qilib aytganda, metodika muayyan fan o’qitishning maqsadini, o’qitishning mazmunini, metod va vositalarini belgilab beradi.

Pedagog muayyan fanlarni o’qitishning maqsadlarini aniq belgilab olishi kerak. Ta’limning maqsadi talabalarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish, ular dunyoqarashini, e’tiqodini shakllantirish, qobiliyatini, aql-zakovatini rivojlantirish, o’stirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Bosh maqsad – komil insonlarni tarbiyalash.

Maqsadlarni belgilashda o’quv fanining zamonaviy rivojlanish tendentsiyasi ham inobatga olinadi. Ta’lim maqsadlari o’qitish metodlari va shakllarini, vositalarini keng ko’lamda qo’llash orqali amalga oshiriladi.

Metodika fani talabalarni ta’limning maqsadi, mazmuni, ta’limni tashkil etish shakllari, metodlari, vositalari bilan tanishtiradi, ularda pedagogik faoliyat ko’nikma va malakalarini tarkib toptiradi. SHuningdek, ta’limda talabalar bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, izlanuvchanlik, ijodiylik kabi sifatlarni tarkib toptirishga qaratiladi.

Metodikaning nazariy asoslarini psixologiya va didaktika tashkil qiladi. Psixologik nuqtai nazardan ong va faoliyat birligi printsipiga murojaat qilish mumkin. Ushbu printsip asoschilari A.N.Leontpev va S.L.Rubinshteynlar hisoblanadi. Bu printsipga binoan inson psixikasi faoliyat jarayonida shakllanadi: mehnat, o’quv, o’yin. Inson faoliyat orqali rivojlanadi. S.L.Rubinshteyn fikrlash jarayoniga samarali tahsir ko’rsatuvchi omil o’rganilayotgan voqea-hodisalarning muammoli qo’yilishi degan oyani ilgari suradi. Bu printsip keyingi vaqtlarda o’quv dasturlari, darsliklar yaratishda o’z aksini topmoqda.

Albatta, o’quv jarayoni samarali bo’lishida ta’limga qiziqishni uyotish juda muhimdir. Asosiy qiziqish manbai o’quv materialining mazmuni hisoblanadi. O’quv materiali mazmuni yorqin, yangilikka boy, obrazli bo’lishi hamda hayrat hissini, maonaviy-ruhiy holatni vujudga keltirishi, amaliy ahamiyati ko’rsatilgan bo’lishi kerak. Buning uchun talabalarda qiziqish uyotishi mumkin bo’lgan qiziqarli misollar, faktlar, video va individual vositalari, gazeta, radio xabarlari

tanlanadi. Ta'limga qiziqish o'quv-mashqiy o'yinlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ularga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. O'quv dasturiga mos bo'lishi.
2. Mahlum ta'limiy maqsadlarni ko'zlashi.
3. Mahlum izchillikka rioya qilinishi.
4. Talabalar individual xususiyatlarini hisobga olishi.
5. O'yin qoidalarining sodda va aniq qo'yilishi.
6. har bir talabaning faol ishtirok qilishi.

Ta'lim jarayonining didaktik asoslari. Ta'lim jarayoni pedagog va talabalar faoliyatidan iborat va muayyan ta'limiy vazifalar hal qilinadi, yaoni bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi, talaba shaxsi shakllanadi. Ta'lim jarayoni quyidagi elementlardan iborat:

1. Ta'lim maqsadlarining belgilanishi.
2. Ta'lim maqsadlarini amalga oshirilishini taominlovchi ta'lim mazmuni – dastur va darsliklarda keltiriladi.
3. Ta'lim printsiplari, metodlari va vositalari.
4. Ta'lim shakllari.
5. Ta'lim natijalarining aniqlanishi va navbatdagi yo'nalishning belgilanishi.

Demak, pedagog ta'lim jarayoni rejalashtirar ekan, har bir mavzuga yuqoridagi elementlarni inobatga olgan holda tayyorgarlik ko'radi. Ta'lim jarayoni o'zaro bo'liq, murakkab tizimni tashkil qiladi.

Ta'lim mazmuniga quyidagi to'rt element kiritilishi lozim:

1. Dunyo, oboektiv borliq haqidagi bilimlar.
2. Bilimlar asosidagi ko'nikma va malakalar.
3. Ijodiy faoliyat mezonlari.
4. Umuminsoniy, maonaviy qadriyatlarni o'zida mujassam qilishi.

Bu elementlarning har biri shaxs uyun kamol topishida o'ziga xos vazifalarni bajaradi. I.YA.Lerner, M.N.Skatkin nazariyasiga ko'ra ushbu yo'nalishni keng talqin qilish mumkin. Bilimlar orqali ko'nikma va malakalar shakllanadi, turli muammolarni hal qilish natijasida ijodiy faoliyat tarkib topadi va shaxsda o'zga insonlarga, borliqqa, tabiatga, o'z-o'ziga nisbatan mahlum munosabatlar tizimi vujudga keladi, his-tuyular uyonadi.

Ta'lim jarayoniga umumiy qonuniyatlar xos bo'lib, bu qonuniyatlarni aniqlash o'qitishni ongli va samarali boshqarish yo'llarini ishlab chiqishda yordam beradi. Didaktik qonuniyatlar ta'lim jarayonini tushunish uchun nazariy asosdir. Didaktik qonuniyatlar asosida o'qitishni tashkil etish haqida aniq, ilmiy jihatdan tekshirilgan ko'rsatmalar ishlab chiqish mumkin.

Ta'lim printsiplari didaktik qonuniyatlardan kelib chiqadi va uning mazmunini, tashkiliy formalari va metodlarini belgilab beradi. Qonuniyatlar muayyan voqealar, jarayonlar o'rtasidagi zaruriy aloqalardir. Qonuniyatlar o'qitish printsiplari orqali amalga oshiriladi. Didaktika printsiplarining tizimi o'qitish jarayoni qonuniyatlarini ifodalaydi.

O'qitish printsiplari o'qitish nazariyasining boshlanich qoidalari bo'lib, o'qituvchi o'quv protsessini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak. Ta'lim

printsipalari o'tmishdagi va hozirgi vaqtdagi o'qitish tajribalarini umumlashtirish asosida vujudga kelgan. O'qitish printsipalari barcha o'quv fanlari bo'yicha o'qitishning hamma bosqichlarida asos bo'lib qoladi. Didaktikada o'qitishning qoidalari, ya'ni o'qitishning ayrim jihatlariga oid etakchi qoidalar ham taoriflanadi. Bular esa o'qitish printsipalarini to'ri amalga oshirishga yordam beradi.

XV-XVI asrlardagi mashhur olimlar o'qitish qonuniyatlari, printsipalari haqida o'z fikrlarini bildirganlar. Masalan, Ibn Sino asarlarida didaktikaning printsipalariga, xususan ko'rsatmali o'qitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino inson dastlabki o'quv mashulotlarida buyumning tashqi xossasini o'rgansa, o'sha buyumni va uning tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblagan. Olim inson haqiqatan mavjud narsalar yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda oboektiv voqelikni to'ri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

SHarqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo'yi Arastuning kitoblarini o'qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birontasini o'zlashtira olmaydi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o'zlashtira olmaydi. Kindiy ana shu narsalarni bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan.

Pedagog olimlarning fikrlarini umumlashtirib aytish mumkinki, o'qitish printsipalari yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qitishning xarakterini belgilaydigan asosiy etakchi qoidadir. Printsipalarni ifodalashga olib kelgan asosiy manba, o'qitish amaliyoti, o'qituvchilarning umumlashtirilgan va tarqalgan tajribasi hamda topilmalaridir.

Ta'lim printsipalarini tanlashga umumiy yondashish kerak bo'ladi. Printsiplarning soni didaktika tadqiqotchilarining asarlarida turlicha tavsiya etilgan. Lekin barcha tadqiqotchi-didaktlar uchun umumiy qator printsipalar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim va tarbiyaning birligi printsipi.
2. O'qitishning ilmiylik va tushunarlilik printsipi.
3. O'qitishda nazariyaning amaliyot bilan birligi printsipi.
4. O'qitishda sistemalilik va izchillik printsipi.
5. Ta'limda onglilik va faollik printsipi.
6. O'qitishning ko'rsatmalilik printsipi.
7. Ta'limda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish printsipi.
8. Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarning puxta bo'lishi printsipi.
9. Ta'limda muammolik o'qitish printsipi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi printsipi. O'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biri bilan uzviy boliqdir. Ularni umumiy maqsad, barkamol insonni tarbiyalash maqsadi birlashtiradi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy tahsir ko'rsatadi. U talabalarda milliy istiqloliy ongini, ko'pgina chin insoniy xislatlarni tarkib toptirishda talay imkoniyatlarga ega. O'qitish talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi aktivligi hamda mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ta'lim-tarbiyani birligini taaminlash uchun:

1. O'rganilayotgan materialning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati va metodikasi to'ri tashkil qilinishi.

2. O'qituvchi mashulotning borishida o'zi o'qitadigan fanning tarbiyaviy imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi.

3. O'quv fanini egallash talabalarning ayrim fakt va nazariy qoidalarini, qonuniyatlarini, ishlab chiqarish ko'nikmalarinigina emas, balki ularning eotiqodga aylanishini ham nazarda tutishi.

4. Bilimlarni egallash jarayonida talabalarda axloqiy ideallar, tuyular, iroda va shaxsning boshqa ko'pgina xislatlari tarkib topishini nazarda tutish lozim bo'ladi.

5. Talabalarga nisbatan talabchanlik ularda sabot, matonat, qiyinchiliklarni engish va boshlagan ishini oxiriga etkazish, halollik, to'rilik kabi xislatlarni shakllantirishi lozim.

6. Pedagogning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega ekanligi, uning talabalar bilan bo'ladigan kundalik muomalasida tashqi qiyofasi, kishilarga bo'lgan munosabati, madaniyatligi, nutqi va boshqa ko'pgina shaxsiy xislatlari bilan tahsir ko'rsatishini unutmaslik darkor.

O'qitishning ilmiylik printsiplari va tushunarlik printsiplari. Ilmiylik va tushunarlik printsiplari maktab ta'limiga fan tomonidan aniq belgilangan o'quv materiallari kiritilishini hamda talabalarni ularning yoshi uchun munosib bo'lgan ilmiy tushunchalar, terminlar bilan qurollantirishni talab qiladi. Dasturlar va darsliklarda terminologiyani egallashning tartib va izchilligi belgilanadi. Bu tartibga qat'iy rioya qilish hamda o'quv jarayoniga fanda qabul qilingan terminlarnigina joriy etish muhimdir. Ilmiylik va tushunarlik printsiplari talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan mahlumotlar berilishini talab qiladi. Ularni tanlab olishda fan va ishlab chiqarishning so'nggi yutuqlarini hisobga olish darkor. Faqat shundagina hosil qilingan bilimlar dunyoning haqiqiy manzarasini aks ettiradi va amaliy faoliyat uchun qo'llanma bo'ladi. O'qitishning tushunarligi talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim protsessining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish talabalarning aqliy imkoniyatlarini: diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy tafakkuri va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. SHu tufayli o'quv materialining talabalarga tushunarli bo'lish chegarasi kengayib boradi.

Tushunarlik printsiplari o'qituvchidan o'qitishda oddiydan murakkabga tomon borishga rioya qilishni talab qiladi. Materialning tushunarli bo'lishi qo'llaniladigan o'qitish metodlariga boliq. Masalan, chizmachilik, fizika, mehnat darslarida ko'rsatmalilik, sanoat darslarida, tizimlilik, izchillik va boshqa metodlar samara beradi.

Ilmiylik va tushunarlik printsiplarini amalga oshirish uchun quyidagilarga eotibor qilish kerak:

1. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha fan va texnika sohasidagi eng yangi yutuqlar bilan muntazam tanishib borishi.

2. Mashulotlarda faqat ilmiy terminologiyadan foydalanishi, fanda qabul qilingan belgilarni, o'lchamlarni ishlatishi.

3. O'quv materialini ommabop shaklda, lekin qat'iy ilmiy asosda, qo'pol ravishda buzmasdan bayon qilishi.

4. O'rganilayotgan hodisaning kashf qilinishi tarixi bilan, ilmiy metodlari va shular asosida xulosalar chiqarish jarayoni bilan tanishtirishi.

5. Mashulotlarda zamonaviy jihozlar, asboblari, o'lchov texnikasidan foydalanish.

6. Talabalarning yangi material bilan tanishishi, ularning xossalari va xalq xo'jaligida qo'llanilish usullari o'rganishlari.

7. O'qitishda mahlumdan nomahlumga qarab borish, ya'ni talabalarga nomahlum bo'lgan materialni o'rgatishda ularning bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar bo'yicha olgan bilimlari tayanish.

8. Talabaning ilgari ta'lim tayyorgarligi darajasini va qobiliyatining rivojlanishini hisobga olish.

9. Bilimlarni egallashda har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Ushbu qoidalar o'qituvchidan o'quv materialini ishlab chiqishga, o'qitish uslublari va shakllari tanlashga chuqur ijodiy yondashishni talab qiladi.

O'qitishda nazariyaning amaliyot bilan birligi printsipti. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bolanganligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o'zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo'llay bilish ham kerak. Bu printsipti ro'yobga chiqarish vositasi o'qitishni talabalarning amaliy faoliyati va mehnati bilan birga qo'shishdir. Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallay jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u laboratoriya va amaliy mashulotlarda davom qiladi. Bu mashulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, bu bilimlarni mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar hamda ularni amalda qo'llash ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. O'qitishda nazariyaning amaliyot bilan birligi printsiptini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Nazariy materialni yoki mehnat jarayonini o'rganishda uning tizimlili, va mantiqiy birligini saqlab qolish.

2. Talabalarning mehnatga doir hamma ishlari texnologiyani bilishga tayanishi va ular asosida asoslab berilishi.

3. Talabalarga beriladigan topshiriqlar uning ijodiy faolligini va mustaqilligini rivojlantirishga yordam berishi.

4. Nazariy mashulotlarda umumiy xulosalar chiqarish uchun nazariyani amalda qo'llanilishini misol, namuna qilib ko'rsatish maqsadida amaliy mahlumotlardan foylanish.

5. Talabalar bajarishi lozim bo'lgan mehnat jarayonini asoslab berish uchun nazariy qoidalar va qonuniyatlarni qo'llash.

6. Laboratoriya mashulotlari yoki malakaviy amaliyot davrida mustaqil kuzatishlar olib borish yoki tajribalar o'tkazish zarur. SHu maqsadda talabalarga ilmiy adabiyotlar va mahlumotnomalarni o'rganish yuzasidan maxsus topshiriqlar berish va ularning bajarilishini tekshirish lozim.

O'qitishda sistemalilik va izchillik printsipi. Sistemalilik va izchillik printsipi o'qitishni shunday tashkil etishni talab qiladiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qatoiy mantiqiy tartibda olib boriladi, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va shu bilan birga amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Faqat sistemalili bilimlarga ongli ravishda o'zlashtiriladi va talabalar ularni erkin qo'llab, o'zlarining amaliy faoliyatlarida ulardan foydalanadilar. Sistemalilik va izchillik o'qitishda tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini berdi. Sistemalilik va izchillik printsipi o'quv jarayonining hamma bosqichlarida amalga oshiriladi. Uning talablari dasturlar va darsliklar tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar: fanni o'rganish maqsadi, uning boshqa fanlar bilan bolliqligi, talabalarning bilish imkoniyatlari hamda fanning mantiqi bilan belgilanadigan sistema bo'yicha joylashtiriladi. Talabalarning mahlumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab fanni bayon qilishning didaktik tizimi fan tizimiga yaqinlashib boradi. Agar talabalarga beriladigan bilimlar qatoiy tizimli bayon qilinsa, yangi qoidalar avval o'zlashtirilgan materialga asoslanib yanada rivojlanib borsa, talabalar bilimlarni ongli suratda va mustahkam o'zlashtirib oladilar.

Sistemalilik va izchillik printsipi yangi materialni o'rganishga o'tish talabalarning avvalgi materialni o'zlashtirib olgandan keyingina amalga oshirilishini talab qiladi. Sistemalilik va izchillik quyidagilarni taqozo qiladi:

1. O'quv fanlarining yillar bo'yicha mantiqan izchil joylashishi, bunda har bir fanni o'rganish ana shu yoki yondosh fanlarni jarayonida olingan bilimlarga tayanish.

2. har bir o'quv fanlari bo'yicha materialning izchil joylashishi.

3. O'qituvchining materialni tizimli va izchil ravishda bayon qilishi.

4. Talabalarning bilish imkoniyatlari darajasini hisobga olish va ularning ortishiga, rivojlanishiga yordam berish lozim bunga topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borish bilan erishiladi.

5. har bir bo'limni, mavzuni va umuman o'quv fanini o'rganishda talabalarga bosh, asosiy narsani aniqlash va ko'rsatishga alohida eotibor berish.

6. O'rganilayotgan fanlar va ularning bo'limlari o'rtasidagi bolanishlarni aniqlash.

7. Amaliy, laboratoriya, yozma ishlar va mashqlarni tashkil qilishda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olishda va tekshirishda muntazam tizim bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ta'limda ongillik va faollik printsiplari. Bu printsiplari o'qitishni shunday tashkil qilishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni va ularni amalda qo'llay olish usullarini ongillik va faol egallab oladilar, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi va eotiqod, dunyoqarash tarkib topadi. O'qitishdagi ongillik printsiplari talabalarning o'z o'quv ishlarining konkret maqsadlarini aniq tushunishini, o'rganilayotgan fakt, hodisa va jarayonlarning va ular o'rtasidagi bolanishlarni tushungan holda o'zlashtirib olishini, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishini bildiradi. O'qitishdagi ongillik talabalarning o'qishga masouliyatni sezib ongillik munosabatda bo'lishni, o'qituvchining topshiriqlarini o'z vaqtida aniq, mustaqil va ijodiy ravishda bajarishga harakat qilishini bildiradi. Ongillik va faollik butun o'qish davomida tarkib topadi. Ongillik va faollik printsiplari amalga oshirish quyidagilarni taqozo qiladi:

1. Ushbu printsiplari amalga oshirish talabalar o'rganishga kirishgan fanning maqsadi va vazifalarini ularga ochib berishdan boshlanadi. Professional tayyorgarlik uchun uning amaliy ahamiyatini ko'rsatish zarur.

2. YAngi materialni idrok qilishda taoriflar, teoremalar ifodalanishinigina emas, balki ularning konkret hodisalar bilan boliq bo'lgan mazmunini ham tushunishlari darkor.

3. Talabalar oldiga savollar qo'yish, darslarda ko'rsatmalilik vositalarini qo'llay olish, talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish yo'li bilan ularning bilish faoliyatini oshirish kerak.

4. Talabalarning yangi materialni qanday tushunib olganliklarini, avval o'tilgan material bilan qanday bolashlarini va amalda qo'llash malakalarini aniqlash maqsadida ularning yangi material yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish zarur.

5. Bilimlarni ongillik ravishda o'zlashtirish talabalarda bu bilimlarga nisbatan mahlum munosabat hosil qilishni, emotsional kechinmalar uyotishni o'z ichiga oladi.

6. Ushbu printsiplari talabalarda tafakkur va nutqni rivojlantirishni nazarda tutadi.

7. Ongillik va faollik printsiplari talabalarni mehnat va o'qishdagi ijodiy faoliyat usullariga o'rgatishni talab qiladi. Talabalarni konstruksiyalash, loyihalash usullariga o'rgatish zarur.

8. Talabalarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishning muhim vositasi o'quv ishida evristik suhbat, munozara, konferentsiya kabi usullarni qo'llashdir.

O'qitishning ko'rsatmalilik printsiplari. Talabalarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan boliq muayyan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongillik suratda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu printsiplari o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish va boshqalardan foydalanishni talab qiladi. Buyum

qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarda shu buyum haqidagi bilimlari ham shunchalik chuqurroq bo'ladi. YA.A.Komenskiy bu qoidani talabalarning oltin qoidasi deb atagan. YAoni I avval sezmagani narsasi haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan iborat bo'lishi kerak. 2 bilimning aniq va to'riligi ham sezgilarning guvohligiga boliq. Bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchliroq bo'ladi. 3 sezgilar – xotiraning eng ishonchlik vositasi.

Ko'rsatmalilik printsiplari o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Mashulotlarda turli xil ko'rsatmalilik qurollari qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar qiladi. SHuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida: yangi materialni idrok qilish, bilimlarni mustahkamlash, tekshirish, amaliy faoliyatda qo'llashda, mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishda tadbirlar qilinadi. Ko'rsatma vositalarining turli variantlari mavjud:

1. Tabiiy ko'rsatmalilik talabalarni mavjud obyektlar bilan tanishtiradi – o'simliklar, minerallar, hayvonlar.

2. hajmli ko'rsatmalilik – fotosurat, rasm, diafilpm.

3. Ovozli ko'rsatmalilik – magnitofon, plastinka.

4. Simvolik va grafik ko'rsatmalilik – xaritalar, rejalar, sxemalar.

Ushbu printsiplarni amalga oshirishda bir qancha qoidalarga amal qilish:

1. Ko'rsatmalilik qurollarining u yoki bu xilini tanlaganda darsning maqsadini hisobga olish zarur.

2. Ko'rsatmalilik qurollari bilan ishlaganda o'qituvchi talabalarning bu qurollarni idrok etishiga rahbarlik qilishi, ularning diqqat eotiborini o'rganayotgan narsaning asosiy va muhim tomonlariga qaratishi, talabalarning mumkin qadar faollik va mustaqillik ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishlari kerak.

3. Darsni ko'rsatmalilik qurollari bilan to'ldirib yubormaslik kerak, ulardan ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorda foydalanish lozim.

O'qitishda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish printsiplari. har bir talaba o'zining individual jismoniy va psixik xususiyatlariga ega va bu uning o'quv faoliyatiga katta tahsir ko'rsatadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi o'qitish sifatini oshirish va har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning bunday xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarni darsda, ustaxonalarda, turli tadbirlarda va ekskursiya sharoitida kuzatadi, ular bilan suhbatlar olib boradi. U talabaning kuchli va ojiz tomonlarini bilib olishga harakat qiladi. Keyinchalik pedagog yomon holatlarning oldini olish uchun zarur choralar qo'llaydi. Turli talabalarda xotiraning ayrim turlari yaxshi rivojlanmaganligini hisobga olib, ozaki tushuntirishni ko'rsatma vositalari va amaliy ishlarni tashkil qilish bilan qo'shib olib borish kerak. Passiv talabalarga shunday topshiriqlar tanlash kerakki, bu ularda ishga qiziqish uyotishga yordam bersin. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Talabaning aqliy kuchlari va imkoniyatlari bir xil emas.
 2. Ta'lim va tarbiyaning hamma qonunlarini tadbqiq etish mumkin bo'lgan mavhum talaba yo'q: u xamisha individual, o'ziga xosdir.
 3. Talabaning aqliy qobiliyatlarini bundan buyon qanday rivojlantirish kerakligini belgilash muhim.
 4. Talabadan imkoniyatidan tashqari narsani talab qilish yaramaydi.
 5. har bir talaba dasturda ko'zda tutilgan natijaga qanday yo'l bilan etib olishi mumkinligini bilishi kerak.
 6. har bir talabaning kuchi va imkoniyatlarini ochish, unga aqliy mehnat muvaffaqiyati zavqini anglatish lozim.
 7. har bir talabaning ta'lim olish va aqliy mehnatda muvaffaqiyatga erishish yo'llarini aniq belgilash va pedagog asosda faoliyatini amalga oshirishi zarur.
- haqiqiy o'qituvchi talabalar ustidan hukmronlik qilmasligi va ularga o'zining tengdoshlari sifatida muomalada bo'lishi, o'zi ham doimiy ravishda o'qishi zarurligini unutmasligi kerak.

Bilim, ko'nikma va malakalarning puxta o'zlashtirilishi printsipi. Ta'lim jarayonida talabalar o'zlarini bo'lusi hayotiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallay boradilar. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Bilim, ko'nikma va malakalar puxta o'zlashtirilgan, yaxshi mustahkamlangan bo'lishi va talabalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak.

Bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamligiga butun o'quv jarayonining borishida erishiladi. Mustahkamlik prinsipini amalga oshirish avvalo talabalarning o'quv materialini idrok qilishlariga boliq. Aniq, qatoyiy mantiqiy izchillikda bayon qilinadigan bilimlar talabalarning xotirasida puxta mustahkamlanadi. Bu printsipni amalga oshirish o'qitishning hamma printsiplari: tushunarlilik, sistemalilik va izchillik, nazariya va amaliyotning bolikliqi, ko'rsatmalilik, onglilik va faollik kabilarni amalga oshirish bilan erishiladi. SHu bilan bir qatorda o'qitish jarayonida puxtalikni taominlovchi maxsus didaktik vositalar ham qo'llaniladi. Material talabalar bilan suhbat o'tkazish, mashqlar tashkil qilish, o'quv masalalarini echish, turli xil amaliy topshiriqlarni bajarish yo'li bilan mustahkamlanadi. O'quv materialini esdan chiqarishning oldini olish, esdan chiqqan materialni xotirada tiklash, talabalar bilimini chuqurlashtirish uchun xilma-xil takrorlashlar o'tkazib turiladi. har bir darsda avvalgi dars materiali bilan yangi material o'rtasida bolqlik o'rnatish maqsadida kundalik takrorlash o'tkaziladi. Takrorlash passiv bo'lmasligi kerak. Takrorlash vaqtida qo'shimcha fakt va misollardan foydalanish, o'rganilgan narsa va hodisalarning yangi tomonlarini qarab chiqish, ularni chuqurroq tahlil qilish, yangi dalillar keltirish talab etiladi.

O'quv mashulotlari davomida o'qituvchi talabalarning xotirasini rivojlantirish ishlarini ham amalga oshiradi. Ana shu maqsadda ularga so'zlarni, taoriflarni, har xil qoidalarni yodlash topshiriqlarini berishi lozim. Talabalarda mantiqiy, maonosini anglab xotirlashni rivojlantirish zarur.

Ushbu printsiptni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish muhim:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratib ko'rsatishi shart.
2. O'quv materialidagi asosiy fikr talaba o'rgangan masala bo'yicha biladigan oyaga bolangan bo'lishi kerak.
3. Bilimlar talabalarining qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina talaba bu bilimlarni esdan chiqarmaydi.
4. O'quv materialini talabaning amaliy ishlari va mashqlariga bolab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Boshqa barcha fanlar qatori ilmiy-tadqiqot metodlari. Ilmiy-tadqiqot metodlari barcha fan sohalarida mavjud. SHu jumladan pedagogik fanlar tizimining tarkibiy qismi bo'lgan metodika ham o'z ilmiy-tadqiqot metodlariga ega.

Ilmiy-tadqiqot metodlari uchga bo'linadi:

1. Fundamental.
2. Amaliy.
3. Ishlanmalar.

Fundamental tadqiqotlar o'rganilayotgan voqea-hodisalar, jarayonlarning tarixiy negizlari, nazariyasi rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Fundamental tadqiqotlarga tizimli yondashuvni kuzatish mumkin. Bunda tadqiqot predmeti o'zaro boliq elementlardan tarkib topgan yaxlit tizim sifatida o'rganiladi. Tadqiqotchi diqqat markazida ushbu tizim elementlarining o'zaro aloqadorligi bo'ladi. Masalan, biror fanni o'qitish jarayonida yaxlit tizim sifatida tadqiqi qilinadi va asosiy e'tibor pedagog va talabalar faoliyatining o'zaro bolikliigi, ta'lim maqsadlarining qo'yilishi, ta'lim shakllarining to'ri tanlanganligiga qaratiladi.

Tipologik yondashuvda o'rganilayotgan oboektlar va jarayonlarning guruhiiy tasniflanishi kuzatiladi va har bir guruhga mansub asosiy belgilar alohida ajratib ko'rsatiladi. Fanlarni o'qitish metodlari tadqiq qilinganda metodlar klassifikatsiyasi, dars turlari, vositalar kabilarni guruhiiy tasniflash mumkin.

Matematik tadqiqot metodining asosiy vazifasi pedagogik tadqiqot natijalarini matematik usullar yordamida umumlashtirishdir.

Tarixiy tadqiqot metodining mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan jarayonlarning tarixiy asoslari, rivojlanish bosqichlari o'rganiladi.

Modellashtirish tadqiqot metodida ta'limiiy maqsadlarda murakkab jarayonlar, oboektlar modeli yaratiladi va o'rganiladi. Empirik metodlarga kuzatish, anketalashtirish, o'quv muassasasi hujjatlarini o'rganish, yozma nazorat ishlarini tahlil qilish kabilar kiradi.

Ilmiy kuzatish pedagogik jarayonda keng qo'llaniladi hamda xulosalar chiqarish, zarur axborotlarni to'plash, klassifikatsiyalash imkonini beradi. Kuzatish har doim aniq maqsadlarni kuzlashi lozim va maxsus reja asosida olib boriladi. Kuzatish metod sifatida biror vazifani bajarishga qaratiladi. Kuzatish maqsadlari, oboektlari va joylari oldindan belgilanishi, dasturi tuzilishi va kuzatishda qo'shimcha metodlarning qo'llanilishi hal qilingandagina undan kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Pedagogik eksperiment ilmiy-tadqiqot metodlari ichida salmoqli o'rin tutadi. Pedagogik eksperiment o'qitishning yangi va samarali metodlari, shakllari va vositalarini yaratishga qaratilgan bo'ladi. Eksperiment to'rt bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda eksperiment gipotezasi ilgari suriladi va shu asosda eksperiment tashkil qilinadi. Eksperimentning muvaffaqiyatli o'tkazilishining birinchi sharti – chuqur o'ylangan ilmiy faraz, gipotezasdir. Ikkinchi sharti gipotezalardan kelib chiqib, eksperiment uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni yaratish, ya'ni o'quv tekstlari, savollar, topshiriqlar, didaktik tarqatma materiallar, audiovizual vositalarni tayyorlash.

Ikkinchi bosqichda eksperiment amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda tadqiqot natijasining miqdori va sifati aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda olingan ma'lumotlar isbotlab beriladi. Ilmiy faraz yangilik hisoblanishi va munozarali bo'lishi kerak. Eng muhimi o'quv jarayoni samaradorligini oshirishi lozim.

Pedagogik eksperimentning mantiqiy tuzilishi:

1. Tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanishi.
2. Tadqiqot o'rtasining belgilanishi.
3. Ilmiy faraz gipotezaning ilgari surish.
4. Tadqiqot vazifalari.
5. Tadqiqot metodlari.
6. Eksperiment uchun o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash.
7. Eksperiment o'tkazish.
8. Xulosa.

Nazorat savollari:

1. Ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.
2. Mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan talablar.
3. Ta'lim tizimini isloh qilish omillarini ko'rsatib bering.
4. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish omillarini asoslab bering.
5. Metodika fanining maqsad va vazifalarini belgilab bering.
6. Metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
7. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitishning asosiy tamoyillari.
8. Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitilishi, foydalanayotgan innovatsional metodlar turlari haqida fikrlaringiz bayon qiling. Yutuqlar va kamchiliklarni, ularni bartaraf qilish yo'l ko'rsating.

OLIY VA O'RTA MAXSUS, KASB-hUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Ta'limNING TASHKILIY SHAKLLARI

Davlat ta'lim standartlari ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari vositalari va ularni baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqaror darajasini taominlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv rejasi, dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar, nizomlar va boshqa meoyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standarti talabalar bilim va kasb-hunar tayyorgarligi saviyasi va oliy ta'lim DTS talabalar mutaxassislik tayyorgarligiga saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilaydi.

DTSlari talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

DTSlari quyidagi tamoyillarga asosan ishlab chiqilgan:

- DTSni davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bolliqligi;
- kasb-hunar va oliy ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi hamda ta'lim mazmunining uzviyligi;
- ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- ta'lim mazmuni, shakli va vositalari hamda usullarini tanlashda ilor pedagogik texnologiyalarning yutuklariga tayanish.

Davlat ta'lim standartlariga bo'lgan zaruriyat mutaxassislar tayyorlash sifati va mazmuniga qo'yilgan talablarni tartibga solish bilan bolliq. DTS ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifatiga va ixtisosiga qo'yilgan zaruriy talablarni, ularning madaniy va maonaviy-ruhiy darajalarini aniqlaydi. Standart ta'lim jarayoni suboektlari, yaoni ta'lim oluvchilar, ta'limni boshqaruvchi tashkilotlar va ish beruvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishiga eotibor qaratilgan.

DTS shaxsning tanlagan mutaxassislikni egallashda mahalliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshlikni taominlashi hamda ijtimoiy himoya vazifasini bajarishi ko'zda tutilgan. DTSning joriy qilinishi davlat ahamiyatiga ega bo'lib, u ta'lim sohasida davlat siyosatining belgilovchi asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekistonda DTSni joriy qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1-bosqich:

- tajribaviy o'quv-meoyoriy hujjatlar ishlab chiqildi;
- amaliyotda ta'lim standartlari tajriba sinovdan o'tkazildi;
- foydalanish natijalari tahlil qilindi va baholandi;
- mazmun qayta ko'rib chiqildi va tasdiqqa taqdim qilindi.

2-bosqich:

- DTS keng qamrovda tarqatildi va joriy qilindi;

- standartning tahsiri o'rganilishi va amaliyotda qo'llanilishi;
- baholanishi ko'zda tutilgan, shuningdek, o'rganish natijalari asosida standart yangilanishi va yangi versiyalari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida DTS joriy etilishini baholash uchun metodik qo'llanma" ishlab chiqilgan.

Ushbu metodik qo'llanmada DTS joriy qilinishida ishtirokchilar sifatida o'qituvchi, ta'lim muassasasi rahbari, talabalar, bitiruvchilar, ish beruvchi, oila, oliy o'quv yurtlari va jamoatchilik ko'rsatib o'tilgan.

Kasb-hunar ta'limi standartlari tuzilishi va mazmuni uning xususiyatlaridan, ya'ni jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxs talablarining o'zaro bolikliigidan kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standarti ta'limiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosatning integratsiyasi va mehnat bozori siyosatiga yuz yillar mobaynida yiilib kelayotgan eng yaxshi milliy anoanalar saqlanib qolingan.

DTSning tarkibiy qismi sifatida ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejalari ishlab chiqiladi. O'quv reja ta'lim sohalarini meoyorlash hamda ta'lim muassasalarini moliyaviy taominotini belgilashga asos bo'luvchi davlat hujjati hisoblanadi.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida asoslanadi hamda bakalavriat va magistratura bosqichlariga ega.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylikni taominlashi va talabaning quyidagi majburiy fanlar blokini o'zlashtirishini nazarda tutadi:

- gumanitar va ijtimoiy va iqtisodiy – 23-25%
- matematik va tabiiy ilmiy – 8-25%
- umumkasbiy – 33-50%
- ixtisoslik – 9-10%
- qo'shimcha – 5-7%

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyoti o'tilishi nazarda tutiladi. Bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishlari ham eotiborga olinishi lozim.

Magistratura ta'lim dasturlari bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik taominlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va magistrlar tomonidan quyidagi majburiy fanlar blokini o'zlashtirilishini nazarda tutadi:

- umumetodologik fanlar – 30-45%
- mutaxassislik fanlari – 55-70%
- ilmiy faoliyat – 40-50%

Ilmiy faoliyat quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ilmiy tadqiqot ishlari – 53-57%
- ilmiy pedagogik ishlar – 22-28%
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash – 19-21%

O'quv jarayoni 100 hafta davom qiladi. Nazariy ta'lim 30-40%ni tashkil qiladi. Magistrnlarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlarida o'quv fanlarining bir

qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishlarini ham nazarda tutish lozim.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni ta'lim berishning turli shakllari va metodlaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar;
- seminarlar;
- laboratoriya mashulotlari;
- individual mashulotlar, maslahatlar;
- kurs va diplom ishlari;
- o'qitishning sirtqi shakllari;
- pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti.

Bundan tashqari talabalar ilmiy jamiyati tizimida ilmiy to'garaklar, konferentsiyalarda qatnashishi orqali chuqur bilimlarni egallaydilar.

Ma'ruza – o'qitish jarayonining asosiy shakli. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladi. Ma'ruza o'qish yuqori malakali olimlarga topshiriladi. Ma'ruzani tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan katta mahorat talab qiladi. har bir ma'ruza matnini tayyorlash haqiqiy ilmiy ishni eslatadi.

Oliygozlarda o'qitiladigan ma'ruzalar, darslik, qo'llanmalar va boshqa manbalardan materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida mujassamlashi lozim.

har bir o'qituvchi ma'ruzaga tayyorlanishda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qilishi lozim. So'ngra har bir soha bo'yicha darslik va qo'llanmalar, monografiya, ilmiy ishlar, jurnal va gazeta materiallari, tarixiy va yozma yodgorliklar va badiiy asarlardan foydalaniladi. Muayyan dalillar, jarayonlar xususida fikr-mulohazalarini bildiradi, faktlarni umumlashtiradi. Bu materiallar tartibga solinib, muayyan reja asosida yozib chiqiladi. Ma'ruzada faqat fan, o'quv predmeti asoslari borasidagi mahlumotlar bilan chegaralanmasdan, balki talabalarni ijtimoiy-oyaviy jihatdan tarbiyalab borish ham talab qilinadi. Ma'ruza jarayonida asosiy eotibor talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirishga qaratiladi.

Oliygozlarda qo'llaniladigan ma'ruza turlari:

- ma'ruza-hikoya;
- ma'ruza-munozara;
- muammoli ma'ruza;
- yo'naltiruvchi ma'ruza;
- umumlashtiruvchi ma'ruza.

Ma'ruzalar yozma shaklda ifoda qilinadi. Lektorda ishlatiladigan izohlar, mahlumotlar, misollar uchun yozma ravishda alohida kartochkalar tayyorlangan bo'lishi kerak.

Ma'ruzada bayon qilinadigan materiallar ilmiy nuqtai nazardan yortilishi, qiziqarli, hayotiy dalillar bilan bolinishi kerak. Ma'ruza zamonaviy talablarga javob berishi kerak. Ma'ruza davomida turli ko'rgazmalar: kartochkalar, jadvallar,

modellar, xaritalar, teleko'rsatuvlar, komppyyuter taqdimot dasturlaridan, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin.

Talabalar ma'ruzani tinglashi, konspektlashtirib olishi va yozib olingan materialni o'rganib, qayta ishlab chiqishi kerak. Ma'ruzani tinglashda talabalarga muammoli savollar berilib, ularni faollashtirish muhim. Ma'ruza boshlanishida o'rganilishi lozim bo'lgan mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatiga eotibor qaratiladi. Oliygozlarda muammoli ma'ruzalar juda samarali natijalarni beradi. Ma'ruza yozishda daftarga tuilgan savollar, tushunmovchiliklar belgilanib boriladi.

Ma'ruzaning vazifalari:

- kasbiy ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish;
- bilim berish, o'rganayotgan fan bo'yicha axborot olish, mahlumotlarni tahlil qilish, xulosalarni umumlashtirish, xulosa chiqarish;
- tarbiyaviy tahsir o'tkazish, talabalarni etuk shaxs bo'lib etishishlariga imkon yaratishdan iborat.

Ma'ruzadan ko'zlangan maqsadlar amalga oshishi uchun talabalarda o'rganilayotgan o'quv faniga qiziqishni uyotish muhim hisoblanadi. Ma'ruza muayyan nazariy-amaliy mahlumotlarni beribgina qolmasdan, talabalarda mustaqil o'qish, izlanishlar olib borish uchun ham asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Psixolog olimlarning ko'rsatishlaricha, o'rganish jarayoni fikrlar qarama-qarshiligi asosiga qurilsa samara berishi mumkin ekan. Ma'ruzada keltirilgan masalalar muammoli o'rganilishi, tahlil qilinishi, juda ko'pdan-ko'p nuqtai nazarlar inobatga olinishi va natijada talabada shaxsiy fikr, nuqtai nazar hosil qilishi juda ahamiyatli ekanligi ko'rsatib o'tish mumkin. Ma'ruzachining o'zi mahlum bir nuqtai nazarni himoya qilar ekan, talabalarga nima uchun aynan shu fikrni qo'llab-quvvatlashini asoslab berishi kerak. Tanlangan dalillar ishonchli, sinalgan bo'lishi va hech kimda ikkilanish uyotmasligi kerak. har qanday ma'ruzada nazariy qoidalarning mohiyatini ochishga xizmat qiladigan isbot-dalillarga alohida ish o'rin ajratish kerak. Faktlar ma'ruzani mazmunli qiladi, talabalarda alohida qiziqish uyotadi.

Ma'ruzada iloji boricha talabalar diqqatini tortishga harakat qilish, ma'ruza tinglashdan o'z oldiga maqsad qo'yishga erishishtirish kerak. B.L.Farberman, R.G.Musina kabi bir qator pedagoglar ma'ruzada o'qituvchi nutqining qo'yilishiga eotibor qaratdilar. Ma'ruzachi nutqining aniq, tushunarli bo'lishi, nutq texnikasiga amal qilish, iboralarni to'ri tanlash, uzun va murakkab jumlalardan iloji boricha kamroq ishlatish, fikrlarni o'rnida izohlab borish, nutq ohangini goh baland, goh past bo'lishiga erishish, muammoning emotsional, ko'tarinki ruhda ifoda etish, fikr bayonida siyqasi chiqqan so'zlarni ishlatishdan qochish kabi talablarni qo'yadilar. Bu erda eng muhimi talabalar bilan hamkorlikda qilish, ular bilan aloqa o'rnatish va o'rganilayotgan muammoning har bir tinglovchi uchun shaxsiy ahamiyatli darajaga kutishdan iborat ekanligini taokidlasak xato qilmagan bo'lamiz.

Ma'ruza yakunida xulosalar umumlashtirilishi, ko'tarilgan muammo yuzasidan keltirilgan asosiy fikrlar, oyalar rezyume tarzidan talabalarga qayta

eslatib o'tilishi yaxshi natijalarni beradi. Talabalarda paydo bo'lgan savollarga javob berishda qisqa, asoslangan dalillar keltirilishi kerak.

Ma'ruzada xulosa va tushunmovchiliklar mumkin qadar keng yoritiladi.

Seminar mashulotlari o'rganilayotgan yangi materialning talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganligini tekshirib ko'rish va ularda amaliy faoliyat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'tkaziladigan dars shaklidir.

Seminar talabalarining bilimlarini mustahkamlashni taominlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayonining tashkiliy shaklidir. Seminar mashulotlarining maqsadi talabalarining chuqur bilim olishini taaminlash, olingan bilimlarni real hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Taniqli olim B.L.Farberman seminar mashulotlari quyidagi vazifalarni bajarishi lozimligini ko'rsatadi:

- talabalarga kasbiy ta'lim berish va tarbiyalash;
- mustaqil ishlash malakasini o'stirish;
- talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- nutq madaniyati malakalarini tarkib toptirish, munozaralar olib borishga o'rgatish;
- fikrlarini mustaqil bayon qilishga o'rgatish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Seminar mashulotlari talabalarni mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur mahlumot beradigan manbalar ustida ishlash hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Seminar mashulotlari rejasi odatda maxsus bir mavzuga baishlangan bo'lib, uning rejasi oldindan eolon qilinadi va mavzu bilan boliq adabiyotlar ko'rsatiladi. Talaba mavzuni muammoli tarzda o'rganadi, manbalardan mahlumotlarni yiadi, ularni tahlil qiladi, statistik qayta ishlaydi, masalani echish uchun o'z variantlarini ilgari suradi va mashulotda o'z fikrlarini bayon qiladi. Seminarga tayyorgarlik ko'rganda talaba ma'ruza yozishi mumkin.

Mashulot yakunida o'qituvchi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Laboratoriya mashulotlari – ma'ruza kursida olingan nazariy bilimlarni amalda tadbqiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shaklidir. Laboratoriya mashulotlari odatda maxsus jihozlangan xonada yoki alohida ajratilgan tajriba maydonlarida olib boriladi.

Dars borishida o'qituvchi topshiriiga ko'ra talabalar laboratoriyada bajariladigan ish mazmuniga qarab kerakli adabiyotlar, tajriba jihozlari, turli asbob-uskunalar, ish rejasi bilan tanishadilar. Mashulotning tarkibiy tuzilishi:

- mashulot mazmuni va maqsadini tushuntirish;
- ish namunasini ko'rsatish;
- mashulotning borishi;
- bajarilgan ishlarni o'rganish va tahlil qilish;
- yakuniy xulosa;
- ish qurollarini yiishtirib joyiga qo'yish.

Agar ish jarayonida qiyinchiliklar yoki tushunmovchiliklarga duch kelinsa, talabalar o'qituvchiga murojaat qiladilar. Bu mashulot talabalarga ma'ruza jarayonida olgan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini hosil qiladilar.

Maslahatlar – mahlum kurs materiallari o'rganib bo'lingach, nazoratlardan oldin o'tkaziladigan mashulot turi.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji talabalar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey DTSlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. Talabalarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini taominlashi milliy dasturda ko'rsatib o'tilgan.

Akademik litseylarda talabalar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganish orqali o'zlarida kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasb-hunar ta'limi DTSlari asosida talabalarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi. Talabalar qiziqishlari, kasb-hunarga moyilligidan kelib chiqib tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallaydilar.

hozirgi vaqtda kasb-hunar kollejlari ta'lim kunduzgi va sirtqi shakllarda amalga oshirilmoqda. Kollejlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ruxsati bilan o'z tarkibida quyidagi mutaxassislik va bo'limlarga ega.

1. Kasb-hunar ta'limi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik bo'limlari.
2. Kafedralar.
3. Kutubxona.
4. Kompyuter sinflari.
5. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari.
6. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun tayanch muassasalar.

Kollejlarda o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi "DTSlari boshqarmasi" tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Kollejlarda quyidagi turdagi o'quv mashulotlari tashkil qilinadi:

- nazariy-amaliy mashulotlar;
- laboratoriya mashulotlari;
- o'quv ishlab chiqarish ustaxonalaridagi o'tkaziladigan mashulotlar.

Kollejlarda o'quv yili 2 sentabrdan boshlanadi va 2 semestrda bo'linadi. Talabalarining o'zlashtirishi 4 balli tizimda belgilanadi: 5, 4, 3, 2.

Auditoriya mashulotlari asosan aralash dars tipi asosida o'tkaziladi. Talabalar kasbiy ko'nikma va malakalarining shakllanishida maxsus fanlarning ahamiyati katta. Maxsus fanlarning nazariy va amaliy asoslarini o'qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish natijasida talabalarining bilimlarni faol o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

Muammoli vaziyatlarni yaratishdan asosiy maqsad ularni hal qilish jarayonida talabalarni ta'limiy faoliyatga, shu bilan birga o'quv-kasbiy

malakalarini oshirishga qiziqishni rabatlantirish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda imkoniyatini yaratishdir. Eng muhimi talabalar maxsus fanlarni o'rganish davomida egallagan bilimlarini qachon va qanday vaziyatlarda qo'llash mumkinligini tushunib etishlari lozim.

Muammoli vaziyatlar talabalarning bo'lusi kasb faoliyati bilan bevosita boliq bo'lgan hayotiy, amaliy faktlar, jarayonlar asosida yaratiladi. Talabalar tomonidan muammolarni o'rganish va ular echimini topish uchun quyidagi mantiqiy izchillikka rioya qilinadi:

- muammoning mohiyatini anglab etish;
- muammoni tadqiq qilish vazifalari izchilligini belgilash;
- tadqiqot vazifalarini hal qilish maqsadida turli manbalardan axborotlar to'plash;
- tadqiqot uslublarini belgilash;
- ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish;
- muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli variantlarini ilgari surish;
- to'ri va aniq xulosalar asosida muammoning echimini topish.

Muammolarni o'rganish davomida talabalar turli axborot manbalariga, ma'lumotnomalarga murojaat qiladilar, Internet tarmoi imkoniyatlaridan foydalanadilar. Bu jarayon samarali kechishi uchun talabalarda turli axborot manbalari bilan mustaqil ishlash, ma'lumotlarni yiish, ularni to'ri tahlil qilish, masalani hal qilish yuzasidan turli gipotezalarni ilgari surish, statistik ma'lumotlar bilan ishlash, asosli xulosalar chiqara olish malakalari shakllangan bo'lishi lozim.

Muammo batafsil o'rganilgach, o'qituvchi uni guruhda umumiy muhokamaga qo'yadi, bahs-munozaralar tashkil qiladi. Talabalardan o'z xulosalarini bayon qilish bilan birga, ularni asoslash ham talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida talabalarda kasbiy o'quv malakalarini rivojlantirish, ularda mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda ijodiylik, intellektuallik kabi sifatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida talabalarning faoliyatini to'ri yo'naltira olishi, ularga o'z vaqtida bilimlarni egallash va amaliy faoliyatda ulardan to'ri foydalanish, muammolarni hal qilish bo'yicha yordam berishi lozim bo'ladi. Bu o'qituvchidan yuqori darajada mahorat talab qiladi.

Kasb-hunar kolleji talabalari 2 va 3-bosqichlarda mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha turli ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot vazifalarini bajaradilar.

Kasb-hunar kollejlarda amaliyotni o'tkazishning vazifasi xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Ishlab chiqarish amaliyoti kollejda malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha kasb-hunar tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Talaba ishlab chiqarish amaliyotiga o'zi tanlagan kasbi bo'yicha o'quv dasturlaridagi bo'limlardan tegishli nazariy bilimga ega bo'lgan va kollej ishlab chiqarish ta'limi dasturi bo'yicha ko'zda tutilgan barcha hujjatlarni to'ldirganidan keyin yuboriladi.

Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish va uning mazmuni, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning hajmi O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi markazi rahbari tomonidan tegishli kasb yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida belgilanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti boshlanishidan bir oy oldin kollej va ishlab chiqarish amaliyoti o'tkazilishi mo'ljallangan korxona va tashkilot bilan shartnoma tuzishi lozim (ilova 1). SHartnomada kasblar bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotiga yuborilayotgan talabalar soni, uni o'tkazish muddati, sharoit va tartiblari, ish texnologiyasi, sanitar-texnik tozalik talablari, mehnat sharoiti va tomonlarning o'zaro majburiyatlari ko'rsatiladi. Kollej shartnoma tuzgan idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqarish amaliyotining kengaytirilgan dasturini ishlab chiqadi va tasdiqdan o'tkazadi. Dastur muassasa va tashkilot bo'limlaridagi sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quv dasturida ko'zda tutilgan turli ishlarning mazmuni, hajmi va ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

Talabalar amaliyotga mahlum mutaxassislik uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan vaqt hisobidan chiqariladi va ish vaqti qonunchilikda belgilangan ish kunining davomiyligidan oshmasligi lozim.

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida talabalar idoralarning doimiy ishchi-xodimlari ro'yxatiga kiritilmaydi.

O'quv guruhlarining ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik direktorning buyrui bilan belgilangan o'qituvchilar va umumiy rahbarlik amaliyot bo'yicha o'rinbosari tomonidan taominlanadi. Amaliyotga rahbar o'qituvchilar talabalarining mutaxassisliklari bo'yicha ish joylariga taqsimlanishi, ularning mehnat intizomi va mehnat xavfsizligiga rioya qilishlari va boshqa vazifalarning bajarilishi yuzasidan javobgardir.

Idoralar rahbarlariga talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti davrida kasb o'rgatishga jalb etilgan mutaxassislarga moddiy rabatlantirish uchun qo'shimcha haq to'lash tavsiya qilinadi.

Talabalar kasblar bo'yicha ish joyiga qabul qilingan vaqtdan boshlab, ularga korxonada amalda bo'lgan standart va yo'riqnoma talablari asosida ish olib borish, mehnat muhofazasi qoidalari, meoyorlari va ichki tartib qoidalari joriy etiladi.

Kollej faoliyati bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishini eotiborga olgan holda, ishlab chiqarish amaliyoti (shu jumladan, bitiruv oldi ishlab chiqarish amaliyoti) kollejning o'zida mavjud komppyyuter sinflari va o'quv tsexlari negizida o'tkazilishi mumkin.

Bu hollarda o'quv muassasasi quyidagilarni:

- ishlab chiqarish amaliyotini o'quv muassasasi negizida olib borilishi masalasini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi viloyat boshqarmasi bilan kelishilgan holda tashkil etish;

- talabalarining ishlab chiqarish amaliyotlarining o'tkazilishi bo'yicha idoralarga taalluqli bo'lgan mazkur Nizomning talablarini so'zsiz bajarilishini taomin etish majburiyatlarni oladi.

Talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti malaka (sinov) ishlarining bajarilishi bilan yakunlanadi.

Kollej maomuriyati quyidagilarni bajarishi kerak:

– o'quv rejasi va mutaxassisliklariga qarab talabalarni belgilangan mahlum davrda ishlab chiqarish amaliyoti o'tkazish uchun jo'natish;

– ishlab chiqarish amaliyoti o'tkazilishi muddatini, talaba-amaliyotchilar bajaradigan ishlar mazmunini oldindan kelishish va qabul qiluvchi idoralar bilan shartnoma tuzish;

– talabalarni idora va tashkilotlarda amalda bo'lgan ichki nazorat, mehnat muhofazasi, yonin xavfsizligi, tibbiy-gigienik talablar, texnika xavfsizligi qoidalari va boshqa meoyoriy qoidalarga o'rgatish va unga amal qilishini nazorat qilish;

– talabalar tomonidan komppyyuterlar, hisob mashinalari, ishlab chiqarish jihozlardan to'ri foydalanish bo'yicha belgilangan talablarga amal qilishni, o'z-o'zini himoya etish uchun beriladigan vositalardan to'ri foydalanishni, shuningdek energiya va boshqa manbalardan tejamkorlik bilan foydalanishga o'rgatishni taomin etish;

– mehnatning yuqori ish unumdorligini, sifatli bo'lishini taominlash.

Korxona tomonidan talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishlari uchun zarur sharoit yaratilmagan taqdirda kollej rahbariyati va amaliyot o'qituvchilari bu haqda shu kunning o'zida korxona rahbariyatini xabardor etishlari lozim.

Korxona barcha talaba-amaliyotchilarni kasblar bo'yicha o'quv dasturi, mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish tozaligi, meoyor va qoidalari talablariga javob beradigan ish va ish joyi bilan taomin eta olmasa, shuningdek, ishlab chiqarish amaliyoti o'tish davrida talabalar bo'sh turib qolsalar, kollej talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini boshqa korxonalarda o'tkazish huquqi beriladi. Bunday hollarda, bir haftadan kam bo'lmagan muddat ichida kollej maomuriyati tomonidan korxona rahbariyati bu haqda ogohlantiriladi. SHu vaqt orligida boshqa korxona bilan talabalar ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish yuzasidan shartnoma tuziladi.

Kasb-hunar kollejlari bilan talablarning ishlab chiqarish amaliyotini taominlash bo'yicha tuzilgan shartnomaga asosan muassasa va tashkilot maxsus buyruq chiqaradi. Unda talabalarni ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishga qabul qilish, amaliyotchilarning soni, kasbi va ish o'rni, ish turi, mehnatga haq to'lash tartibi, malakali xodimlarni ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishga masoul etilishi aks ettirilgan bo'lishi kerak. Korxona rahbari talabalar ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan davrlarida ularga mehnat xavfsizligi sharoitlarini yaratish hamda soliqlarini taominlash uchun masouldir.

Korxona:

– o'quv dasturi mazmuniga ko'ra talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishlari uchun sharoitlarini yaratish, ularning mehnatini ilmiy tashkil etish, yangi texnika va texnologiya, hamda ilor usullar bilan tanishtirish;

– ishlab chiqarish amaliyoti boshlanishi oldidan talabalarga ish mazmuni, ish joyiga xizmat ko'rsatish, texnika xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish;

– har bir talabaning amaliyotni o'tayotgan davrda zamonaviy talablar asosida asbob-uskunalar va ish joyi bilan to'liq taomin etilishga sharoit yaratish;

- talabalarni ishlab chiqarish ta’limi dasturida ko’zda tutilmagan ishga jalb etishga yo’l qo’ymaslik;
- jamoaning yosh xizmatchilari qatori amaliyotni o’tayotgan talabalar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- talabalar tomonidan idoralarning ishi bajarilganda belgilangan tartibda ish haqi to’lash;
- talabalarga jinsi va yoshiga qarab tegishli tibbiy-gigienik va mehnat sharoitlari yaratish;
- talabalarga bajarishlari lozim bo’lgan vazifalarni o’z vaqtida berish va ularni ish joyi, meoyoriy hujjatlar bilan taominlash;
- talabalar tomonidan bajariladigan ishlarga yo’l-yo’riq ko’rsatish;
- talabalar ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilishga korxona tomonidan malakali xodimlarni ajratish;
- talabalarni o’z mutaxassisliklariga mos bo’lmagan va malaka talab etilmaydigan ishlarga jalb etishga yo’l qo’ymaslik bo’yicha javobgardir.

Korxona va muassasa rahbarlari ishlab chiqarish amaliyoti tugashi oldidan talabalarining bajargan ishi mazmuni, sifati haqida tavsifnomasi beradi va bitiruv malaka-ixtisos imtihoni komissiyasi tarkibida ishtirok etish uchun o’z mutaxassisliklarini ajratadi. Ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik muhandis-pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bu davrda talabalar ishlab chiqarishning bevosita ishtirokchilariga aylanadilar. Mahsulotning oldin oddiy, keyinchalik murakkab turlarini ishlab chiqara boshlaydilar. Muhandis-pedagog vazifasi talabalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan, murakkab ish usullari o’rganish, ularda ijodkorlik, mehnatsevarlik kabi chin insoniy fazilatlarni tarkib toptirishdir.

Muhandis-pedagog amaliyot davomida:

- o’quv – ish joylarini tashkil qiladi;
- talabalarining texnika xavfsizligi qoidalari va mehnat intizomiga rioya qilishlarini nazorat qiladi;
- talabalarining ishlab chiqarish asbob-uskunalarini to’ri ishlatishlari, ehtiyotkorlik bilan foydalanishlarini nazorat qiladi;
- ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari rioya qilishlarini nazorat qiladi;
- talabalarda mehnat madaniyati va estetik didni rivojlantiradi;
- talabalarda maonaviy, ruhiy, irodaviy sifatlarni tarkib toptiradi.

O’quv ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida talabalarining mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini to’ri tashkil qilish orqali bir qancha samarali natijalarga erishish mumkin. Amaliyotga chiqishdan oldin talabalar tadqiqot mavzusini tanlab oladilar. Bunda quyidagi shart-sharoitlar talab qilinadi:

- talabalarining intellektual rivojlanishi darajasi, fanlar bo’yicha tayyorgarligi, individual xususiyatlarini hisobga olish;
- har bir talabaning tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ahamiyatini anglab etishiga erishish;
- har bir talabani faol tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish;
- tadqiqot yo’nalishi, maqsad va vazifalari, uslublarini aniq belgilash;

– ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini keng qamrovda amalga oshirish, muayyan muammo xususida mustaqil fikrga ega bo'lish maqsadida viloyat, respublika yoki Internet orqali ilmiy, madaniy va axborot markazlari imkoniyatlaridan foydalanish;

– muammolarni o'rganish jarayonida talabalarning o'z intellektual va maonaviy kamolotini sinab ko'rish imkoniyatini yaratish.

Talabalar tadqiqotchilik faoliyati bilan mustaqil yoki 4-6 kishidan iborat kichik guruhlarda hamkorlikda shuullanishlari mumkin. Tadqiqot mavzusi kichik guruhlarda mantiqiy qismlarga ajratilgan holda o'rganiladi. Guruh aozolaridan har biri o'z vazifasi ustida ishlaydi, mehnat jarayonini kuzatadi, meoyoriy yo'riqnomalar bilan tanishadi, hisobotlarni tekshiradi, nazariyaning amaliyotga qay darajada mosligini aniqlaydi, turli manbalardan axborotlar izlaydi, tajribalar o'tkazadi.

Amaliyot yakunida talabalar tomonidan tadqiqot mavzusi bo'yicha hamkorlikda bitta doklad yoki referat tayyorlanadi va katta auditoriyaga muhokama uchun tadim qilinadi. Referat yoki doklad taqdimotida o'qituvchi bahs-munozaralar tashkil qiladi. Talabalar to'plangan dalil, hisob-kitob, chizmalar, statistik ma'lumotlar asosida o'z xulosalarini isbotlashlari shart.

Umumta'lim maktablarida kasb tanlash jarayoniga salbiy tahsir ko'rsatayotgan bir qancha kamchiliklarni ko'rsatib o'tish mumkin:

– maktab o'z oldiga kasbga yo'naltirish masalalarini qo'ymaydi, kasb tanlash tasodifiy omillar tahsirida sodir bo'ladi va natijada insonning tanlagan kasbidan ko'ngil qolishiga olib keladi;

– maktab kasbga yo'naltirish masalalarini mehnat bozori vaziyatidan kelib chiqib hal qilmaydi, talabalarni tor doiradagi kasblar va chegaralangan sonlari ta'lim muassasalariga yo'naltiradi;

– kasbga yo'naltirish ishlari hozirgi kun talablariga javob bermaydi;
– talabalarning individual xususiyatlari hisobga olinmaydi;
– kasbga yo'naltirish xonalarining jihozlanishi bugungi kun talablariga javob bermaydi yoki umuman mavjud emasligi;
– talabalar uchun axborotlarning kamligi.

Nazorat savollari:

1. DTS nima? Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi DTS fanlar blokini ko'rsatib bering.
2. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim qanday shakllar amalga oshiriladi?
3. Ma'ruza mashulotlarini tashkil qilishga qanday talablar qo'yiladi?
4. Amaliy va laboratoriya mashulotlariga qanday talablar qo'yiladi?

Mustaqil tadqiqot vazifasi:

1. Oliygo'hlarda maxsus fanlarning o'qitilishi jarayonini o'rganing: yutuqlar, kamchiliklar va takliflarni umumlashtiring.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitilish jarayonini o'rganing. YUtuqlar, kamchiliklar va takliflarni umumlashtiring.

TA'LIM JARAYONINING ZAMONAVIY KONTSEPTSIYASI. SHAXSGA YO'NATIRILGAN TA'LIM

Butun jahon pedagoglarining ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish haqidagi fikrlari bir-biriga yaqin. Postindustrial jamiyatga mustaqil fikrlaydigan, o'z-o'zini namoyon qila oladigan, yuqori malakali, o'z ustida mustaqil ishlay oladigan, o'z intellektini, madaniyatini, maonaviy dunyosini yanada rivojlantirishga qodir shaxslar darkor.

Juda ko'pgina mamlakatlar ta'lim-tarbiya tizimining bosh strategik yo'nalishi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. YAoni bunda talaba shaxsi pedagog nuqtai nazarida bo'lib, ta'lim jarayonida har bir talabaga alohida uning individual xususiyatlarini eotiborga olgan holda yondoshiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni gumanistik oqimda anoanaviy ta'lim tizimiga nisbatan boshqacharoq mohiyat kasb etadi. Agar anoanaviy ta'lim tizimida asosiy manba, bilim manbai sifatida o'qituvchi va darslik hisoblangan bo'lsa, gumanistik oqimda ta'limga yangicha yondashuv, yaoni o'qituvchi asosan talabaning faol va mustaqil ta'limiy faoliyatining tashkilotchisi, ishonchli konsulptanti va yordamchisi sifatida maydonga chiqadi. Anoanaviy ta'lim tizimida o'rin olgan o'qituvchi – darslik – talaba tizmasini qat'iylik bilan yangi: talaba – darslik – o'qituvchi tizmasiga o'zgartirilishi talab qilinadi. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi xuddi shu printsipga asoslangan va bu falsafa, pedagogika va psixologiyada gumanistik yo'nalish hisoblanadi.

Gumanistik oqimning yorqin vakili Karl Rodjers ushbu yo'nalishning asosiy printsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Individni kurshab turgan borliq o'zgaruvchan, u taraqqiyot markazida. SHunday ekan, har qanday pedagog uchun muhim bo'lgan ikkita xulosaga kelish mumkin: individ borliqni o'z shaxsiy xulosalari, nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda anglaydi, idrok qiladi, bu idrok qilishda individning shaxsiy xulosalari muhimroq va individning ichki dunyosi, ichki kechinmalari o'zga bir individ tomonidan oxirigacha mukammal o'rganilib chiqilishi mumkin emas.

2. Individ uni kurshab turgan borliqqa nisbatan o'z ichki kechinmalari, o'z shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda munosabat bildiradi.

3. Individ o'z-o'zini anglash va namoyon qilishga intiladi. U o'zida mukammallikka tomon ichki bir intilish sezadi.

4. hamfikrlilik, hamkorlik individ rivojlanishining muhim omillaridan hisoblanadi va bu esa insonlarning o'zaro muloqoti jarayonida amalga oshadi.

5. Rivojlanish, mukammallikka intilish individning tashqi muhit, o'zga insonlar bilan hamkorligi jarayonida ro'y beradi. Individ uchun o'zga shaxslarning u haqdagi fikrlari juda ahamiyatli, chunki aynan o'zgalarning unga nisbatan munosabati orqali u o'z-o'zini anglaydi.

Karl Rodjersning qarashlari gumanistik pedagogikaning asosini tashkil qiladi.

Ta'limning gumanistik oqimida ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy eotibor talaba shaxsiga, uning ta'limiy faoliyatiga qaratiladi. Bunda talabaning intellektual rivojlanish darajasi, muayyan fan bo'yicha tayyorgarligi, qobiliyatini hisobga olgan holda ta'limga differentsial yondashish talab qilinadi. Ushbu oqim vakillari tomonidan inson hayotining barcha qirralari bir-biri bilan fundamental ravishda bo'liqligi, ta'lim insonning ham jismoniy, ham emotsional, ham ijtimoiy, ham estetik, ham ijodiy, maonaviylikni, ham intellektuallikni rivojlantirish to'risida qayurishi kerakligi to'risida ta'kidlaydilar.

Ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab qilinadi:

- har bir talabani faol ta'limiy jarayonga tortish, egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish malakalarini shakllantirish, muhimi ushbu egallangan bilim va malakalarni aynan qaerda va qanday qo'llash mumkinligini ularga anglatish;

- turli muammolarni hamkorlikda hal qilish jarayonida o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirish;

- muayyan muammoni har tomonlama tadbiq qilish, ushbu muammo xususida ilmiy-amaliy asoslangan mustaqil fikriga ega bo'lish maqsadida universitet, respublika yoki dunyo miqyosida ilmiy, madaniy va axborot markazlari imkoniyatlaridan foydalana olish, axborot olishning cheksiz imkoniyatini foydalanish;

- hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan muammolarni to'ri aniqlay olish va ularni turli ijtimoiy vaziyatlarda hamkorlikda hal etish maqsadida o'z intellektual va maonaviy imkoniyatlarini sinab ko'rish.

Zamonaviy ta'lim tizimining turli innovatsion yo'nalishlari ichida hamkorlikda ta'lim texnologiyasiga to'xtalishga qaror qildik. Bizning fikrimizcha: 1) ushbu ta'lim texnologiyasini mavjud dars-sinf tizimiga osonlik bilan tadbiq qilish mumkin. Davlat ta'lim standartlarida belgilangan ta'lim mazmunini o'zgarishiga olib kelmaydi, pedagogika, didaktika, psixologiya, o'qitish metodikalarining mavjud yutuqlarini qo'llash imkonini beradi; 2) ushbu texnologiya falsafiy, psixologik, maonaviy jihatdan gumanistik. Nafaqat o'quv materialining barcha talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydi, balki ularning intellektual va maonaviy rivojlanishiga, asos bo'ladi, ularda mustaqillik, bir-biriga va o'qituvchiga nisbatan samimiylilik, kommunikabellik, bir-birini qo'llash, yordam berish sifatlarini shakllantiradi.

Ushbu texnologiyani anoanaviy ta'lim sharoitlariga osonlik bilan tadbiq qilish mumkin. Lekin bunda o'qituvchidan ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv talab qilinadi. YAoni pedagogik jarayonda asosiy figura talaba shaxsi ekanligi, bunda talabaning ta'limiy faoliyati, bilimlarni mustaqil egallash, o'zlashtirilgan bilim va malakalarni amaliy faoliyatda mustaqil qo'llash birinchi o'ringa chiqarilishi, tayyor bilimlarni o'zlashtirish va asliday qayta takrorlaya aytmq emas, balki birgalikda fikr-mulohaza qilish, diskussiyalar o'tkazish, tadqiqotlar qilish, bilimlarni eslash va asliday qayta takrorlash emas, balki o'z tanqidiy fikriga ega bo'lish, talaba shaxsining jismoniy, ruhiy, maonaviy xususiyatlarini kompleks ravishda hisobga olgan holda, har bir talabaning betakror individ ekanligini eotiborga olishi juda muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida hamkorlikda ta'lim texnologiyasi ko'pdan qo'llanilib kelinadi. Bu oya ilk bor D.Dpyui tomonidan XX asrning 20 yillarida ilgari surilgan. Lekin ushbu texnologiyaning metodik tavsifi 70 yillarning oxiri, 80 yillarning boshlarida dunyoning turli mamlakatlarida Buyuk Britaniya, Kanada, arbiy Germaniya, Avstraliya, Gollandiya, YAponiya va Isroilda matbuotda paydo bo'ldi.

hamkorlikda ta'lim texnologiyasining asosiy oyalarlari Amerikaning Djon Xopkins universitetining 3 guruh pedagog-olimlari tomonidan batafsil ishlab chiqilgan: Robert Slavin, 1990. Bundan tashqari 1978 yilda Kaliforniyalik Djon Aronson boshliq olimlar guruhi tomonidan, 1987 yilda Minnesota universitetidan Rodjers Djonson va Devid Djonsonlar boshliq olimlar guruhi tomonidan, 1988 yilda Telp-Aviv universitetidan SHlomo SHaran, boshliq olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan.

SHimoliy Amerika, Isroil va Evropa olimlari tomonidan taklif qilingan hamkorlikda ta'lim texnologiyalarini umumiy printsip va yondashuvlar birlashtiradi. Biroq ular bir-biridan baozi jihatlari bilan farq qiladi. Amerikalik olimlar tomonidan taklif qilingan hamkorlikda ta'lim o'quv dasturlarida ko'zlangan akademik bilimlarni, tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, Evropa va Isroil olimlari ta'limiy faoliyatni mustaqil tadqiqotchilik, diskussiyalar tashkil qilish bilan bolaydi. Lekin ushbu texnologiyaning har bir varianti bir-birini to'ldiradi.

Ushbu texnologiyaning mohiyatiga etish uchun yo'nalish mualliflari fikrimizni ta'lim jarayonida "xato" tushunchasiga qaratadilar. "Xato"ni bilimsizlik, noto'ri fikrlash, eotiborsizlik natijasida sodir bo'ladigan noto'ri harakat deb tushunish mumkin. oya mualliflari ushbu taorifga qo'shimcha sifatida "egallagan bilim, malakalar etarli emasligi va ko'zlangan natijaga erishish uchun qo'shimcha tajriba, malaka zarur ekanligi yanada qo'shimcha ravishda mashq qildirish zarurligini bildiruvchi fakt" tushunchasini taklif qiladilar. Talaba xato qildimi, demak uning bilim va malakalari etarli o'zlashtirilmagan, unga yana qo'shimcha tajriba egallash zarur. Zarur bilimlarni etarli darajada o'zlashtirib olishi uchun ularning har biriga alohida imkoniyat yaratib berish zarur. Siz bu yordamni talabalarigizga bera olmasangiz, ushbu masouliyatni sizning talabalarigiz kichik guruhlarda hamkorlikda ta'lim olish jarayonida bajaradilar.

Katta guruhda, kollektivda ham ta'lim jarayoni amalga oshadi. Bunda bilimli talaba doim yutadi, u bilimlarni tezda ilgab oladi va o'qituvchi o'z faoliyatida unga tayanadi. Bo'shang talaba esa bo'shangligicha qolaveradi, chunki u belgilangan muddatda bilimlarni o'zlashtirib ulgurmaydi, o'qituvchiga savollar bilan murojaat qilishga juroati etishmaydi. Lekin yonida tengdoshi bo'lsa undan tushunmagan narsasini so'rashi, muhokama qilib olishi mumkin. O'quv materialini ayrim talabalar qisqa muddatda, ayrimlar esa ko'proq vaqtda o'zlashtirib oladilar. Bu jarayonning samarali kechishi metodikaga boliq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, birgalikda o'qish, o'rganish nafaqat oson va qiziqarli, balki ancha samarali hamdir. Bu talabalarning akademik bilimlarini oshiradi, ularni intellektual va maonaviy rivojlantiradi.

hamkorlikda ta'lim jahon pedagogikasida tan olingan. hamkorlikda ta'lim texnologiyasining maqsadi talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda uning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali egallashga erishish bilan birga ularni kommunikabellik malakalarini, turli ijtimoiy vaziyatlarda o'z-o'zini idora qilish, o'z imkoniyatlarini to'ri baholay olish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Talabalar birgalikda ishlashga, o'qishga, ijod qilishga o'rganadilar. Ular o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik, samimiylik, o'zgalar muvaffaqiyatidan quvonish, o'zaro simpatiya faqat dars jarayonida davom qilmay, balki bu sifatlar hayotiy, kundalik muomala vaqtida ham davom qiladi. Bu esa o'z navbatida talabalarning maonaviy yuksalishida muhim omildir. O'zaro hurmat, hamkorlik talabalar uchun odatiy holga aylanadi.

hamkorlikda ta'lim texnologiyasi Amerika va Evropa olimlari talqinida o'z variantlariga ega.

I variant. Ushbu variant Djon Xopkins universitetidan Rober Slavin boshliq bir guruh olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Bunda asosiy eotibor guruhning umumiy maqsadlariga va umumiy muvaffaqiyatiga qaratiladi. Muvaffaqiyat guruhning har bir aozosi biror o'rganilayotgan muammo, mavzu ustida mustaqil, shu bilan birga boshqa guruhdoshlari bilan hamkorlikda ishlashi natijasida qo'lga kiritiladi. har bir talabaning vazifasi hamkorlikda o'rganish, ta'lim olish, hamkorlikda o'rganish jarayonida ularning alohida har birining zarur bilim va malakalarni egallashi va muhimi kimning qanday darajada egallaganligini bilish.

Butun komanda o'quv materialining uning har bir aozosi tomonidan o'zlashtirilishidan manfaatdor, chunki komandaning yutui uchun ularning har bir shaxsan masoul. Komandaning yutuiga uning har bir aozosi o'z ulushini qo'shadi.

Ushbu ta'lim texnologiyasi 3 ta printsiptga asoslanadi:

1. Rabatlantirish – guruhga tadqiq qilingan muammoni qay darajada hal qilganligidan kelib chiqqan holda bitta umumiy baho qo'yiladi. Buning uchun komanda bitta umumiy vazifani bajarishi kerak. Guruhda tashkil qilingan komandalar bir-biri bilan musobaqalashmaydi, chunki ularning har birining alohida topshirii bor.

2. Individual masouliyat. Guruhning zafari yoki muvaffaqiyatsizligi uning har bir aozosining alohida zafari yoki muvaffaqiyatsizligiga boliq. Bu guruh

aozolarini bir-birlarining ta'limiy faoliyatini eotibor bilan kuzatishga, lozim bo'lsa bilimlarni o'zlashtirishda bir-birlariga yordamga kelishga rabatlantiradi. Guruhning yutui yoki yutkazishida har bir guruh aozosi individual masoul. Ularning har biri o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan nazorat, test, savol-javobga alohida mukammal tayyor bo'lishi lozim. O'qituvchi guruh aozolaridan xohlagan birini kontrolp tekshiruvdan o'tkazishi va ushbu nazorat natijasidan kelib chiqqan holda guruhga bitta umumiy baho qo'yishi mumkin.

3. YUtuqqa erishishda har bir talabaning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi. Bunda talaba o'z natijalarini yaxshilashi orqali guruhga ball keltiradi. Uning yutui boshqa guruh aozolari natijasi bilan emas, balki o'zining oldingi va ayni vaqtdagi bilim darajasi bilan taqqoslanadi. Talaba o'z imkoniyatlarini yaxshilashga harakat qiladi. CHunki uning zafari komandaning zafari R.Slavinning fikricha talabalar bir-birlarining yutuidan manfaatdor bo'lishi kerak. Bundan tashqari talabani uning oldingi natijalariga nisbatan baholash uni boshqa talabalarga nisbatan baholashga qaraganda samaraliroq. U guruh yutui uchun o'z natijalarini yaxshilash lozimligini tushunadi.

Ushbu texnologiyaning bir nechta variantlari ishlab chiqilgan. R.Slavin tomonidan 1986 yilda taklif qilingan. Bunda 4 ta talabadan iborat, yaoni o'bil va qizlar, turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan guruh tashkil qilinadi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bo'lgach, yaoni ma'ruzadan keyin seminar mashulotlarida o'tkazish mumkin. O'qituvchi guruhga ma'ruzada to'xtalgan ilmiy oya, taorif, tushunchalarni batafsil mustaqil o'rganish, tadqiq qilishni taklif qiladi. Muammoni tadqiq qilish bo'yicha zarur yo'l-yo'riqlar beriladi. Mavzu qismlarga bo'lgan holda o'rganilishi mumkin. YAoni har bir talabaning o'z vazifasi bo'ladi. YOKi mantiqiy izchillikda, navbatma-navbat bajarish mumkin, bittasi boshlaydi, keyingisi davom qildiradi. Bunda topshiriqning bajarilishi talaba tomonidan ovoz chiqarib izohlanadi, boshqalari esa, tinglab, kuzatib turadilar.

Topshiriq bajarib bo'lingach, o'qituvchi uni darsda umumiy muhokamaga qo'yadi: agar hamma guruhlariga bir xil topshiriq berilgan bo'lsa. Agar topshiriq har xil bo'lgan bo'lsa, faqat guruh ichida muhokama qilinadi. O'qituvchi o'quv materialining hamma talabalar tomonidan to'la o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilgach, guruh aozolarini test nazoratidan o'tkazadi. Test topshiriqlarini har bir talaba mustaqil o'zi echadi. Testlar differentsiallashtiriladi, yaoni talabaning tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda test topshirii tayyorlanadi va taqdim qilinadi. Talaba individual test topshiriini bajarar ekan, unga baho o'zining oldingi natijalaridan kelib chiqqan holda qo'yiladi. YAoni kuchli va bo'sh talaba guruhga bir xil ball keltiradi. R.Slavinning fikricha ushbu metod yangi o'quv materialining har bir talaba tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga imkon beradi.

2 – ko'rinish. Turnir stollari didaktik o'yini. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bo'lgach, xuddi birinchi variantdagiday kichik guruhlarda mavzuning oyasini, mohiyatini tadqiq qilish batafsil mustaqil o'rganish uchun hamkorlikda ta'lim tashkil qiladi. Lekin baholashda test topshirii o'rniga turnirlar tashkil qiladi. Buning uchun "turnir stollari" o'tkaziladi. har bir stolda 3 tadan talaba: kuchlilar kuchli bilan, o'rtacha tayyorgarlikdagi talaba o'z tengi bilan turnirlar o'tkazadilar.

Topshiriq, savollar talabaning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, differentsiallashtirilib beriladi. Turnir olibi o'z komandasiga yutuq keltiradi. Eng ko'p ball olgan komanda turnir olibi deb eolon qilinadi va taqdirlanadi.

II. hamkorlikda ta'lim texnologiyasining yana bir yo'nalishi 1978 yilda prof. Elliot Aronson tomonidan ishlab chiqilgan vapila arra metodi deb ataladi. Bundan 6 kishidan iborat guruhlar tuzildi va o'quv materiali mantiqiy bloklarga bo'lib o'rganiladi. Guruh aozosining har birining alohida topshirii bor. har biri o'z vazifasi ustida ishlaydi, manbalardan axborot izlaydi, tadqiq qiladi. Keyin turli guruhlardan bir xil muammoni o'rganayotgan talabalar urashib, o'zaro axborot almashadilar. Bu "ekspertlar uchrashuvi" deb ataladi. Keyinchalik ekspertlar o'z guruhlariga qaytib, guruhdoshlariga o'zlari o'rgangan, to'plagan yangi axborotlarni etkazadilar. O'z navbatida qolganlar ham o'z topshirii bo'yicha to'plagan axborotlarini bir-birlariga etkazadilar. Talabalar axborot to'plash jarayonida bir-birlarini eotibor bilan tinglab, kerakli narsalarni yozib olishlari darkor. Muammoning tadqiq qilinishi bo'yicha guruhning har bir aozosi alohida va umumiy lashtirib hisobot beradilar. YAkuniy bosqichda o'qituvchi xohlagan talabadan mavzu bo'yicha xohlagan savol bilan murojaat qiladi va umumiy bahoni qo'yadi.

III. hamkorlikda ta'limning 3 yo'nalishi Minnesota eniversiteti olimlari Devid Djonson va Oddjer Djonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Talabalar 3 yoki 5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadilar. Bitta mavzu bir nechta mantiqiy qismlarga bo'linadi va kichik guruhlarda tadqiq qilinishi uchun taqdim qilinadi. har bir guruh muammoning bir qirrasini o'rganishi lozim bo'ladi. Bir mavzuning turli qirralari kichik guruhlarda batafsil o'rganiladi. Barcha talabalar o'z guruhlarida faoliyat bilan qamralgan bo'lishi kerak.

Kichik guruhlariga birlashgach, talabalar guruh tarkibida kim nima bilan shuullanishini belgilab oladilar. Demak, har kimning o'z vazifasi bor, yaoni guruhdoshlarining topshiriqni to'ri bajarishini kuzatish, ularning har birining alohida faollik monitoringini aniqlab borish, o'zaro muloqot madaniyatiga rioya qilish. SHunday qilib guruh 2 xil vazifani ado qiladi. Bir tomondan akademik vazifa – ta'limiy faoliyat, ikkinchi tomondan – ijtimoiy-psixologik, yaoni muammo ustida hamkorlikda ishlash jarayonida o'zaro muloqot madaniyatiga rioya qilish. O'qituvchi o'z navbatida akademik vazifani bajarish muvaffaqiyatini, ularning o'zaro muloqot madaniyatini, zarur paytlarda bir-biriga yordamga kela olish qobiliyatini nazorat qiladi.

IV. Yo'nalish kichik guruhlarda talabalarning tadqiqotchilik faoliyati deb ataladi va 1976 yilda Telp-Aviv universitetidan SHlomo SHaran tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda asosiy eotibor talabalarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatiga qaratiladi. Talaba yakka yoki 6 kishidan iborat kichik guruhlarda faoliyat yurgizishi mumkin.

Talabalar o'quv dasturida ko'rsatilgan, ayni vaqtda o'rganilayotgan mavzuni tadqiq qilish uchun tanlab oladilar. SHunday qilib har kim katta mavzuning bir qirrasini o'rganadi. Bunda guruh yutuiga har kim o'z ulushini qo'shadi.

O'rganilgan mavzu bo'yicha kichik guruhlarda diskussiyalar, muhokamalar o'tkaziladi. YAkunida tadqiqot mavzusi bo'yicha hamkorlikda bitta doklad tayyorlanadi, guruh aozolari tomonidan imzo chekilib, katta auditoriyaga muhokamaga taqdim qilinadi, o'qib eshittiriladi. Qo'lga kiritilgan muvaffaqiyat guruh faoliyati natijasiga tahsir qiladi. Mavzu taqdimotida bahs-munozaralar odatiy holga aylanadi, ta'limiy faoliyat bilan guruhning barcha aozolari qamrab olinadi. Bunda har bir guruh aozosi o'z vazifasini mukammal, aolo darajada bajarishga harakat qiladi, chunki bu guruhning umumiy faoliyatiga tahsir qiladi.

Ushbu metoddagi kichik guruhlarini tashkil qilish va hamkorlikda topshiriqni bajarishni taklif qilishning o'z kifoya emas. Talabalarning mustaqil ta'limiy faoliyat yurgizishlari uchun motivatsiyani vujudga keltirish darkor.

YUqorida qayd qilingan variantlarning asosiy oyalarini – maqsad va vazifalarning umumiyligi, individual masouliyat va yutuqqa erishishda teng imkoniyatlar. hamkorlikda ta'lim asosini musobaqa emas, hamkorlikda faoliyat tashkil qiladi. Individual masoullik – bu guruhning yutuida uning har bir aozosining o'z hissi borligini bildiradi va guruh aozolarini o'zaro bir-birlariga yordamga kelishga undaydi. Bunda talabalarning guruhning umumiy yutuiga qo'shgan hissi, ularning intilishlari yuqori motivatsiyani vujudga keltiradi.

Bundan tashqari talabalarda o'zaro muloqot madaniyati shakllanadi. Bu muloqot ijtimoiy hamdir, chunki talabalar hamkorlikda faoliyat yuritishlari natijasida turli ijtimoiy rollarni bajaradilar: lider, tashkilotchi, ma'ruzasi, ekspert, tadqiqotchi.

hamkorlikda ta'lim metodining Amerika-Isroil variantlarida talabalarga individual yondashuv kuzatiladi. Talabalar muammoni har tomonlama tadqiq qilishlari uchun uni barcha qirralarini turli axborot manbalaridan foydalangan holda batafsil o'rganadilar. Bunda barcha talabalar ta'limiy faoliyat bilan qamrab olinadi va ularning har biri alohida mavzuni mukammal bilishi talab qilinadi. Bunda guruhlarda bahs-munozaralar, tadqiqotning turli variantlarini ilgari surish, eng qulay yo'nalishni tanlab olish, xulosalar chiqarish, tanqidiy, ijodiy fikrlash odatiy holga aylanadi. Bunda talabalarda intellektuallik, muloqot madaniyati shakllanishiga ham e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi o'quv jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiy, tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatining tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. U endi insoniyat tomonidan to'plangan tayyor, bilim, tajribalarnigina etkazib berish bilan kifoyalanmaydi. O'qituvchi talabalarga zarur bilimlarni mustaqil egallashda, muammo bo'yicha to'plangan axborotlarga tanqidiy yondashish, xulosalar chiqara olish, kerakli dalillar asosida muammolarni echimini topishda yordam berishi lozim bo'ladi. Natijada o'quv materialining o'qituvchi bayoni va darslik orqali egallash kifoya qilmay qoladi. Talabalarda qo'shimcha axborotlar izlash zarurati paydo bo'ladi. Ular qo'shimcha manbalarga, mahlumotnoma va boshqa adabiyotlarga murojaat qilishlariga to'ri keladi. Muammolar ustida ishlash, tadqiqotchilik faoliyati odatiy holga aylanadi.

Tashkiliy etaplari: O'quv xonasining planirovkasini o'zgartirish taklif qilinadi. Muhimi talabalarning bir-birlari bilan muloqot qila olishlari uchun,

ishlashlari uchun sharoit yaratib berish. YAoni hamkorlikda ishlash, tinglash, muloqot qila olish, bahslashishlari uchun sharoit yaratish. hatto har bir guruhning alohida o'z doskasi bo'lishi taklif qilinadi.

hamkorlikda ishlashga tayyorlash jarayonida o'qituvchi talabalarni:

- guruhdagi har bir sherigi bilan hamkorlik qila olishga;
- faol bo'lish, topshiriqqa jiddiy yondashishga;
- sherigi bilan muloqotda muloyim va hurmatda bo'lishga;
- nafaqat o'z yutui, balki sheriklari yutui uchun ham masouliyat sezishga;
- hamkorlikda ishlash jiddiy va masouliyatli ekanligini his qilishga o'rgatishi lozim bo'ladi.

Dars jarayonida o'qituvchi har bir talabaning faol qatnashishini nazorat qilishi, zarur hollarda ularga yordamga kelishi, talabalarga nisbatan xayrixoh munosabatda bo'lishi talab qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim metodlarining samaradorligi haqida fikringiz qanday?
2. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatini tushuntirib bering. Karl Rodjers printsiplari to'risida fikrlaringizni bayon qiling. Sizda qanday eotirozlar paydo bo'ldi?
3. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammolari "xato" tushunchasini qanday anglaydilar? Sizningcha "xato" nima? Nimani bildiradi?

Mustaqil tadqiqot vazifasi:

1. Kichik guruhlarda hamkorlikda dars modelini rejalashtiring va namoyish qiling.

MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH METODLARI

Metod – grekcha izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot maonosini anglatadi – konkret vazifani echishga qaratilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yiindisi.

Metod – ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining muayyan maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini taominlovchi usullar yiindisi.

Metodlar tizimi:

1. O'quv tarbiya ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari:
 - so'z orqali bayon qilish: tushuntirish, ma'ruza, hikoya;
 - ko'rgazmali: namoyish qilish, video usul;
 - amaliy: mashqlar metodi, laboratoriya, kitob bilan ishlash;

- induktiv;
- deduktiv;
- reproduktiv;
- muammoli ta'lim: bahs, kichik guruhlarda ta'lim, aqliy hujum, tadqiqotchilik faoliyati, loyihalashtirish, rolli o'yinlar.

2. Ta'limda rabatlantirish metodlari.

3. Ta'limda nazorat metodlari.

Keyingi vaqtlarda muammo o'qitish metodlaridan foydalanish davr taqozosi bo'lib bormoqda. Chunki bunda ta'limga rivojlantiruvchi xarakter beriladi, talabalar tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni taominlaydi va ta'lim jarayonining samarali bo'liga erishish mumkin.

O'qitish metodlarini tanlashda uning samaradorligini e'tiborga olish katta ahamiyatga ega:

- tadqiqotchilarning fikricha, ozaki metodlardan foydalanganda, talabalar ma'lumotning eshitganning 5%ni eslab qoladilar;

- kitob o'qish ma'lumotning 10%ni rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish ma'lumotlarni 20% o'zlashtirishni taominlaydi;

- mashq metodidan foydalanganda o'qigan, yozgan va gapirganlarimizning 50%, aqliy hujum, loyihalashtirish, rolli o'yinlar, tadqiqotchilik eng samarali hisoblanadi, buning natijasida talabalar ongida ma'lumotlarning 75% saqlanib qoladi. Lekin o'quv amaliy mashulotlarning talabalar tomonidan olib borilishi yanada samarali hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi.

hozirgi vaqtda o'qitishning zamonaviy shakllaridan keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quv jarayonining samarali bo'lishiga olib keladi. Noan'anaviy o'qitish jarayonida talaba shaxsiga erkinlik berish va ijodiy, mustaqil fikrlashi uchun imkon yaratiladi.

An'anaviy dars muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq talaba shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv jarayonida o'quv materiallari yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan bir metodi bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, an'anaviy darsda markazda o'qituvchi turadi. Shu bois an'anaviy ta'limni markazda o'qituvchi turadigan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'qituvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- talabaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni inobatga olish;
- o'quv jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- talaba tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan taominlash;
- talaba o'quv jarayonini engillashtiruvchi shaxs;
- o'quv jarayonini baholash.

Anoanaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. SHu sabab bu hollarda anoanaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, talabalar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, anoanaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli tuman talabalar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish talabalarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga sabab bo'lar ekan.

Buning uchun o'quv jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi doim rabatlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang, qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, talabalarning amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan vaqtida foydalanish talab qilinadi.

Anoanaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Kirish:

- o'tgan materialni takrorlash;
- dars maqsadini tushuntirish;
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. YAngi mavzuni yoritish:

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish;
- rang-barang misollarni imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish;
- mavzudan chetlashmaslik;
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish;
- talabalarning tushunganlik darajasini tekshirib borish;
- bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini tekshirib ko'rish.

3. Mashq qildirish:

- biror misol yoki masalani talabalar bilan qadamba-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq:

- talabalar mashq yoki masalani mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq:

- talabalar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamida bajarishadi.

6. Talabalar tushunganlik darajasini tekshirish.

7. YAkunlash:

- dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

Anoanaviy metodlarning afzalliklari:

- mahlum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq mahlum tushunchalarni fanni o'rganishda foydali;

- o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;

- vaqtdan unumli foydalanish;

– aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- talabalar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- o'qituvchining to'la nazorati barcha talabalar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hamma talabalarda bir xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

O'qitishning noanoanaviy modellari. O'qitishning noanoanaviy modellarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- hamkorlikda o'rganish modeli;
- modellashtirish;
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan talaba shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni boshqacha qilib markazda talaba turadigan ta'lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz beradigan voqea va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini modelini sinfda yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

hamkorlikda o'rganish modeli – talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi natijasida ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli u talabalarni muayyan muammoni echishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Noanoanaviy o'qitish metodlarining afzalliklari:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib borishi;
- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida aloqalarning taominlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun shart-sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- talabalarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- fikrlash, mustaqil fikrlay oladigan talabaning shakllanishiga yordam berishi;
- nafaqat fanning mazmuni o'zlashtiriladi, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi;
- muammolar echish ko'nikmasining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etilishi;
- talabalarni har doim kerakligicha nazorat qilishning pastligi;

- juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;
- kuchsiz talabalar bo'lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olishi;
- o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmasiga ega bo'lishining talab etilishi.

Ta'limda interfaol metodlar. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish va demokratik jamiyat barpo etish yo'lidan bormoqda. Pedagoglarni qanday qilib yosh avlodni iqtisodiy sermahsul hayotga tayyorlash mumkin degan savol o'ylantiradi va ta'limga yangicha nazar bilan qarashga undaydi.

Bilimlarning, barcha sohalaridagi axborotlarning kundek oqib kelishi hozirgi zamon rivojlangan jamiyatda shaxsning o'z malakasi, saviyasini mustaqil oshirishga imkon beradigan, moslashuvchan bo'lishini talab qiladi. Oliy ta'lim dargohini bitkazuvchi mutaxassis zarur axborotlarni mustaqil topib olishi, muammolarni qismlarga ajratgan holda ularni maqsadga muvofiq hal qilish yo'llarini izlash hamda olayotgan bilimlarini chuqur tahlildan o'tkaza olishi va ulardan turli muammolarni hal qilishda qo'llay olishi kabi malakalarga ega bo'lishi zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Interfaol metodlar ta'lim berishda talabalarning axborotlarni o'zlashtirib olish faoliyatini tashkil qilishning maxsus shaklidir. Interfaol o'tishining mohiyati o'quv jarayonini tashkil qilinishida bo'lib, bunda barcha talabalar bilim olish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular o'zlari o'ylagan narsalar xususida tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quv materialini o'zlashtirishga har bir shaxs o'z ulushini qo'shadi, bilimlar, oyalar, faoliyat usullari bilan almashinuv jarayoni kuzatiladi. SHu bilan birga ta'limning bu metodik shakli o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash va ochiqko'ngillik muhitida bo'lib o'tadi.

O'qitishning interfaol metodlarini qo'llashning bozor iqtisodiyoti sharoitida muhimligini ta'kidlash o'rinlidir, chunki bu metodlar insonning umumiy kamoloti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ta'limda bevosita biz tomonimizdan loyihalashtirish – tadqiqot metodidan foydalanib kelinmoqda. Loyihalashtirish – tadqiqot metodining oyalar 1920 yillarda AQSHda Dj.Dpyui va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan ilgari surilgan. Dj.Dpyui ta'limni faoliyat negizida amalga oshirishni taklif qiladi. Talabalarning bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va akademik bilimlar negizida ularni amaliy faoliyatga tayyorlashni ko'zda tutadi. U yoki bu ilmiy-nazariy ma'lumotlar nima uchun o'rganilmoqda, ushbu bilimlarni qachon, qanday vaziyatlarda qo'llash mumkin? Kabi savollar ko'ndalang qo'yiladi. Bu savollarga javobni real, hayotiy muammolarni echish natijasida topish mumkin bo'ladi. Masalalar echimini topishda ular oldin egallagan bilimlariga tayanadilar va albatta bilimlarini yanada kengaytirishda zarurat sezadilar. Lekin bilimlarni qanday kengaytirish mumkin. O'qituvchi yordamida talabalar faoliyati

yo'nalishini belgilab oladilar. Talabalar real, hayotiy muhim bo'lgan muammolarni echishlari va muayyan natijalarni qo'lga kiritadilar.

Ushbu metodning asosiy tezisi "O'zlashtirgan bilimlarimni qachon, nima uchun va qanday foydalanishni bilaman?". Mohiyati ta'limga qiziqishni oshirish, bilimlarni konkret hayotiy, kasbiy faoliyatda qo'llash malakalarini shakllantirish. Talabalar hamkorlikda tadqiqot olib boradilar va muayyan natijalarni qo'lga kiritadilar. O'rganiladigan muammolar talabalar uchun dolzarb, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqotchilik metodi biror muammoni hal qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar mustaqil yakka tartibda, juftliklarda yoki hamkorlikda kichik guruhlarda olib borilishi mumkin. Bunda ko'pgina sohalar bo'yicha bilimlarning integratsiyalashuvi ham kuzatiladi: fan, texnika, texnologiya, ijodiy sohalar. Tadqiqot natijalari konkret shakllangan bo'lishi lozim: nazariy tadqiqotlar bo'lsa, aniq xulosalar, amaliy faoliyatga tadbqiq qilish mumkin bo'lgan takliflar, yo'nalishlar, natijalar.

Tadqiqot metodi bir qator ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi: talaba mustaqil ijodiy va tanqidiy fikrlay olishi, muammo mohiyatini anglashi, hal qilishning turli variantlarini o'ylab ko'rishi, eng qulay va maqsadga muvofiqni topishi, qo'lga kiritish mumkin bo'lgan natijalarni oldindan ko'ra bilish lozim bo'ladi. Bu metodni qo'llash o'qituvchidan chuqur bilim, mahorat talab qiladi.

Metodni qo'llashda o'qituvchi quyidagilarga eotibor berishi kerak:

- tadqiqot uchun motivatsiya, qiziqishni vujudga keltirish. Muammoning mavjudligini, uning muhimligi eotirof qilinishi lozim. Ekologik, demografik, huquqiy savodxonlik;

- yakka, juftliklarda, kichik guruhlarda mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini olib borish;

- tadqiqot mantiqiy izchillikda olib borilishini taominlash uchun bosqichlar ketma-ketligini belgilash;

- maqsad va vazifalarini belgilash, gipotezani ilgari surish;

- tadqiqot metodlarini belgilash;

- axborot manbalari bilan ishlash, mahlumotlar yiish, ularni tahlil qilish, umumlashtirish;

- konkret natijalarni qo'lga kiritish, referat, doklad, hisobot, komppyyuter, gazetasi, alpbom.

Mohiyati:

- bilimlarni tayyor holda taqdim qilmasdan, ularni mustaqil o'zlashtirilishiga erishish;

- talabalarda muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash, turli ijtimoiy vazifalarni hal qilish, moslashuvchanlik sifatlarini shakllantirish;

- dunyoqarash kengligi, maonaviy-ruhiy kamolotga erishish;

- fikr kengligi, faoliyatda aniqlik, o'ziga ishonch tuyularini tarkib toptirish.

Davomiyligi:

- qisqa muddatli;

- 1 haftadan, 1 oygacha;

– uzoq muddatli 1 oydan bir necha oygacha.

Loyihalashtirish – tadqiqot metodi. Ta’lim jarayonini kuzatishda ma’lum bo’ldiki, tadqiqotlar inson xatti-harakatiga nisbatan savollar qo’yishni o’rgatishga va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko’maklashadi.

Tadqiqot usulida o’qitish talabalarda savol qo’yish jarayonida va javoblar topishda qiziqish uyotishni nazarda tutadi. SHuning uchun ushbu metod fanlarni o’qitishda samarali bo’lishi mumkin.

Tadqiqot metodi bo’yicha o’qitish talabalarni amaliy ilmiy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta’minlaydi. Bundan maqsad mustaqil fikrlaydigan va aniq nazariy tayyorgarlikka ega bo’lgan insonlarni shakllantirishdir.

Muammolarni aniqlashda va berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish davomida talabalar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va oboektiv bo’lishga o’rganadilar. Ular faktlarni hurmat qiladilar va har qanday bilim nisbiy ekanligini, yangi ma’lumotlar paydo bo’lishi bilan taxminlarini tekshiradilar turli xil axborot va mantiqlarni qo’llashni o’rganadilar.

O’qitishning tadqiqot usuli oliy darajadagi fikrlashga imkon yaratadi. Talabalar olingan ma’lumotlarni tahlil qiladilar.

Amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, shu metod bo’yicha bilim olayotgan talabalar fan bo’yicha chuqur bilimga ega bo’ladilar yangiliklarni tahlil qilish ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

Tadqiqot metodi bo’yicha o’qitish muammoni tuza bilishdan, uni qo’ya bilishdan va ifodalashdan boshlanadi. Talabalarga kutilmagan yoki noma’lum voqea-hodisa tanishtiriladi. Muammo yoki hodisa bilan tanishganlaridan so’ng, ular bu muammoning echish yo’llarini yoki hodisani tushuntirish variantlarini taklif qilishlari va savollar qo’yishlari lozim. YOki o’rganilayotgan muammoni yaxshiroq tushunish va echish uchun axborot manbalari, ma’lumot va dalillarni talabalarni o’zlari topishadi. Talabalarga ma’lumotlarni kutubxonadan, internetdan izlash vazifasi buyurilishi mumkin. Baozi hollarda o’qituvchi ma’lumotlarni talabalarga mustaqil o’rganish uchun berishi mumkin. Talabalar ma’lumotlarni mustaqil o’rganadilar, qonuniyatlarni qidiradilar hamda o’zlari ilgari so’rgan taxminlarni tekshirib ko’rishga intiladilar.

Nihoyat olingan dalillarga, natijalarga asoslanib talabalar xulosalar chiqarishadi. Ular o’zlarining gipotezalarini qayta ko’rib chiqadilar, olgan natijalarga asoslanib yanada asosliroq tushuntiradilar, yangi muammolarni qo’ya oladilar va ochishga kirishadilar.

O’qitishning bunday usuli quyidagi maqsadlarni kuzlaydi:

1. Ilmiy tadqiqotlarni qo’llashni o’rganish va mazmunini o’zlashtirishga yordam berish.

2. Axborotlar manbai bilan ishlar, ularni tahlil qilish.

Bu modelga asosan talabalar hamjihat bo’lib, olamni yaxshi tushunish yo’llarini birgalikda izlaydilar.

Tadqiqot modeli bo’yicha rejalashtirilgan darsning tuzilishi:

1-bosqich. Darsda talabani qiziqtiradigan biror muammo yoki savol qo'yiladi.

2-bosqich. Talabalarga shu muammoni echish haqida gipoteza taklif qilinishi mumkin. YOKi talabalarning o'zlari farazni ilgari so'rishlari mumkin.

3-bosqich. Talabalar tomonidan axborot manbalari bilan ishlash. Adabiyotlar o'rganiladi, ma'lumotlar yig'iladi, tadqiqot olib boriladi.

4-bosqich. To'plangan ma'lumotlar atroflicha tahlil qilinadi.

5-bosqich. Ma'lumotlarga asoslanib, talabalar qo'yilgan muammoni echish bo'yicha muayyan xulosalarga keladilar.

6-bosqich. Tadqiqot natijalarini aniq shakllantiradilar.

Tadqiqot metodining afzalliklari:

- mustaqil fikrlash qobiliyati tarkib topadi;
- bilimlar nisbiy ekanligi, ularni to'ldirib, kengaytirib borish lozimligini tushunadilar;

- mantiqiy fikrlashga o'rganadilar;

- yuzaki echilgan masalalarga ishonchsizlik bilan qarash munosabatlari yuzaga keladi.

Tadqiqot metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab qiladi;

- ta'lim jarayonini to'la-to'kis shart-sharoitlarda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Aqliy hujum – oyalarni ilgari so'rish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar, uni echish uchun shaxsiy oyalarini ilgari so'radilar.

Bu usul barcha vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi: muammoni tushunish va echishga talabalarning motivatsiyasini uyotish.

U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi, berilgan muammoga ko'p sonli echimlar topishda yordam beradi.

Aqliy hujum metodining texnologik xaritasi quyidagicha:

1-bosqich. Tayyorlov. O'qituvchi mavzuni aniqlaydi, maqsadni, natijalarni, baholash mezonini shakllantiradi.

2-bosqich. Kirish. Aqliy hujum metodi maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon qiladi va boshlash to'risida buyruq beradi.

3-bosqich. oyalarni kiritish. oyalar magnitofon yoki videolentaga, qooz varaiga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.

Talabalar muammoni echish bo'yicha oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar. oyalar ustidan kulish, kinoya qilish ta'qiqlanadi. oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Fikrlarga to'liq erkinlik beriladi, talabalar rabatlantirib, fikrlarni bayon qilishga undab boriladi. Talabalarga o'z fikrini bayon qilishga imkon beriladi.

4-bosqich. Tahlil. O'qituvchi ilgari surilgan oyalarni tahlil qilishni tashkil qiladi. Talabalar bildirilgan oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil qiladilar. Eng qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar.

5-bosqich. YAkun yasash, tahlil va baholash. O'qituvchi talabalar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi. Talabaga o'z-o'ziga baho berish imkoniyati ham berilishi mumkin.

Modellashtirish metodi real hayotdagi voqea va hodisalarni o'yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishdan iborat yo'l-yo'riq va usullardan tashkil topadi. Modellashtirilgan mashqlar – ta'lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilishi asosida unda ishtirok etishiga olib keluvchi ta'lim tajribasi hisoblanadi.

Modellashtirish mashqlari – bu bilish faoliyati kompleksini tashkil etgan bo'lib, ular didaktik printsiplardan kelib chiqqan holda tuziladi.

O'quv jarayonini modellashtirish quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Mo'ljal olish:

– modellashtirish mashqlari orqali tushuncha va tasavvurlarni kiritish va takrorlash;

– modellashtirish mashqlarini tushuntirish.

2. Tayyorlov:

– rollar;

– qoidalar;

– o'yinni o'tkazish tartibi;

– qisqacha mashq o'tkazib olish.

3. O'yinni o'tkazish:

– mashqlarni bajarish;

– talabalar bilan ishlash vaqtida o'zaro aloqani taaminlash;

– noto'ri tushunchalarni, xatolarni tuzatish;

– mashqlarni davom ettirish.

4. Tahlil:

– umumiy xulosaga kelish;

– qiyinchiliklarni muhokama qilish va ularni bartaraf qilish usullari aniqlash;

– jarayonni tahlil qilish;

– o'yinni real hayot bilan taqqoslab, ular o'rtasidagi bolanishni o'rnatish.

O'yinlar amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali muomala madaniyati va faoliyat vazifalarini amalga oshirish vositalarini o'zlashtirishni taaminlaydi.

O'yin metodlarining asosiy vazifasi maqsadi talabalarni faqat tinglash emas, balki bilimlarni o'zlashtirishda bevosita ishtirokini taaminlash va bu orqali ta'lim samaradorligiga erishishdir. O'yin har xil muammolarni hal etishdagi taxminiy faoliyatni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ishtirokchilarning o'yin maqsadlarini aniq tushunishlari va shaxsiy qiziqishlari vaziyatni boshqarishning muhim omillari hisoblanadi.

O'yinni modellashtirish qoidalar orqali amalga oshiriladi. O'yin qoidasi o'yin elementlariga muvofiq uning mazmunini ifodalovchi nizomdir. O'yin qoidasi hayotdan olingan yoki maxsus o'ylab topilgan bo'lishi mumkin.

O'yindagi tashkiliy faoliyat. O'yindagi tashkiliy faoliyatning muhim belgisi rollarning shartli ekanligi. Ammo har bir rol maqsadi aniq belgilanishi va

rollarning o'zaro hamkorligini taaminlash zarurdir. SHu maqsad shuning uchun rollar o'yin ishtirokchilarining qiziqishlariga qarab taqsimlanishi mumkin.

O'yinning boshqaruvchisi jamoa bo'lib, mulohazalashni, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligini va mulokotni kirishishini taaminlovchi asosiy shaxs hisoblanadi. O'yin davomida ko'pincha etakchilarining ishtiroki, ekspertlar, yo'qolib boradi. Jamoa bo'lib qaror qabul qilinadi.

Loyihalashtirilgan o'yinlar qoidasiga ko'ra ta'lim muassasalari yoki muayyan tashkilotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar asosida, goho mavjud tashkiliy tuzilmani isloh qilish bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Rolli o'yinlar doimo real hayotga yaqin bo'lgan inson hayotining har xil shart-sharoitlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Ishtirokchilar o'yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi. Bunda ularga hech kim yordam bermaydi. Ular o'zlarini boshqarishi va uyushtira olishi lozim. Murakkab vaziyatlar bilan boliq o'yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni qabul qiladilar. Demak, rolli o'yinlarda qandaydir hayotiy vaziyat ijro qilinadi.

Rolli o'yinlar qandaydir real vaziyatlarni ijro etish tarzida.

Rolli o'yin shaxslararo munosabat ko'rsatkichida, masalan, shaxslararo munosabat uchun zarur malakalarni shakllantirish imkonini beradi.

Afzalliklari:

1. Rolli o'yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.
2. Kelgusidagi amaliyot uchun muayyan malakalarni tarkib toptiradi.
3. Nazariyani amaliyot orqali o'rganishga olib keladi.

Rolli o'yin rahbari qoidaga ko'ra o'yinning bevosita ishtirokchisi bo'lolmaydi. U qadr ortidagi shaxs bo'lib qoladi. Uning vazifasi o'yin metodi orqali oboektiv voqelikni belgilovchi shart-sharoitlarni yaratishi va qo'llab-quvvatlashi.

Rolli o'yinlarda jamoaviy yoki individual qaror qabul qilinishi mumkin.

Rolli o'yin taqdimoti:

1. Mashulot mavzusi taqdim qilinadi.
2. Rolli o'yinni eng maoqul metod sifatida tanlashingiz sababini tushuntiring.
3. Rolli o'yinni o'tkazishdan maqsadingiz nimaligini tushuntiring.
4. Rollarni taqsimlang. Ishtirokchilarni ixtiyoriy ravishda boshqa rolni tanlashi yoki xohishi bo'lmasa, rollardan birini ijro etishi mumkinligini ogohlantiring.
5. Rolp va vaziyatlar qisqacha bayon qilinishi mumkin. Bu esa o'yin ishtirokchilarining vaziyatni o'zgartirishiga va unga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlariga yordam beradi.

6. Rollarni qoozda yozib, ishtirokchilarga tarqatish mumkin.

Kuzatuvchilar, yaoni ekspertlar. Ularga maxsus ko'rsatma beriladiki, ular o'yinni dars maqsadidan kelib chiqib kuzatadilar.

O'yin tamom bo'lganidan keyin topshiriqlarning bajarilganligi haqida so'rovnoma o'tkaziladi. Kuzatuvchilardan ularning kuzatishi bo'yicha mahlumot berishlarini so'rang. O'yinchilardan kuzatuvchilarning yakuniy mulohazalari

bo'yicha fikr bildirishlari so'raladi. O'qituvchi shaxsiy sharhi uchun vaqt qoldiradi va mashulotdan chet narsa sodir bo'lgan bo'lsa, aytib o'tiladi.

Agar talabalar jarayon tabiiy chiqmadi degan munosabat bildirsalar, sportchi trenirovka vaqtida faqat mashq qilgani kabi rolli o'yin malakalarni amaliy faoliyatda sinashga imkon berishini eslating.

Nazorat savollari:

1. Interfaol metodlar haqida qanday tushunchalarga egasiz?
2. Talabalarda ta'limga bo'lgan qiziqish va darslar samaradorligini oshirishda qanday o'rin tutadi deb hisoblaysiz?

Tadqiqot vazifasi:

1. Interfaol metodlarni qo'llash orqali motivatsiyani uyotish.
2. Oliygo'ha va litsey, kollejlarda maxsus fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish va ularga bo'lgan zarurat masalasini tadqiq qilish. Natijalarni doklad shaklida tayyorlash va himoya qilish.
3. Aqliy hujum, rolli o'yinlar metodlari bo'yicha darslarni modellashtiring va namoyish qiling.

Tadqiqot yo'nalishi:

1. DTS bilan tanishish.
2. Fan o'qituvchining ish rejasi bilan tanishish.
3. Fan o'qituvchining darsini kuzatish, tahlil qilish, xulosa va takliflarni umumlashtirish, o'qituvchi bilan suhbat.
4. YAngi pedagogik va axborot texnologiyalarining ta'limga joriy qilish bo'yicha kafedra, kollej ish rejalari, metodik seminar rejalari, faoliyat natijalari bilan tanishish (suhbat, kuzatish, hujjatlari o'rganish).
5. Muammolarni aniqlash va echimini topish uchun takliflar kiritish.
6. oyalarning to'riligini asoslash va himoya qilish.
7. Natijalarni kollej maomuriyatiga taqdim qilish, takliflarni doklad shaklida tayyorlash.

MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA O'TKIR TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

O'tkir tafakkur va o'qitishning interfaol usullari ta'limdagi innovatsiyalarga tegishlidir. YOshlarimizni tobora o'zgarib borayotgan turmush sharoitlariga osonroq ko'nikib kelishini jahon pedagogik fanida XX asrning oxirida shakllangan "O'tkir tafakkur asoslari" deb nomlangan innovatsion yo'nalish

taominlashi mumkin. Bu metod o'qitiladigan har qanday fan bo'yicha o'quv yilining barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. "O'tkir tafakkur asoslari" to'risida XXI asrning pedagogikasi sifatida so'z yuritish mumkin.

O'tkir tafakkurni shakllantirish kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilgan yuksak va umumiy, kasb madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol, istiqboldagi vazifalarni belgilay oladigan, mustaqil fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashga zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu metodika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va ta'limga tadbqiqilgan.

Talabalar yuqori darajada o'tkir tafakkur qila olishlari juda muhimdir. O'tkir tafakkur ko'nikmalarini egallab olish jahonning ko'pchilik mamlakatlarida birinchi galdagi vazifa sifatida tan olingan.

O'tkir tafakkur – bu oyalarni ko'pdan-ko'p nuqtai nazarlar jihatidan ko'rib chiqish, ularni boshqa oyalar bilan taqqoslab ko'rish, tahlil qilish ahamiyatini baholash va shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish jarayonidir. Bu aqliy faoliyat bo'lib, unda muammolarni tahlil qilishga, taqqoslashga, talqin qilishga, tushuntirishga, qo'llashga, munozaralarga, muammolarning hal qilinishiga va fikrlashning borishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'tkir fikrlash faktlar bilan qanoatlanib qolmasdan, shu fakt va natijalarning sabab va oqibatlarini ochib tashlashgan holda bir qancha yo'nalishlarda ish olib borishga to'rtki bo'lishi mumkin.

O'tkir tafakkur talabalarning oddiygina o'zlashtirib olishlari uchun zarur bo'lgan informatsiyalarni faol izlashlarinigina emas, balki undan ko'proqni: o'zlari o'zlashtirib olgan bilimlarni oldingi tajribalari bilan taqqoslab ko'rishni, shuningdek yangi bilimlarni mazkur sohadagi boshqa nuqtai nazarlar bilan taqqoslab ko'rishni ko'zda tutadi. Talabalar olingan yangi informatsiyalarni shubha ostiga oladilar, dalillar mantigini puxta tekshirib ko'radilar, xulosa chiqaradilar va shu asosda muammoning ehtimoldagi echimini chamalab ko'radilar, uning sabab va oqibatlarini o'rganib chiqadilar. O'tkir fikrlovchi kishilar hayotda kamroq adashadilar.

Talabalarda o'tkir tafakkurning rivojlantirilishi tolerantlikni, sabrli, chidamli bo'lishni tarkib toptiradi. Tolerantlik insoniy o'zaro munosabatlarni hal qilish tushunchasi bo'lib, turli madaniyatlarni, boshqa insonlarda o'zlikni ifodalash va insoniy fazilatlarining namoyon bo'lishini hurmat qilishni va to'ri tushunib etishni anglatadi. Tolerantlik oshkora muloqotga, erkin fikrlashga va albatta bilimli, intellektual bo'lishga imkon beradi.

O'zgaruvchan olamda muvaffaqiyat bilish ish yuritmoq uchun talabalar axborotlarni elakdan o'tkaza olishlari va nima muhimu, nimaning ahamiyati yo'q ekanligi to'risida mustaqil fikrga kela olishlari darkor. Ular axborotlarni tahlil qiladilar, yangi bilim va oyalarni faoliyatda qo'llash yo'llarini o'rganadilar, ishga taalluqli bo'lmagan yoki noto'ri bo'lganlarini rad qiladilar.

O'tkir tafakkur – bu talabalarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, nutqning barcha turlarini egallab olishga, mazkur matn bilan o'zaro aloqaga kirishishga imkon beradigan pedagogik texnologiyadir. O'tkir

tafakkur auditoriyada ijodiy psixologik muhit yaratishga, mashulotni esa o'qituvchi va talaba uchun haqiqiy voqelikka aylantirish vositasidir.

O'tkir tafakkurli kishi u yoki bu oyalar bilan tanishib chiqadi, ularni amalga oshirishning ehtimoldagi natijalarini sarhisob qiladi. Bunda u yangi oyalarni mahlum darajada shubha ostiga oladi va bunga teskari nuqtai nazarlar bilan taqqoslab ko'radi. Ularni asoslash uchun faktlarni o'rganadi, natijada o'zining shaxsiy nuqtai nazarini shakllantiradi. O'tkir tafakkur faol fikrlash jarayonidir. Oliy ta'limda faol o'qitish shakllarini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- o'tkir fikrlash iymonning hayotga moslashuvchan bo'lishiga zamin yaratadi;

- o'tkir fikrlash faol ta'lim insonning bilimlarini mustaqil oshirish ko'nikmalarini tarkib toptiradi;

- faol o'qitish tolerantlikni, o'zaro xayrixohlik, do'stlik, hamkorlik sifatlarini shakllantiradi;

- faol ta'lim shakllari qo'llanganda talabalarning ta'limdan manfaatdorligi yuqori bo'ladi.

O'tkir tafakkur mustaqil tafakkur demakdir. Mashulot o'tkir tafakkur printsiplari asosiga ko'riladigan bo'lsa, har bir talaba boshqalarning fikrlaridan qatoiy nazar o'z oyalarni, xulosalarini shakllantiradi. SHunday ekan bu jarayon individual xususiyatga ega bo'lishi darkor.

O'tkir tafakkur natijasida axborot pirovard xulosa emas, balki fikrlashning boshlanich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. O'tkir tafakkur masalalani qo'yishdan va hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarni oydinlashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi talabalar oldida turgan muammolar doirasini aniqlab olishi, keyinchalik talabalar bunga tayyor bo'lganlaridan keyin bu muammolarni mustaqil ravishda ifodalab olishlariga yordam berishi darkor. Mahlumotlarni yiib, matnlarni tahlil qilib alpternativ nuqtai nazarlarni taqqoslab, jamoa bo'lib muhokama qilish imkoniyatlaridan foydalanar ekanlar, ular o'zlarini uylantirgan savollar javobini izlaydilar va topadilar. O'tkir fikrlashda ishonarli dalillar qidiriladi. O'tkir tafakkur qiluvchi kishi muammoning echimini topadi va uni asosli dalillar bilan mustahkamlab ham oladi. U ayni shu muammoning boshqacha echimi bo'lishi mumkinligini tushunadi va o'zi topgan echimning boshqa nuqtai azarlarga qaraganda mantiqan to'riligini asoslab berishga intiladi, o'zgalarning fikrini tinglaydi. O'qituvchilar talabalarning o'zgalarning fikrlariga sabr-bardoshli bo'lishlariga, o'z nuqtai nazariga masoul bo'lishlariga eotibor qaratadilar.

Anoanaviy ma'ruzaning bir qator kamchiliklari mavjud. Garb ekspertlari anoanaviy lektiv atigi 5% samara berishi to'risidagi mahlumotlarni taqdim qilganlar. Bu faqat o'qituvchining faolligi va tinglovchilarning passivligi bilan asoslangan. Ko'p hollarda ma'ruzasi mavzuni talabalar uchun shaxsan ahamiyatli darajaga ko'tara olmaydilar. Bundan tashqari "qilib uddalash" yo'li bilan o'qitish tinglash yo'li bilan o'qitishdan 6-7 marta samaraliroqdir.

YUqorida ko'rsatilgan kamchiliklar barcha ma'ruzalarga xos deyish o'rinsiz bo'ladi. P.Frederikning taokidlashicha, talantli lektorlar ma'ruza qilganlarida:

- yangi informatsiyalarni beradilar;

– murakkab nazariy masalalarni tushuntirib, izohlab beradilar, bir tizimiga keltiradilar;

– talabalar tafakkur doirasini kengaytiradilar;

– bir qarashda bir-biridan farq qiluvchi oyalarni o'zaro aloqadorligini tahlil qilib beradilar;

– bilimga hurmat, ishtiyoqni, zavq-shavqni va intilishni tarkib toptiradilar.

YAXshi ma'ruza talabalar qiziqishini uyotadi, ularning tasavvurlarini kengaytiradi. Noanoaviy ma'ruzalar juda kam uchraydi. Talabalar o'z o'qituvchilarining ma'ruzalarini tinglaydilar, yozib oladilar, yakuniy nazorat paytida ularning mazmunini takrorlab ham beradilar. Lekin ular olingan axborotlarni idrok qilishga vaqt ajratmaydilar. SHuning uchun ham o'qilayotgan ma'ruzalarni yangicha taqdim qilish va barcha o'qituvchilarning ma'ruza jarayonida tinglovchilarni faollashtirishning yangi metodlarini o'zlashtirib olishlari darkor.

Bunga DINAMIK MA'RUZA, yaoni chuqurlashtirilgan, takomillashtirilgan variantdagi ma'ruza metodini qo'llash orqali erishish mumkin.

Dinamik ma'ruza talabalarning ma'ruzani tinglashdan ko'zlanadigan maqsadlarini aniq belgilab olishlaridan boshlanadi. Bu chaqiruv bosqichidir. CHaqiruv bosqichida o'qituvchi muhokama qilinayotgan mavzuning talabalar mehnat va hayot faoliyatidagi ahamiyati, dolzarbligini ochib beradi va bu bilan u talabalarda mavzuni o'rganishga motivatsiyani uyotadi. SHu masala yuzasidan ularda qanday fikrlar bor juftliklarda yoki kichik guruhlarda aniqlab olishni taklif qiladi. Natijada 3 ta asosiy oya tanlab olinadi va doskaga ilib qo'yiladi. Bu holda o'qituvchi ikki maqsadni ko'zlaydi: birinchidan, u mavzuning haqiqatdan ham dolzarbligini talabalarga ochib bergan, muammoga "kungan" va ma'ruzaga, uni tinglashga tayyorlagan. Bu bosqichda o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi mumkin:

– guruhga mazkur masala bo'yicha talabalarning oldin o'zlashtirgan bilimlarini esga solish va ularni ro'yxat ko'rinishida tizimlashtirish;

– ikki kishidan iborat bo'lib qo'yiladigan ahvollarni tanlash;

– keyinchalik o'zlari tayyorlagan oyalar ro'yxatini ma'ruza mazmuni bilan taqqoslab ko'rish.

CHaqiruv – avval olingan bilimlarni faollashtirish jarayonidir. CHaqiruv davri uch maqsadni ko'zlaydi:

1. Tayanch bilimlarni aktuallashtirish – tinglovchilarning mazkur muammo bo'yicha egallab ulgurgan mahlumotlariga murojaat qilish, chunki o'qish jarayoni – bu yangini avval mahlum bo'lgan bilimlar bilan bolash demakdir.

2. Talabalar faol tafakkur qiladilar va bunda ular o'ziga yoki sherigiga yozma yoki ozaki nutq bilan bilimlarini namoyish qiladilar.

3. O'qishga, o'rganishga undash talabada qiziqish uyotadi, darsning mavzusini uning shaxsiy maqsadiga aylantiradi. CHunki chetdan majburlash yaxshi natijalarni bermaydi.

SHu tariqa chaqiruv davrida o'rganilayotgan axborotlarni o'zlashtirib olish uchun zamin tayyorlanadi va bunda tushunib etish suboektning avval erishgan

tajribasiga yangi bilimlarni qo'yish ekanligi inobatga olinadi. Dj.Brensfordning fikricha mazmunni tushunib etish uchun avvalgi bilimlarni dolzarblashtirish juda muhim va bu chaqiruv davrining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu davrda o'qituvchi quyidagi mazmunida savollar beradi:

Bu haqda siz nimalarni bilasiz?

Masalaning muhimligi nimada deb o'ylaysiz?

Bunda ikki kishi bo'lib o'ylab ko'ring, aqliy hujum, klasterlar kabi metodlardan foydalanish mumkin.

Keyingi bosqich mazmunni tushunib etish bosqichi deb ataladi. Uning mazmuni shundan iboratki, matnni o'qish jarayonida o'quv materialining mantiqiy bloklari mazmunini baholab borish va natijalarini kitob chetiga qalam yordamida belgilab borishdir.

“+” – agar siz o'qiyotgan matn mazmuni sizga tanish va buni bilaman deb o'ylasangiz.

“–” – agar siz bilgan mahlumotlarga zid kelsa, eotiroz bildirsangiz.

“!” – agar yangi bilimlar bo'lsa va qabul qilsangiz.

“?” – agar mahlumot haqida batafsil bilishni xohlasangiz.

INSERT usulining mazmuni shundan iboratki, talabalar yangi axborotlarni o'zlari uchun ma'lum bo'lgan yoki notanish bo'lgan, tushunarli yoki tushunarsiz, eotiroz tudiradigan turlarga ajratib, baholab boradilar. Insert usuli bo'yicha belgilarning qo'yib chiqilishi har bir abzatsning mazmunini tushunib etishni talab qiladi.

SHunday qilib talabalar mutoala qilishda axborotlarni o'zlashtirib olishga ongli yondoshadilar, o'zlarini matnni chindan ham tushunib borayotganliklarini kuzatadilar. Olgan yangi axborotlarni o'z tajribalari bilan taqqoslab ko'radilar va fikrlaydilar. Matn mazmuni fikran qayta ifodalanadi, bu esa tushunchaning uzoq muddat ongda saqlanib qolishiga olib keladi.

O'qituvchi 15-20 minut davomida ma'ruza o'qiydi, mazmunni tahlil qilishda yordam beradi. Talabalar o'qituvchiga savollar bilan murojaat qilishadi.

Mazmunni tushunib etish davrida talaba yangi axborotlar bilan to'qnash keladi va shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi ularning yangi mahlumotlarni tushunib etishlarini ta'minlash, chaqiruv davrida tuilgan qiziqishlarini qanoatlantirishdan iborat. V.V.Zankov psixologiyada tushunishning asosiy yo'nalishlarini umumlashtirar ekan, bir kishi o'zlashtirgan tajriba boshqa kishining bilib olishiga va tajribasiga aylanishiga zamin bo'la olmaydi, deb ta'kidlaydi. O'qituvchi o'z tajribasi mobaynida orttirgan oyani, kontseptsiyani o'zgalarga o'tkazishi mumkin. Biroq bu oyani egallab olish uchun shaxsiy tajriba orttirish bo'yicha har bir kishi astoydil harakat qilmo'i zarur.

Talabalar avvaldan shakllanib ulgurgan tasavvurlarini olingan yangi informatsiyalar bilan taqqoslab ko'rar ekanlar, o'z tushunchalarini tahlil qiladilar. Bu bilan yangi bilimlarni avvaldan ma'lum bo'lganlari bilan fikran bolaydilar, ya'ni “ko'prik ko'radilar”. O'qituvchi talabalarga quyidagi mazmunda savollar berishi mumkin:

Bugungi materialdan siz qanday yangilik eshitdingiz?

Bu masalada sizning fikringiz qanday?
Sizda nima ko'proq taassurot qoldirdi?
Bu sizning tajribangizga qanday muvofiq keladi?
Qaysi fikrlarni tasdiqlaysiz?
Nimalar tasdiqlanmaydi?

Keyingi bosqich fikrlash REFLEKSIYA deb ataladi. Refleksiya tushunchasi falsafada paydo bo'lgan va kishining o'z ongida, tasavvurlari haqida fikrlashni anglatgan. Refleksiya insonning faqat o'zini-o'zi bilishigina emas, balki boshqalarning qanday bilishlarini va tushunishlarini ularning shaxsiy xususiyatlari, tasavvurlari, fikrlari haqida orqali aniqlab olishni ham anglatgan.

Refleksiya davrida talaba yangi informatsiyalar xususida fikrlaydi, o'z tasavvurlarini turli nuqtai nazarlar bilan taqqoslagan holda qayta ko'rib chiqadi. SHaxsan fikrlangan tasavvurlar hammasidan yaxshiroq esda qoladi. Bunda ular yangi bilimlarni o'ziniki qilib oladilar.

Bu davrda o'qituvchi "Birgalikda izlanish", "O'n daqiqali esse", "Uch bosqichli intervyu" metodlaridan foydalanish mumkin.

Fikrlash davrida o'qituvchi beradigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Bu haqda sizning fikringiz qanday?
2. Bu oyalar tahsirida sizning nuqtai nazaringiz qanday o'zgardi?
3. Siz ushbu oyalarni amalda qanday qo'llashingiz mumkin?
4. Bu sizga xizmat qilishi uchun nimalarni o'zgartirgan bular edingiz?
5. Bu kontseptsiyalarning afzalliklari va kamchiliklari nimada?
6. Boshqa alpternaturalarni ham ko'rib chiqqanmisiz?
7. Qanday takliflaringiz bor?

O'tkir tafakkur asoslari ta'limda muayyan shart-sharoitlarni yaratadi, jumladan:

- talabalarning o'qishga bo'lgan intilishlarini oshirish;
- o'quv faoliyatida talabalar tafakkurini tahlil qilish;
- talabalar bilan birgalikda mashulotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishish;
- har bir talabaning mashulotda faol ishtirokini taaminlash;
- fikrlashni rabatlantirish;
- qizin munozaralarning yuzaga kelishini uchun muayyan vaziyatlarni yaratish;
- turli fikr-mulohazalarni eshitish, o'ylab ko'rish imkoniyatini berish, savol berishlarini rabatlantirish;
- o'zlarining kuch, imkoniyatlariga ishonch uyotish;
- bilimlarni namoyish qilishlarini rabatlantirish;
- talabalar tomonidan axborotlarning qayta ishlanishini taaminlash, o'tkir tafakkur qilish uchun imkoniyat yaratish.

O'tkir tafakkurni rivojlantirish bir vaqtning o'zida bir nechta masalalarni hal qilish imkonini beradigan o'qitishning interfaol usullarini qo'llash bilan chambarchas bolanib ketgandir. Ular talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi, tarbiyaviy vazifalarni belgilaydi, chunki talabalarni guruh bo'lib ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikriga quloq solishga, hamkorlikka o'rgatadi.

Ular ozaki va yozma nutqni idrok qiladigan, ijodiy tafakkur qiladigan va muammolarni hal qila oladigan, guruhlarda samarali ishlab, etakchilikni taominlaydigan, o'zlariga, imkoniyatlariga ishongan shaxslar bo'lib shakllanadilar.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim jarayonida talabalarda o'tkir tafakkurni rivojlantirish masalasining mohiyati qanday deb hisoblaysiz?
2. Ta'limda ijodiy va mantiqiy tafakkur ko'nikmalari qanday shakllantirish mumkin?
3. Dinamik ma'ruza nima?
4. Dinamik ma'ruzani tayyorlash va amalga oshirishda xususiyatlari qanday?

Ijodiy topshiriq:

1. Mutaxassislik fanlaridan dinamik ma'ruza mashulotini modellashtiring.

MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA O'TKIR TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Mahlumki, bozor iqtisodiyoti – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat aozolarini ishlab chiqarish va isteomol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kunsayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sabab bo'ladi. Buning uchun esa malakali mutaxassislar, iqtisodiy madaniyatli kadrlarni tarbiyalash va etishtirish davr taqozosiga aylanib bormoqda. Iqtisodiy madaniyat – jamiyat aozolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, xo'jalik yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat darajasidir. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. SHunday ekan davlatimizning hozirgi kundagi siyosati natijasida qilinayotgan barcha ishlar o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim olishlari uchun ulkan zamin yaratmoqda. Ayniqsa, uyali aloqaning yangi standartlari, mobilp telekommunikatsiyalarni quyi orbitadagi yo'ldosh sistemalari va boshqa istiqbolli texnologiyalari endilikda mamlakatimizda tobora keng ko'lamda tarqalmoqda.

YAngi texnologiyalar shiddat bilan turmushimizga kirib kelmoqdaki, mamlakatimizning iqtisodiyoti ravnaqi asosan, telekommunikatsiyaning zamonaviy vositalari barqaror rivojlanishiga boliq.

Bu borada universitetimiz talabalari butun olam axborot tarmoiga ulanib, ulardagi mahlumotlarni olishdek baxtga muyassar bo'lishdi. Yangi tipdagi "optik" tolali aloqa vositalarining o'rnatilishi esa axborotlar olishni yanada tezlashtirdi. Natijada hozirgi kunda universitetimizda internet aloqasi uchun jihozlangan maxsus laboratoriya xizmatidan talabalardan tortib professor-o'qituvchilargacha bahramand bo'lishmoqda. Bunday imkoniyatlar esa, istiqloлга intilgan mustaqil O'zbekiston davlatimizning bizga bergan tuhfasidir. Istiqloл bergan keng imkoniyatlardan foydalanib, mustaqil O'zbekistonni rivojlangan ilor davlatga aylantirishdek masouliyatni his qilishimiz har birimizning muqaddas burchimizdir.

Keyingi vaqtlarda ta'limda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash va internet imkoniyatlaridan foydalanish to'risida juda ko'p gapirilyapti. Talabalar u yoqda tursin, ko'pchilik o'qituvchilarimiz ham internetning ta'lim tizimida qanchalik katta imkoniyatlar ochib berishi mumkinligi to'risida to'liq tushunchaga ega emas. Bunga sabab qilib yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklardan tashqari yana bitta asosiy sababni, yaoni bizning loqaydligimiz va yangicha usulda ishlashni xohlamasligimizni ko'rsatish mumkin. Internet termini 1994 yildan boshlab qo'llanila boshlagan. Internetning asosi 1969 yili AQSH mudofaa vazirligining loyihasi asosida vujudga kelgan. Bu boshlanich tarmoq ARRA net bo'lib, u Kaliforniya va YUta shtatlaridagi 4 ta komppiyuterni o'zaro bolagan. Keyinchalik bu tarmoq kengayib 80 yillar oxirida AQSH milliy ilmiy jamiyatining ixtiyoriga topshirilib, NSF net shaklida rivoj topdi. Bu tarmoq hozirgi internetning tayanch tarmoi hisoblanadi. Internet bu tarmoqqa boshqa tarmoqlarning ulanishi hisobiga rivojlanishda davom etmoqda. 1994 yilning o'rtalarigacha keng foydalanuvchilar omması tomonidan internetga qiziqish yo'q edi. CHunki unga ulanish, unda ishlash texnologiyasi oddiy foydalanuvchilar uchun qulay emas edi. Internetdan yalpi foydalanishda birinchi qadam WEB texnologiyasining yaratilishi bo'ldi. Bu texnologiyaning ajoyib tomoni shundaki, ishni kichik sarf xarajatlardan boshlash mumkin. Bunda brauzer va WEB server bo'lsa kifoya. WEB texnologiyasi muallifi Bernes Lidir, u gipermatn oyasiga asoslanib, o'zining NTTR (gipermeyn uzatish protokoli) va gipermayn hujjatlari (htm) yozish tili NTML ni yaratdi. Bu til hozir mukammallashib bormoqda.

WEB saytning resurslaridan foydalanib, masofadan mashulotlar o'tish quyidagi usullardan birida olib boriladi.

1. Rower Roint namoyish etish redaktori yordamida.
2. Tayyor elektron qo'llanmalardan foydalanib internetda dars o'tish.
3. Internet tarmoi orqali dars o'tish.

Birinchi usulda masofadan ma'ruzada qatnashuvchi komppiyuterlarda Rower Roint redaktori ishga tushiriladi. Servis menyusidan konferentsiya komandasi ishga tushiriladi, bunda master konferentsii nomli muloqot ishga tushadi. Bu erda Dokladchik yoki Slushatelp komandalaridan bittasi tanlanadi. Keyin Dokladchik tanlangan komppiyuterda ma'ruzada ishtirok etuvchi komppiyuterlarning nomlari yoki ularning IR adreslari kiritiladi. hamma komppiyuterlarda tegishli komandalar tanlangandan keyin "Gotovo" tumasi bosiladi.

SHundan keyin o'qituvchi talabalariga o'zi xohlagan slaydlarni, o'z xohlagan ketma-ketlikda ko'rsatishi va bu vaqtda o'z fikrlarini maxsus darchada yozib borishi mumkin. Bu vaqtda o'qituvchilar faqat kuzatish va tinglash bilan mashul bo'ladilar. Ular ekranda ko'rsatilayotgan narsalarni o'zgartira olmaydilar.

Intranetning sinfida ma'ruzalarni to'ridan to'ri o'tish uchun Intranetning WEB tugunida maxsus elektron darslik (yoki qo'llanma)lar tayyorlab o'rnatib qo'yilgan bo'lishi lozim. Bunday elektron darslik o'zining mazmundorligi, sifati, dizayni va WEB texnologiyasi asosida ishlab chiqarilganligi, hamda foydalanuvchi uchun juda qulayligi bilan an'anaviy darslik va qo'llanmalardan ajralib turadi. Undan foydalanish uchun hech qanday qo'shimcha dasturni ishga tushirish talab qilinmaydi, to'ridan to'ri elektron darslik yo qo'llanmaning o'zi ishga tushiriladi. Ular bilan ishlash uchun asosan gipermatn texnologiyasidan va ekranning yuqori qismida joylashtirilgan menyulardan foydalaniladi. Bunday elektron darslik sifatida intranet, internet va axborot himoyasi darsligi ishlatilishi mumkin.

Ma'ruza xonasidagi kompyuterga video proektor o'rnatilib, shu video proektor orqali elektron qo'llanma katta ekranda namoyish etiladi. Agar ma'ruzani masofadan turib uzatilish talab qilinsa, yuqoridagi birinchi yoki ikkinchi usullardan foydalanadi.

Elektron darslik yoki qo'llanma asosida internetga ulangan sinfda dars o'tish internet tarkibidagi kompyuter sinfida dars o'tishdan shu bilan farq qiladiki, bu usulda elektron darslik WEB saytdan to'ridan to'ri yoki tarmoqdagi biror serverga yozib olib foydalaniladi. Tinglovchilar mavzularni xohlagan rejimda ko'rib o'qishlari, jumladan, to'ridan to'ri intranetdan turib maxsus giper bolanishli tumalar yordamida grafik ko'rinish (rejimi)ga yoki matn ko'rinishiga aylantirib o'qishlari mumkin.

Agar internet sinfida ma'ruza o'tish zaruriyati paydo bo'lsa ma'ruzachi Internet Explorer dasturida turib, bu qo'llanmalarni to'ridan to'ri namoyish etish rejimiga o'tkazib, tinglovchilarga xuddi Rower Roint redaktoridagi kabi ketma-ket namoyish etish ham mumkin.

Internet har xil kompyuter tarmoqlari orasida aloqani taaminlovchi dastur taominotiga ega bo'lgan texnik vositalar to'plamidan iborat butun dunyo kompyuter tarmoidir.

Internetda har bir xizmat o'ziga mos protokollarga ega bo'lib, ular maxsus dasturlar orqali taominlanadi. Demak, internetdagi biror xizmatdan foydalanadigan bo'lsak o'sha xizmatning protokoli bilan ishlaydigan dasturiy vositalarni o'rnatish lozim. Bunday dasturlarga "klientlar" deyiladi.

Internet orqali faylni uzatish uchun maxsus protokol – FTR (Fiele Transfenen Rrotosol) ishlatiladi. Internetdan falni olish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim.

* FTR (FTR – klinet) klientni dasturiy vositasining kompyuterda mavjud bo'lishi;

* FTR (FTR – server) xizmatni taaminlovchi server bilan aloqa o'rnatish lozim.

Internet tarmoqi tarkibi:

- * Internet arxitekturasini;
- * Internet tarmoqiga kirish;
- * Internet xizmati;
- * Internet protokoli

“Internet” arxitekturasini:

Internetda bazaviy kompyuterlarga host yoki tarmoq tugunlari deyiladi. Bu kompyuterlar sutkaning 24 soati davomida o'zaro aloqa bolaydilar. Ular universitetlarda, yirik firmalarda katta tashkilotlarga joylashtiriladi. Ular o'zaro telefon tarmoqlari, radiorele, yo'ldosh yordamida, yorulik tolali tarmoqlar orqali aloqa qiladilar. Internet ko'p tarmoqli strukturaga ega bo'lib ular bir-biridan ma'lumotlarni uzatish tezligi bilan farq qiladi. Bazaviy tarmoq optik kanal orqali bolanadi. Unga territorial tarmoq ulanadi. Ular lokal tarmoqdagi kompyuterlar bilan aloqani taaminlaydilar.

Internetga turli usullarda kiriladi. Kirish usuli qancha ko'p bo'lsa, shunga tez kiriladi. Bunda: bevosita kirish; taklifga muvofiq kirish (Dial ur Access, Dial ur) NISR kirish (off line) kirish turlari mavjud.

Internet xizmati servis deganda tarmoqdagi serverlar ko'rsatadigan xizmat tushuniladi. Eng ko'p tarqalgan xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

- * Telnet – masofadan ulanish xizmati;
- * FTR – fayllarni uzatish xizmati;
- * E-mail – ma'lumotlarni uzatish xizmati;
- * Usenet – elektron eolonlar doskasi;
- * WWW – ovoz, tasvir, grafika va matndan tashkil topgan katta hujjatlarni izlash va ko'rish.

har kuni dunyo miqyosida millionga yaqin xabarlar tarqatiladi. Ularning orasidan kerakli xabarlarni topib olish amaliy jihatdan mumkin emas. SHuning uchun, telekonferentsiya tizimi mavzular guruhiga bo'lingan.

hozirgi kunda dunyodagi yangiliklar mavzularining 50000 ga yaqin guruhi mavjud. Telekonferentsiyalar xizmati bilan ishlash uchun klientlarga mo'ljallangan maxsus dasturlar mavjud. Masalan, Microsoft Outlook Exprress telekonferentsiyalar xizmati bilan imlash imkoniyatiga ega. Bu dastur bilan ishlash uchun elektron aloqa xizmati kabi uning kerakli parametrlarini yuklash va yangiliklar guruhi serveri bilan o'zaro aloqani taaminlash kerak.

Word Wide Web xizmati (WWW). Bu xizmatni odatda internet bilan tenglashtiradilar. Aslida esa, bu interning ko'p tarmoqli xizmatlaridan biridir.

World Wide Web – bu Web serverlarda saqlanayotgan va o'zaro bolangan millionlab elektron hujjatlarning yagona ma'lumotlar fazosidir. Web – fazolarning alohida olingan hujjatlari Web sahifalarning ma'lum mavzuga birlashtirilgan guruhlarini Web tugunlar yoki Web sayt, yoki oddiy “sayt” deb yuritiladi. Bitta

Web – server etarli darajada ko'p saytlarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin. WWW tizimning uchta asosiy tashkil qiluvchisi mavjud bo'lib, bular:

- * taqsimlangan axborot tizimi;
- * mulptimedia;
- * gipermatn.

Taqsimlangan axborot tizimi. Juda katta axborotlar WWW serverlarda saqlanadi. Internet tarmoida ulangan foydalanuvchilar bu axborotlarni dastur mijoz yordamida WWW hujjatlarni ko'ruvchi dasturlardan foydalanib oladilar. Bunda kiruvchi dasturlar o'sha fayl saqlanayotgan komppuyuterga so'rovlar yuboradilar. So'rovga muvofiq server talab qilingan faylni uzatadi yoki rad belgisini yoxud sababini ma'lum qiladi. Klient – server munosabati ma'lum qoidaga protokolda muvofiq amalga oshiriladi. WWW da qabul qilingan protokolga Hyrer Text Transfer Rrotosol qisqacha NTTR (http) deyiladi.

Mulptimedia. Bu axborot uch o'lchamli ma'lumotlar matn bilan birga ovoz va tasvirdan iborat bo'ladi (shu o'rinda internetning mana shu imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tadbiiq qilib ko'rsak, masalan “chizmachilik” fanini o'qitishda).

Gipermatn. WWW da axborot hujjat ko'rinishida beriladi. Bu hujjatlar shu serverdagi ichki hujjatlarga murojaat yoki boshqa serverlardagi hujjatlarga murojaatlardan tashkil topishi mumkin. Demak, bir necha Web hujjatlari o'zaro bolashga gipermetn deyiladi. Bunday murojaatlar giper murojaat yoki giperaloqa deyiladi. Komppuyuter ekranida giper murojaatlar matn yoki grafigi boshqa turda ajratilib ko'rsatiladi (masalan, boshqa rangda yoki tagi chizilib, foydalanuvchi gipermurojaatni tanlab unda hujjatlarni bir qismidan ikkinchi qismiga harakatlanishi mumkin). Bu siljishga Web serfing deyiladi. Zaruriyat tuilganda tarmoqdagi ixtiyoriy serverga avtomatik tarzda ulanish mumkin.

WWW – hujjat Internet resurslardagi har xil formatli matndan grafikadan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Bu imkoniyatlarni barchasidan foydalanish uchun maxsus belgilash tili – NTML (Hyer Text Markur Language) deyiladi. Web sahifani ekranda ko'rsatadigan dasturga bruzer va uni buyruqlariga “teng”lar deyiladi. Eng ko'p tarqalgan brauzerlarga Microsoft Internet Exrlorer, Netscare Communicator lar kiradi. Bu brauzerlar kuchli grafik ilova bo'lib ekranda – okslantirishdan tashqari boshqa juda ko'p vazifalarni bajara oladi.

Teglar yordamida ixtiyoriy matnning fragmentini yoki rasmni boshqa Web hujjat bilan bolash mumkin. Web hujjatlar orasidagi maqsadli siljitishlarga Web – navigatsiya deyiladi. har bir lokal komppuyuterdagi fayl o'zini yagona ismiga ega va unga murojaat etish u saqlanayotgan qurilmani ismi orqali amalga oshiriladi. Dunyo miqyosida har bir faylni adresi URL – yagona resurs ko'rsatkichi bilan aniqlanadi. URL adres uchta qismdan iborat:

1. Ushbu resursga murojaat etishni amalga oshiruvchi xizmatni ko'rsatish bilan belgilanadi. Masalan, WWW xizmati uchun amaliy protokol sifatida NTTR (Hyer Transfer Rrotosol) gipermatnni uzatuvchi protokol ishlatiladi. Protokolning ismidan keyin ikki nuqta (:) va ikkita oma chiziq (/) qo'yiladi. YAoni http://...

2. Ushbu resurs saqlanayotgan server komppuyuterning domenli ismini masalan, http://www/abcde.com... ko'rsatish.

3. Ushbu kompyuterdagi faylga murojaat qilishning to'liq yo'lini ko'rsatish. Belgilar orasida oma chiziq (/) ishlatiladi. Masalan, <http://www.abcde.com/Files/New/abc.zir>. URL – adreslarni yozishda belgilar registri tartibini saqlash muhimdir. MS DOS va Windows tizimlaridan farqli o'laroq internetda bosma va yozma yozuvlar har xil hisoblanadi. Domen ismli xizmatlar (DNS). Kompyuterning internetdagi adresi to'rt bayt bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan, 696; 22; 321; 79.

Bir bayt 256 ta har xil qiymatni qabul qilish imkoniyatiga ega. Bundan kelib chiqqan holda to'rt bayt orqali 4 mlrd. dan diod IR – adreslarni ifoda etishi mumkin (256)". Bu erda qarama-qarshilik yo'q. Bu faqatgina tarmoqdagi kompyuterning ikki xil formada berilgan adreslarining ko'rinishidir.

Inson uchun sonli adres bilan ishlash biroz noqulay, domen ismlarni bo'lsa eslab qolish, ular bilan ishlash oson va qulaydir.

Odatda domen ismlar mazmunida belgilaydigan oboektning bosh qarorlari yoki ularning qisman yoki to'liq ismlari bo'lishi mumkin. Masalan, Microsoft kompaniyasining Web serveri www.microsoft.com, "Kosmos TV" kompaniyasi Web server www.Kosmostv.ru ismlarga egadir.

Domenli adreslarni sonli adreslarga tarjima qilish bilan DNS serverlar xizmati shuullanadi. Biz www.abcde.com serverdan olishimiz kerak bo'lgan sahifamiz dastlab DNS server tomonidan qayta ishlanib, undan so'ng IR adresga jo'natiladi.

Internet Exrlorer dasturida ishlash. Internetda Web sahifalarni ko'rish va ular bilan ishlash imkonini beradigan dasturga "browser" (brauzer) deyiladi. Brauzerlarning keng tarqalgan turlaridan biri Microsoft Internet Exrlorer dir. Bu bepul tarqatiladigan dasturiy taominot bo'lib, W – 96, NT – 2000 tizimlari tarkibida mavjud. Internet Exrlorer ni ishga tushirish uchun bosh tavsiyanomadan "Pusk", "Programmpi", "Internet Exrlorer" dasturlarini ishlatish kerak.

Outlook Exrress va Microsoft Net Meeting dasturlari avtonom bo'lib, ular Internet Exrlorer 5.0 paketining bir qismidir. Internetda Internet Exrlorer 5.0 dasturi orqali ishlash qo'lidagi rasmda ko'rsatilgan (sxema):

Internetning resurslariga murojaat qilishni tashkillashtirish.

Dasturni grafik interfeysi Windows tizimi kabi joylashtirilgan u quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda internet. 1997 yildan boshlab qator provayderlar O'zbekistonga internet xizmatini ko'rsatisha boshladilar. hozir 15 provayder 10000 foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi. Ko'pchilik kompaniyalar faqat Toshkent shahrida xizmat ko'rsatishadi. UzRAK, Russia on Line (Samarqand, Navoi, Andijon) va Simus (Farona) xizmat ko'rsatishadi. Provayderlarning barchasi mahlum darajadagi konsalting va dasturiy taominot xizmatlarini bajaradilar.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatadigan internet provayderlari va firmalar:

Albatros: <http://www.albatros.uz/>

"Alpbatros" xususiy ishlab chiqarish firmasi.

Business Communication Center <http://www.bce.com.uz/>. Amaliy aloqalar markazi va boshqalar.

Internetda izlash:

- * axborotni Web sahifada izlash mexanizmi;
- * server kataloglar va izlovchi mashinalar;
- * server kataloglardan foydalanish;
- * Web da izlashda har xil serverlarni xarakteristikalarini;
- * O'zbekistondagi serverlarda izlash;
- * Rossiyadagi izlovchi serverlar.

Internetga millionlab kompyuterlar ulangan. Bugungi kunda 1 mlrd. 400 mingdan ortiq Web – sahifa mavjud. har sekundiga 25-30 Web sahifa qo'shilib turadi. Tabiiyki, bu katta okeanda zarur narsani olish muammosi qo'yiladi. Eng yangi axborotni ham o'sha tarmoqdan topasiz.

Axborotni Web sahifada izlash mexanizmi. Internetda faqat izlash bilan shuullanadigan serverlar mavjud. Ular unga ko'p emas, doimo so'rovlarga javob berish bilan band. Ular o'ta kuchli. SHunday bitta server o'nlagan kompyuterlardan tashkil topadi. har bir shunday server o'zining mahlumotlar bazasini yaratadi. Unda axborot manzili qisqacha mazmuni, annotatsiya, axborotni olish imkoniyati kabilar bo'lib, baosida millionlab varaq to'planadi. Izlovchi serverlardagi mahlumotlar foydalanuvchilar yordamida yoki robot dasturlar yordamida to'ldiriladi. Ular avtomatik tarzda tarmoq bo'ylab yangiliklarni izlaydi va yozib oladi.

Server kataloglar va izlovchi mashinalar. Izlovchi serverlarni ikki turi mavjud.

Birinchi turi katalog shaklida bo'lib, u bo'limlarga, bo'limlar yana bo'limchalarga bo'linadi. Bu toifaga misol sifatida Yahoo! <http://www.yahoo.com> kiradi.

Ikkinchi turi sizni bergan savollaringizga javob izlaydigan serverlardir. Ularni baosilarida kataloglar bo'lmasa ham so'rovlarni qayta ishlaydigan mexanizmlarga ega. Kuchli izlovchi mashinalardan biriga Altavista <http://www.altavista.com> misol bo'la oladi. Printsip jihatdan bu ikkiga bo'linish shartli ravishda bo'lib, so'nggi paytlarda maxsus so'zlardan foydalanib so'rovlarga javob berishda ikkala to'r orasidagi chegara yo'qoladi.

Uchinchi server kataloglardan foydalanish. Barchani markazidan bo'sh satrni uni davomida Search tumasini ko'ryapsiz. Satrga so'rovni yozib tumani bosib izlash natijasini olishingiz mumkin. Yahoo! Katalogda har xil bo'limlar bo'ladi. Masalan (sanoat, arxitektura va boshqalar) Yahoo kataloglari shajarasidan ikki poona pastga tushsak, bunda chapda rasm sciens bo'limida qarashli.

Eng ommabop server kataloglar. Infoseek Select Sites: <http://guide.infoseek.com/>. Infoseek katalogi Infoseek katalogi Web saytlarni ro'yxatdan o'tkazishga talabnoma qabul qiladi. Qaysi saytni katalogga kiritish Yahoo! Izlovchi tizimidagidek boshqariladi.

GNN Select: <http://www.webcrawler.com/> katalog NCSA Whats new: yuborgan talabnomalardan shakllanadi. Excite <http://www.excite.com/>. Eng

ommabop server kataloglardan biridir. har xil rukndan saralangan boy mahlumotlarga ega.

Virtual Touright: <http://www.vtourist.com/wefmar> geografik belgisiga qarab planetamizning ixtiyoriy nuqtasidagi kerak saytni topish mumkin. Study Web: <http://www.studyweb.com/> tomonidan 20000 akademik tushunchadan oshiq kategoriyalarga ajratilib to'plangan.

Izlovchi mashinalardan foydalanish. Altavista – eng katta va eski izlovchi mashinalardan biri (150 mln. hujjat). Unga murojaat qilish kataloglarga qaraganda murakkabroq. Oldin kalit so'zlarni kirish satriga yozib search tumasini bosib so'ngra natijani o'qiysiz.

Altavista izlovchi mashinasida so'rov natijalar kichik sharxlari bilan murojaatlar ro'yxati shaklida beriladi. Bunda 1-chidan izlangan URL sahifada uni o'lchashi, yangilikni vaqti va bayon qilingan tilini ko'rasiz. Bu sizga gap nima haqida ekanligini tushunishga yordam beradi. Undan tashqari sahifani o'lchami va serverning geografik joylashuvi uni yuklash vaqti haqida tasavvur beradi. 2-chi Translate murojaatiga e'tibor bersak. Bu murojaat Altavista ni yangi mexanizmlaridan biri bo'lib tarjima bilan shuullanadi. Siz ixtiyoriy Web sahifani Evropadagi 5 tilga tarjima qilishingiz mumkin.

Simrle Query so'rov tili. Simrle Query so'rov tili kalitli so'zlardan va modifikator belgilaridan iborat. So'z oldidan "+" belgisi izlanayotgan hujjatda albatta bo'lishini "-" belgisi esa bo'lmasligini bildiradi. Butuniga topish zarur bo'lgan ifodalar kavs ichiga olinadi. Asosiy deb kiritgan, belgilaringiz asosiy deb izlanadi. YAoni so'rovda irex deyilgan bo'lsak Irex va IREX topiladi, Irex so'ralsa IERX topiladi. Simrle Query da tili so'rov taxminan quyidagicha ko'rinadi.

+ irex + IATR – actr + "Internet resources". Bu yozuvning mazmuni: menga quyidagi sahifalarni topish unda Irex, irex, Irex va IATR so'zlari bo'lgan, actr, Actr, acTR so'zlari bo'lmasin, Internet zerources ifodasi bo'lsin.

Ommabop izlovchi tizimlar. Northern egth? <http://www.northernlight.com/>. Bu dinamik rivojlanayotgan tizimdir. Mahlumotlar bazasida (140 mln. hujjat bor). Davriy nashrlardagi maqolalar bilan unikal aloqada. Hotbot: <http://www.hotbot.com/>. Ixtiyoriy temada katta (3 ta har biri 40 mln. hujjatdan) mahlumotlar bazasiga ega. Elektron adreslarni, telekonferentsiyalarni, Web sahifalarni izlaydi.

Web Craw Ler: <http://www.webcrawler.com/>. AOL – yirik server provayderini mulki 1995 yildan buyon faoliyat ko'rsatadi. 5 mln. mijozga ega. Info Seek: <http://quide.infoseek.com/>. 1994 yildan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. U elektron pochталarni, telekonferentsiyalarni va Web sahifalarni izlaydi.

Ly cos: <http://www.lycos.com/>. 1994 yil oxiridan boshlab faoliyat ko'rsatuvchi Ly cos izlovchi tizimlar orasida eng ulu bo'lib, keng foydalanuvchilarga mahlum Lycos tizimi AZZ katalogiga va reyting servis ro'nt ga qarashli.

Magellan: <http://www.mchinlly.com/>. 1995 yildan faoliyat ko'rsatib Web saytlar tuzuvchi va ularga taqriz beruvchi tizim sifatida tanilgan foydalanuvchini izlashda taqriz qilingan saytlarnigina ko'radi.

O'zbekistonda serverlar bo'ylab ishlash. Assalom internet www.assalom.uz. O'zbekistonda birinchi izlovchi tizim hisoblanadi. Xususiy resurslarni qo'yish imkoniyati bor.

O'zbekistondagi davlat tashkilotlari Rossiyani izlovchi serverlari. Rambler: www.rambler.ru. Rossiyadagi eng yirik izlovchi tizimi. Rambler izlovchi tizimda Rossiya, SNG mamlakatlarini millionlab hujjatlarning mingdan ortiq sayt yiilgan so'rovlarni qulay usullari mavjud.

Rambler izlovchi tizimi Microsoft Internet Exrlorer 4.0 rus tilidagi lavhasida ham ishlaydi.

Aport (<http://www.arort.ru/>). Ikki tilda ishlaydigan izlovchi mashina. Uni asosiy xususiyatlari ruscha-inglizcha, inglizcha-ruscha so'rovlar va natijalar tarjimasini borligidir.

YAndeks <http://www.yandex.ru/>. 131960 serverdan 196 kodi hujjatdan iborat bo'lgan 205 Gb to'la matnli izlovchi tizim bo'lib ishlashda rus tili morfologiyasini ham hisobga oladi.

Russia on the Net: <http://www.ru>. Rossiya serverining eng kuchli kataloglaridan biridir. Temalar bo'yicha saralangan murojaatlarni katta to'plamidan iborat Rossiyada 1-chi tashkil qilingan serverlarning biri bo'lib, sodda esda qiladigan adresga ega.

@Rus <http://www.atrus.ru>. Butun Rossiya internetining portali va on-layn katalogidir. @Rus 1996 yilda tashkil qilingan, unda 30000 annotatsiya, 200 tematikaga bo'lingan. @ rus o'zgarishda rus tili auditoriyasi uchun keng spektrdagi imkoniyatlarni o'z katalogi bazasidan yaratmoqda.

Elektron pochta (E-mail). E-mail – konkret elektron adresga axborotni elektron usulda jo'natishdir. Elektron pochta oddiy pochta tushunchasiga juda yaqindir. haqiqatan ham E-mail da xat jo'natayotib oddiy pochta degidek adreslarni to'lazamiz.

Pochta serveri bilan bolanib o'sha serverga xat jo'natasiz. So'ngra pochta serveri sizni xatni qabul qiluvchi serverga ulaydi va xatingizni qabul qiladi. Elektron pochta bajariladigan ishlar oshiq, faqat xatni tezligida farq qiladi. Butun dunyo bo'ylab salmoqli soatlarda xatingizni oladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari anoanaviy o'quv jarayonini takomillashtirish omili bo'lib, ta'lim mazmunini rivojlantirishga yordam beradi. Jumladan, komppiyuter va telekommunikatsiya vositalari orqali quyidagi didaktik maqsadlarga erishishi mumkin:

- 1) ta'lim mazmunini tashkiliy jihatlarni takomillashtirish;
- 2) ta'lim mazmunini tarkibiy qismlari aloqalarini mustahkamlash;
- 3) har xil turdagi mahlumotlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi;
- 4) o'qitishning modul tizimini rivojlantirish;
- 5) o'quv kursini muayyan mavzu va bo'limlar yaxlitligi sifatida namoyon bo'lishi;

6) darsni didaktik harakatlar tizimi sifatida takomillashtirish;
7) o'quv materialini bosqichma-bosqich o'rganishga erishish;
8) o'quv materiali mazmunini ta'lim oluvchilar xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatlari;

9) adiovizual vositalar yordamida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi pedagogik muloqot mazmunini takomillashtirish va h.k.

Ta'lim mazmunini tashkiliy jihatdan takomillashtirish masalasi birinchi navbatda o'quv materiali hajmining keskin o'sishi va tezkor sur'atlar bilan yangilanishi muammosini hal qilishi zamin yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim mazmuni tarkibiy qismlarining o'zaro bolik jihatlarini va aloqalarini rivojlantirish orqali o'quvchiga xohlagan o'quv materiali fragmentidan alohida yoki boshqa elementlar bilan bolik tarzda foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tudiradi.

Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar ta'lim mazmunini har xil darajalarda rivojlantirishga ijobiy tahsir ko'rsatadi. Jumladan, o'quv materiali mazmunini ta'lim oluvchilar xususiyatlariga moslashuvchanligi jhati ta'limni individuallashtirish tamoyiliga to'la muvofiqdir.

SHunday qilib, axborot texnologiyalarining o'qitish jarayonida keng qo'llanilishi yangi pedagogik uslub va vositalar taraqqiyoti, o'qituvchilar faoliyati xususiyatlarining tubdan o'zgarishi hamda anoanaviy pedagogik tizimning isloh qilinishiga olib kelishi muqarrardir.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash muammosi shu texnologiyalarni maqsadga muvofiq tanlash masalasi bilan chambarchas bolik. Ushbu muammoni echimi informatsion texnologiyalar va o'qitish jarayoni o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish, yaoni ta'lim tizimining texnologik va pedagogik bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Texnologiyalarni to'ri tanlash muammosi ularning haddan tashqari ko'pligi va rang-barangligi bilan ham eotiborlidir. hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida qo'llaniladigan axborot texnologiyalarining quyidagi asosiy turlari mavjud:

- bosma materiallar;
- audiokassetalar, videokassetalar va videodisklar;
- telefon;
- radio va televidenieler jumladan, sputnik va kabel televidenieler;
- Elektron pochta;
- komppiyuter o'qitish dasturlari;
- WWW (World Wide Web) Vsemirnaya kartina;
- telekonferentsiyalar (audiokonferentsiyalar, audiografik konferentsiyalar, videokonferentsiyalar, komppiyuter konferentsiyalari).

Ushbu texnologiyalar turli parametr va ko'rsatkichlarga ko'ra bir-biridan farq qiladi:

1. Bosma materiallar. Ular hozirda ham aksariyat o'quv kurslarida mahlumot va o'quv material mazmunini aks ettiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bular qatorida kitob, jurnallar, boshqa turdagi bosma materiallarini ko'rsatish mumkin. Lekin bosma materiallarni ko'rsatish mumkin. Lekin bosma materiallarni

tayyorlashda ham ko'pincha zamonaviy informatsion texnologiyalardan (tekstovoy protsessor, skaner, faks, kichik hajmdagi bosmaxonalar va h.k.) foydalaniladi.

2. Audiokassetalar, videokassetalar va videodisklar. Bular ham zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Videomateriallar (kasseta va disklar) talabalar orasida individual foydalanish uchun yoki butun o'quv guruhi tomonidan o'quv auditoriyalarida ko'rish maqsadida tarqatilishi mumkin. Jamoa shaklida tomosha qilishda talabalar o'rtasida munozara va bahs uyushtirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. YOzib olingan video va audiomodullar o'qitishning interaktiv modullari bilan birgalikda masofali ta'lim jarayonida qo'llanilsa katta samara berishi mumkin.

3. Telefon aloqasi. Telefon masofali ta'lim kurslarini uzatishda, talaba va ta'lim beruvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni uyushtirishda keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyaning oddiyligi va nisbatan arzonligi telefonning masofali ta'lim jarayonida keng qamrovli tarzda ishlatilishining asosiy sabablaridan biridir.

4. Radio va televidenie (shu jumladan, sputnik va kabelli televidenie). Keng auditoriyalarga mo'ljallangan o'quv kurslarini etkazishda radio va televidenie juda samarali vosita deb hisoblanadi. Ammo bu texnologiyalar masofali ta'lim samaradorligini chegaralab, ta'lim oluvchilar uchun distantsion kurslarini qulay vaqtda o'rganish imkoniyatini bermaydilar.

5. Elektron pochta. Bu texnologiya o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'quv aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish maqsadida yoki talabalar o'rtasidagi o'quv aloqa konferentsiyalarini o'tkazishda qo'llaniladi. Aloqa konferentsiyalarining ochiq va yopiq turlari bo'lib, ular ham o'z navbatida boshqariladigan (modeliruempie) va erkin tarzda o'tkaziladigan (nemodeliruempie) toifalariga ajratiladi. Aloqa konferentsiyasi davomida uyushtiriladigan diskussiya va munozaralarning boshqariladigan turi samarali hisoblanadi. Bunda maxsus mutaxassis-moderator (fasiliteytor) bahs-munozarani o'quv kursi maqsadlariga muvofiq holda boshqarib va yo'naltirib boradi. Internetdagi alohida WEB sahifalarida olib boruvchi o'qituvchilar uchun foydali mahlumotlar joylashtirilgan.

Bu sahifalarda:

A) O'quv konferentsiyalarning tashkiliy masalalari tahlil qilinadi.

B) Konferentsiya davomida tez-tez berilib turadigan savollar ro'yxatini tuzish uchun tavsiyalar beriladi.

V) Komppiyuter konferentsiyalari davomida o'qitish jarayonining etnik masalalari ko'rib chiqiladi.

G) Ushbu muammolar bo'yicha tayyorlangan publikatsiyalarga qisqa annotatsiyalar beriladi.

6. Komppiyuter o'quv dasturlari (shu jumladan, gipermatnli, mulptimediya, intellektual mulptimediya, intellektual va boshqalar).

Komppiyuter o'quv dasturlari odatda ikki xil tartibdagi o'qitish jarayonini tashkil qilish imkoniyatini beradi – axborot-mahlumotli va o'quv-nazoratli.

Axborot – mahlumotda rejim bosma materiallar, audio va videoyozuvlardan foydalangan holda o'quv materiallarni o'zlashtirish, uni qulay va ko'rgazmali tarzda tuzish maqsadlariga xizmat qiladi.

O'quv-nazorat rejimi o'z-o'zini nazorat qilish, baholash, masofali ta'lim jarayonida dastlabki va oraliq nazoratni uyushtirishga yordam beradi.

Maxsus ishlab chiqilgan intrumental vositalardan foydalanish komppiyuter o'quv dasturlarini yaratish jarayonini engillashtiradi. Ular yordamida xattoki komppiyuter texnologiyalardan uzoq bo'lgan tarix, falsafa, menejment va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilari turli o'qitish dasturlarini yaratishlari mumkin.

7. WWW (World Wide Web). Internetning bu turdagi eng ommabop tizimi o'qitishning yangi modelini rivojlantirishga olib bormoqda. Web sahifalar asosida turli tuman o'quv kurslari yaratilmoqda.

Web texnologiya tovush, video, grafikani qo'llash imkoniyatiga ega bo'lsa ham, hozirgi kunda Web texnologiya verbal kommunikatsiyaga asoslangan o'quv kurslarda kengroq va samaraliroq foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan Web texnologiyalarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- integratsiyalashgan o'qitish paketlari (IUP);
- asinxron konferentsiyalar;
- sinxron konferentsiyalar;
- masofali guruh ta'lim faoliyati.

hozirgi vaqtda Web texnologiyalari asosidagi intrumental vositalar yordamida asinxron komppiyuter konferentsiyalari o'tkazilmoqda.

Keyingi vaqtlarda Chatware – sinxron komppiyuter konferentsiyalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan maxsus dasturlar yaratilmoqda.

Bu dasturlar yordamida talabalar sinxron aloqalari asosidagi interaktiv o'qitish jarayonini samarali tarzda uyushtirish mumkin, ya'ni real vaqtdagi interaktiv muloqot tizimlarini o'quv jarayoniga qo'llash mumkin.

Bunday intrumental vositalarning sinxron dialoglardagi tovush, video va fayllarni uzatish bo'yicha imkoniyatlari masofali ta'limda katta ahamiyatga egadir. Jumladan, hozirgi kunda (group ware) – “groupvera”, ya'ni birgalikdagi distantsion guruh ishini tashkil qilishga yordam beruvchi maxsus dastur ta'minoti alohida dolzarbligi bilan ajralib turadi.

“Groupvera” tizimining mahlumotni saqlash, mahlumotlar bazalarida informatsiya izlash va boshqarish kabi imkoniyatlaridan foydalanish distantsion ta'limdagi hamkorlik (birgalikdagi) o'quv loyihalarini ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish – elektron pochta orqali xabarlarni uzatish, fayllar bilan almashish, sinxron va asinxron komppiyuter, audio va videokonferentsiyalarni o'tkazish guruhdagi masofali ta'lim jarayonida yagona umumiy o'quv materialini ishlab chiqishga yordam beradi.

9. Telekonferentsiyalar. Bular qatoriga audiokonferentsiyalar, audiografik konferentsiyalar, videokonferentsiyalar, komppiyuter konferentsiyalari kiritiladi.

Deyarli har bir telekonferentsiya turi uchun o'ziga mos masofali ta'lim metodlari shakllangan.

SHunday qilib, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni to'ri tanlashning quyidagi asosiy tamoyillarini belgilash mumkin:

1) O'quv jarayonida informatsion texnologiyaning faqatgina o'zi emas, balki uning ta'lim maqsadlariga muvofiq ekanligi ahamiyatlidir.

2) Eng qimmatbaho va zamonaviy texnologiyalar doimo ham eng samarali natijaga olib kelavermaydi. Aksincha, oddiy va nisbatan arzon texnologiyalar samaraligi bilan ajralib turadi.

3) O'qitish natijasi kommunikatsion va axborot texnologiyaning turi emas, balki o'quv kurslarni ishlab chiqishning sifati va taqdim qilinishiga boliqdir.

4) Texnologiyalarni tanlashda mulptimediya yondashuvini qo'llash lozimdir, yaoni bir-birini to'ldiruvchi xilma-xil texnologiyalardan foydalanish kerak.

Nazorat savollari:

1. YAngi axborot texnologiyalarining ta'lim mazmuniga tahsiri qanday?
2. Komppyyuter o'quv dasturlari haqida qanday mahlumotlari egasiz?
3. Internet tarmoining didiaktik imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Internet tarmoi orqali telekonferentsiyalarni tashkil qilish va o'tkazish tartibi tushuntirib bering.
5. Komppyyuter – taqdimot dasturlarini yaratish xususiyatlari qanday?

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

Bilim olish, maxsus malakalarga ega bo'lish talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o'tkazilgan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida borgan sari, bir tomondan axborot miqdori, yangiliklar ortib borsa, ikkinchi tomondan axborot olish manbalari rang-baranglashib bormoqda.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutiladi va ularni talabalar bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, yaoni talabalar o'z xohishi bilan tanlaydi. Birinchi guruhga adabiyotlarni konspekt qilish, kurs ishi yozish va shunga o'xshaganlar, boshqa guruhga referat, ilmiy doklad yozish, ilmiy to'garaklarda qatnashish kabilar kiradi.

Talabalar mustaqil ishlari samarali bo'lishi uchun ikki narsaga diqqat qaratish lozim:

- mustaqil ish aqliy mehnatning alohida turi ekanligini;
- mustaqil ishni bajarish, ular bilimini, dunyoqarashini, tafakkur tushunchalarini kengaytirishini anglashlari darkor.

Mustaqil ta'limda talaba axborotning asosiy qismini mustaqil o'zlashtiradi va tashkil qiladi. SHuning uchun uni rejalashtirishda vaqtini unumli tashkil qilishda yordam berish zarur.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishni nimadan boshlash kerak? Qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom qiladi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalaniladi? Muvaffaqiyatga erishish uchun talaba sabr-tokat bilan o'z ustida ishlashi kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Mustaqil ishini tashkil etishning asosiy printsiplaridan biri uning muntazamligidir. O'z ustida muntazam ishlash ko'nikmasini hosil qilish uchun uni puxta rejalashtirish kerak. har bir talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo'yicha taqsimlagan holda rejalashtiradi. Undan kelib chiqib har bir talaba o'z vaqtini hafta kunlari bo'yicha taqsimlaydi. Aolochi talabalar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

2. Mustaqil ishlarni bajarish muddatini aniq belgilash. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17-25 yosh darajasida mehnatni unumli tashkil qilinsa, bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Xaddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi. SHuning uchun mustaqil ishini rejalashtirganda auditoriyada o'tadigan vaqtni hisobga olish kerak. Agar auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada darslar 6 soatdan kam bo'lsa, mustaqil ishga ko'proq vaqt ajratiladi. SHunday qilib, haftalik mustaqil ishini bajarish vaqti 22-24 soat atrofida bo'ladi. ayrat, e'tibor bilan ishlaganda mehnat unumli bo'ladi.

3. Mustaqil ishini tashkil etishda ish vaqtini tartibini belgilash katta ahamiyatga ega. Mustaqil ishini bajarish uchun vaqtini semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash muhim. Goh umuman dars tayyorlamay, goh shiddat bilan ishlash ko'ngildagidek natijalarni kafolatlamaydi. Odatda kun tartibini talabaning dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa talabaning o'ziga ham boliq.

Referat yoki doklad yozish kerak bo'lsa, uni orqaga surmay, tezda bajarish kerak. O'qituvchi talabaga adabiyotlarni tavsiya qilishi mumkin. Referat, kurs ishi, malakaviy-bitiruv ishini birdaniga yozib bo'lmaydi. Matnni tayyorlash uchun avval adabiyotlarni ko'rib chiqish, reja tuzish va yozib boshlash kerak. Buning natijasida talaba o'z fikri, o'ylarini ifodalashni o'rganadi. Matnni tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- tayyorgarlik ko'rish;
- dastlabki chizilar;
- xomaki variantini yozish;
- kamchiliklarni to'rilash, taxrir qilish;
- matnni oxirgi variantini tayyorlash.

Fanni mustaqil o'rganishda kurs ishining ahamiyati katta. Talaba adabiyotlar bilan tanishadi, mahlumotlar to'playdi, o'rganilgan masala bo'yicha o'z fikrlarini bayon qiladi, xulosa chiqaradi, turli tadqiqot metodlaridan to'ri foydalanish malakalarini namoyon qiladi.

Kurs ishiga yuqori talab qo'yiladi va kafedrada ilmiy rahbar tanlanadi. Kurs ishi mavzusi faqat darslik doirasidagina emas, balki qo'shimcha adabiyotlar,

gazeta, jurnal maqolalaridan foydalanib yoziladi. Kurs ishida ilmiy izlanish elementlari bo'lishi lozim. Ish reja asosida yoziladi va kirish, asosiy qism, ya'ni yoritiladigan masalalar va xulosadan iborat bo'ladi. Kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo'lishi kerak. Agar biror muallifning fikri mavzuni yoritishda alohida ahamiyatga ega bo'lsa, shunday ko'chiriladi va qo'shtirnoq ichiga olinib, izoh beriladi, nomerlanadi va manba ko'rsatiladi. Unda havola qilingan muallifning ismi-sharifi, asar nomi, nashriyot, nashr qilingan yili ko'rsatiladi.

Reja qaysi adabiyotlar bilan ishlashni aniqlashtiradi. Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning ahamiyati, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, ilmiy farazi, yangiligi asoslanadi. Ushbu mavzu oldin qaysi adabiyotlarda qanday yoritilganligi ko'rsatiladi, malakaviy ishidan qo'yilgan maqsad va vazifalar yoritiladi. Xulosa qismida ishning bajarilishida o'rganilgan adabiyotlar, ishning natijasi, tajriba yakunlari, umumiy xulosalar keltiriladi. Kurs ishida ko'tarilgan masalalar bo'yicha matndan kelib chiqib bildirilgan xulosalar ishning qadr-qimmatini oshiradi. Talabaning mavzuni chuqur bilishidan, yaxshi bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'rganilgan barcha adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Gazeta, jurnal maqolalari, monografiya, to'plam, muallifning ismi-sharifi to'liq yoziladi, maqola va boshqalar to'liq keltiriladi, nashriyot va yili ko'rsatiladi.

Kurs ishi yozishda Respublika Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, meoyoriy hujjatlar, Prezidentimiz asarlari diqqat bilan o'rganiladi.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri – referat. Referat biror ilmiy asar, o'qilgan kitob kabilarning qisqacha mazmuni, adabiyotlar obzorini o'z ichiga oladi. Referat odatda ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Talabalarining seminar mashulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham referat deyiladi.

Mustaqil ishlardan yana bir turi – doklad. Dokladni adabiyotlarni o'rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o'z kuzatishlarini ham bayon qilgan holda tayyorlash kerak. Doklad tayyorlashda talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarni umumlashtirish, o'z fikrini yozma bayon qilishni o'rganadi. Kelgusida ham murakkab ishlarni bajarishga, malakali auditoriyada fikrlarini bayon qilishga o'rganadi.

Referat, doklad tayyorlash uchun talaba fanning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirishi kerak. Tanlab olgan mavzuni yoritish uchun 3, 4 savol qo'yiladi, kirish va xulosalardan iborat bo'ladi. Masala bo'yicha turlicha qarashlar, fikrlar bayon qilinadi. Talaba ularga o'z nuqtai nazarini bildiradi.

Aqliy mehnat qilib charchash, yaqqol bilinmasada, miya toliqadi. Surunkali aqlan charchash soliqqa yomon tahsir qiladi. SHuning uchun charchaganda dam olish kerak. har bir talaba dam olish tartibini o'zi belgilaydi. Psixolog olimlarning fikricha, darslardan keyin kamida 3 soat dam olish, boshqa yumushlar bilan shuullanish kerak. Adabiyotlar bilan ishlaganda, dars tayyorlaganda har bir yarim

soatdan 10-15 minut dam olish maslahat beriladi. YAxshi dam olish shakllari ochiq havoda bo'lish, qo'shiq tinglash va mavzu to'risida o'ylamaslik.

Bitiruv-malakaviy ish talabaning mutaxassis sifatida o'qishning yakuniy bosqichidagi ilmiy ishlari turlaridan biridir. U mustaqil ilmiy tadqiqot ishi bo'lib, talabaga universitetda o'quv jarayonida olgan bilimlari hamda kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish uchun imkon beradi.

Malaka ishining bosh maqsadi – talabaning mutaxassislik fanlari sohasidagi muammolardan biriga oid ilmiy faoliyatini namoyon etishdir. Talabaning bunday faoliyati bo'lusi mutaxassisga umumkasbiy o'quv fanlari va maxsus tayyorgarlik bo'yicha olgan bilimlari, shuningdek u yoki bu amaliy hamda nazariy masala yuzasidan olgan ish tajribasini kompleks amalga oshirish uchun imkon beradi.

Boshlovchi tadqiqotchi muammoni va tadqiqot mavzusini tanlash borasida quyidagilarda eotibor qaratishi lozim:

1. Dastlab qaysi yo'nalish sizga koproq yoqayapti: muayyan fan metodologiyasimi, fan nazariyasi, metodikasi, tarixi va h.k.
2. Tanlagan sohada qaysi muammoni tadqiq qilmoqchisiz.
3. Ilmiy jamoani o'rganib chiqish va ilmiy rahbar yoki ilmiy konsulptantni to'ri tanlash.
4. Tadqiqot dasturini mustaqil ravishda ishlab chiqish, tanlangan mavzu bo'yicha kartoteka va bibliografiya tuzish.
5. Kundalik ish faoliyatini to'ri rejalashtirish.

Tadqiqotchi ilmiy bilish faoliyati tuzilishi, uning shakllari va usullari tamoyillari haqidagi ta'limot hisoblangan ilmiy bilish metodologiyasini sinchiklab o'rganib chiqishi zarur. Metodologik refleksiya, yaoni o'z ilmiy faoliyatini tahlil qilish qobiliyati, bilishning muayyan kontseptsiyalari, shakl va metodlarini ilmiy asoslash, tanqidiy mulohaza qilish va ijodiy qo'llash, boshqarish va tuzilmalar yaratishni o'z ichiga oladi.

Fan sohasida intellektual vazifalarni hal etish uchun muayyan qobiliyatlar, yaoni muammoni ajrata olish va mavjud materialni u bilan qiyoslash, taklif kiritish va uni amalga oshirish natijalarini chamalab ko'rish, vazifani hal qilishning maqbul izchillikda taqsimlash talab etiladi.

Tadqiqotchining ilmiy ishiga doir refleksiya tarkibidagi pedagogik tadqiqot sifatini baholash imkonini beruvchi uchun bitta xususiyatini ajratish mumkin. Bular: muammo, mavzu, dolzarblik, tadqiqot oboekti, predmeti, maqsadi, vazifasi, gipotezasi va himoyalangan qoidalari, yangiligi, fan uchun ahamiyati, amaliyot uchun ahamiyati.

Muammoni qo'yish ilgari o'rganilmaganlardan nimalarni o'rganish kerak degan savolga javobni ko'zlaydi. Ilmiy muammoni amaliy vazifadan farqlash lozim. Muammoda ilmiy bilimlardagi bo'shliq aks etadi.

Tadqiqot mavzusini shakllantirishda biz shuullanmoqchi bo'lgan ishni qanday nomlash zarur degan savolga javob berish lozim. Mavzuni shunday belgilash kerakki, unda eskidan yangiga qaratilgan harakat o'z aksini topsin.

Tadqiqotning dolzarbligini asoslash – nima uchun mazkur muammoni hozirgi paytda o'rganish zarurligini tushuntirib berishdan iboratdir.

Tadqiqot oboektini aniqlash tadqiqotda aynan nima ko'rib chiqilayotganini aniqlash demakdir.

Biroq oboektning barcha jihatlari va ko'rinishlari haqidagi yangi bilimlarni olishning iloji yo'q. SHuning uchun tadqiqot predmetini aniqlash, yaoni oboekt qanday ko'rib chiqilayotganini belgilash zarur. Undagi munosabatlar, xususiyatlar, jihatlar, vazifalarni mazkur tadqiqot ochib beradi. Oboekt barchaga tegishlari, predmeti esa tadqiqotning shaxsiy mulki, uning oboektga nisbatan o'z qarashlaridir. U predmetni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda yaratadi.

Olim o'z oldiga maqsad qo'yar ekan, tadqiqot jarayonida qanday natija olishni xohlashini aniqlaydi, vazifalar esa maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligi haqida tasavvur beradi.

Gipoteza va himoya qilinadigan oyalar tadqiqotchining oboektning ko'rinmaydigan, boshqalar sezmayotgan jihatlari haqidagi tasavvurini oshkor qiladi.

Tadqiqot yakunlari sarhisob qilinar ekan, tadqiqotchi olingan natijalarning yangiligi, yaoni boshqalar qo'l o'rmagan mavzu bo'yicha nimalar qilindi va qaysi natijalar birinchi bor olinganligi haqida aytishga haqli. Tadqiqotning fan uchun ahamiyati, yaoni fanning qaysi muammolariga, kontseptsiyalariga, tarmoiga uni rivojlantirish, mazmunan boyitishga yo'naltirilgan o'zgarishlar kiritilayotganligi aniqlanadi.

O'tkazilgan ilmiy ishning amaliyot uchun ahamiyatini aniqlashda olim "tadqiqot natijasida amaliy faoliyatdagi qaysi muayyan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin?" degan savolga javob beradi.

YUqorida bayon etilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, barcha metodologik tavsiflar o'zaro boliq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Muammo tadqiqot mavzusida o'z aksini topadi. U fanda erishilgan odatdagi natijadan yangisiga qaratilgan harakatdir. O'z navbatida, ilgari surilgan muammolar va mavzuning nomlanishi tadqiqotning dolzarbligini aniqlash va asoslashni ko'zda tutadi.

YUqorida sanab o'tilgan xususiyatlar bir-biriga mos kelishi, o'zaro to'ldirishi lozim bo'lgan bir tizimni tashkil qiladi. Ularning o'zaro muvofiqlashtirilganlik darajasiga qarab, ilmiy ishning sifati haqida xulosa chiqarish mumkin.

Malaka ishini bajarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- malaka ishiga qo'yiladigan asosiy talablar bilan tanishib chiqish;
 - malaka ishini mavzusini tanlash va mustahkamlash;
 - malaka ishi rejasini tuzish va ilmiy rahbar maslahatini olish;
 - malaka ishi mavzusi bo'yicha adabiy manbalar, meoyoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tanlash va o'rganish;
 - amaliyot materiallarini to'plash va tahlil qilish;
 - malaka ishini yozish va rasmiylashtirish;
 - malaka ishini himoyaga tayyorlash;
 - malaka ishini himoya qilish.
- Bitiruv-malaka ishi quyidagi talablarga javob berish shart:
- mavzuning dolzarb bo'lishi;
 - ilmiy-tadqiqot xususiyatiga ega bo'lishi;

– ta’lim-tarbiya masalalariga baishlangan, fanning nazariy va amaliy yo’nalishlari bo’yicha bob va paragraflarni o’z ichiga olishi, hisob tahliliy qism, tadqiqot bo’yicha mografiyalar, davriy adabiyotlarni o’rganish va tanqidiy tahlil qilishni o’z ichiga olishi;

– tadqiq qilinayotgan muammo va uning amaliy ahvolini o’rganishi, ularning tavsifini berishi, ilor tajriba va muallifning tajribasini namoyon etishi;

– predmet, oboekt, maqsad, vazifa, gipoteza, tadqiqot usullari, metodologik asosi, ilmiy-amaliy ahamiyatining aniq tavsifi, o’tkazilgan eksperimentlarning tavsifi va tahlili berilgan bo’lishi;

– natijalar umumlashtirilgan, xulosalar va amaliy tavsiyalar asoslangan bo’lishi;

– muallifning masalani nazariy tushunib etishi, tahlil asosida xulosa chiqarish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish qobiliyatini namoyon etishi;

– tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiy manbalar va nashr etilgan materiallardan foydalanishda talabaning xalolligini aks ettirishi lozim.

Malaka ishining rejasi asosida uning bo’lusi mundariyasi tuziladi va o’z ichiga kirish, boblar, paragraflar, xulosa qismi, adabiyotlar ro’yxati va ilova qismini oladi.

Kirish har bir malaka ishining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Unda muammo, yaoni qanday ekanligi, nima uchun tadqiq qilinayotganligi asoslab beriladi. U malaka ishining quyidagi tarkibiy qismlarini o’z ichiga oladi:

– dolzarbligi;

– tadqiq etilayotgan muammoning ishlab chiqilganligi;

– oboekti va predmeti;

– gipotezasi;

– asosiy vazifalari;

– asosiy vazifalarni hal qilish usullari;

– yangilik elementlari;

– muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati;

– himoyaga olib chiqilayotgan fikrlar, oyalar.

Mavzuning dolzarbligi tadqiq etilayotgan muammoning mohiyati muhimligini belgilab berishdir. Unda mazkur masalani o’rganishning nazariy va amaliyot uchun zarurligi isbotlab beriladi, maxsus adabiyotlarda muammoni o’rganilish va aks ettirilish darajasi yoritiladi, mavzu asoslab beriladi va uni maxsus o’rganishga bo’lgan talab – ehtiyoj ochib beriladi. Bu erda mavzuning qay darajada ishlab chiqilganligi yoritiladi, yaoni adabiyotlarning qisqacha sharhi beriladi. Adabiy sharh muayyan mantiqiy izchillikda amalga oshirilishi zarur. Avval maxsus adabiyotlarda keltirilgan material tanqidiy tahlil etiladi.

Malaka ishining oboekti tadqiqotchi ish olib boradigan amaliyot yoki ilmiy bilimning qismi demakdir. U muammoli vaziyatni tudiruvchi jarayon bo’lib, uning ustida tadqiqot olib boriladi.

Malaka ishining predmeti orqali tadqiqotchi butun bir oboektni o’rganib, bunda oboektning bosh, asosiy belgilarini ajratib oladi. Predmet oboekt chegarasida bo’lgan narsani va oldinda turgan tadqiqot mazmunini belgilaydi.

Malaka ishining maqsadi – tadqiqotchi o'z tadqiqot faoliyatida nimaga erishishni istashidir. U talaba faoliyatning mazmuni, mohiyati, niyatini ifodalaydi. Maqsad quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy muammolar bo'yicha;
- nazariy muammolar bo'yicha;
- amaliy muammolar bo'yicha;
- qiyosiy yo'nalishlar bo'yicha.

Tadqiqot gipotezasi asl, haqiqiy maonosi aniqlab etilmagan biror hodisani tushuntirish, izohlash uchun ilgari surilgan taxmin, farazni anglatadi. Gipoteza biror narsa, hodisaning fakt, kontseptsiya, nazariya bo'lishi yoki ikor etilishi uchun uni tajriba yo'li bilan eksperimental tekshirishdan o'tkazilishini nazarda tutadi.

Vazifalarning shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular malaka ishining asosiy mundarijasini belgilaydi. Vazifalar soni ishning boblari yoki asosiy paragraflari bilan belgilanadi.

Malaka ishini tayyorlash jarayonidagi asosiy usullar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: kuzatish, suhbat, so'rov, testlar, hujjatlar, adabiyotlarni o'rganish, eksperimental ish va h.k.

YAngilik elementi muallif o'z tadqiqot ishi jarayonida nazariya va amaliyotda ma'lum bo'lganiga nisbatan yangi narsa-hodisani izlab topishga erishganidir.

Nazorat savollari:

1. Mustaqil tadqiqot ishlarining vazifasi nimalardan iborat?
2. Mustaqil ishlarni tayyorlash jarayoni qanday tashkil qilinishi kerak?
3. Ilmiy doklad va referatlar mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
4. Bitiruv-malaka ishlari mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?

TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI

Mutaxassislar tayyorlashda talabalarining bilim, malaka va iqtidorlarini shakllanishi jarayonini nazorat qilish muhimdir. To'ri tashkil etilgan nazariy talabalarni olinayotgan bilimlarni yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlanish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi.

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

Reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- talabalar o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini taaminlash;
- talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga ma'lum qilish;
- talabalarga mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;
- professor-o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatini oshirish.

Fan bo'yicha maksimal reyting balli, o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Talaba bilimini baholashda, avval uning o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi, so'ng dars soatlari miqdoriga muvofiq, uning fan bo'yicha reytingi hisoblab topiladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YAB)

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilim darajasini (o'zlashtirishini) aniqlab borish nazarda tutiladi va u odatda, amaliy mashg'ulotlar (seminar yoki laboratoriya ishlari) darslarida amalga oshirilishi mumkin.

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng talabaning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabaning muayyan savol yoki muammoni echish mahorati va qobiliyati aniqlanadi.

YAB da fanning semestr (o'quv yili) davomida o'tilgan hajmi doirasida talabaning bilimi baholanadi. YAB turiga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha JB va OB turlarida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal reyting ballning miqdori, o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70% miqdorida belgilanadi. SHundan 40% joriy baholash va 30% oraliq baholashga ajratiladi (ushbu taqsimotni fan xususiyatidan kelib chiqib istisno holda bo'lishi mumkin). Agar o'tiladigan fan faqat nazariy kursdan iborat bo'lsa, oraliq baholash uchun ajratilgan soatning 70%, faqat amaliy kursdan iborat bo'lganda JB uchun ajratilgan soatning 70% barchasi olinadi.

YAB turi tayanch tushunchalarga asoslangan "YOzma ish" usulida yoki boshqa usullarda (ozaki, test, himoya va hokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Tayanch tushunchalarga asoslangan "YOzma ish" usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida "YOzma ish" usulini tadbiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

O'quv rejasiga muvofiq o'qitilishi bir necha semestr (o'quv yili)ga rejalashtirilgan fan bo'yicha talabaning umumiy reyting balli, har bir semestr (o'quv yili) davomida shu fan bo'yicha talaba tomonidan to'plangan reyting ballar yiindisi bilan aniqlanadi.

Baholash turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida so'rov o'tkazish, test savollariga javob berish, kontrol ishlarini bajarish, kollokvium, suhbat va shu kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Baholash natijalari dastlab fakultetlarda operativ ravishda ishlovdan o'tkaziladi, so'ngra universitet o'quv bo'limida umumlashtiriladi.

Reyting natijalari fakultet va (zarur bo'lgan vaqtlarda) universitet ilmiy kengashda muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Kafedralar har bir fan bo'yicha baholash turlari bo'yicha reyting ballarini hisoblash mezonlarini ishlab chiqadi (nazorat ishlari, test sinovlari, savollar to'plami va hokazo) va fakultet uslubiy kengashda tasdiqlaydi.

Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning kamida 55% ni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning 55% dan kam ball to'plagan talaba, qoniqarsiz o'qiyotgan talaba (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100 foiz – “aolo”;
- 71-85,9 foiz – “yaxshi”;
- 55-70,9 foiz – “o'rta”;
- 55 foizdan kam – “qoniqarsiz”

Talabaning barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim va ko'nikmalari, kurs ishi yoki kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi (loyihasi), davlat attestatsiyasi natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida alohida qayd etiladi.

Reyting ballarini hisoblashda talabaning o'quv mashulotlardagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondasha olish, o'quv mehnat intizomiga amal qilish sifatleri ham hisobga olinishi (reyting balli doirasida 10% gacha) maqsadga muvofiq.

JB, OB va YAB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55% dan kam ball to'plagan) yoki sababli baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga bir hafta muddat ichida qayta baholashdan o'tishga ruxsat berilishi mumkin.

Fan bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballning 55% dan kam ball to'plagan talaba, belgilangan tartibda rektorning buyrui bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga nisbatan o'quv yili yakunlari bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq).

Talabani kursdan kursga o'tkazishda o'quv rejada muayyan semestr (o'quv yili)ga belgilangan fanlardan talaba to'plagan reyting ballar miqdori hisobga olinadi va rektorning buyrui bilan amalga oshiriladi.

har bir fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan reyting ballar miqdori, belgilangan tartibda tasdiqlangan shakldagi qaydnomada qayd qilinadi.

Semestr davomida fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan umumiy ball, talabaning "Reyting daftarchasi"ga yoziladi. Talaba, fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida, fanga ajratilgan maksimal ballning 55% dan kam ball to'plagan holda uning shu fan bo'yicha to'plagan reyting ballari "Reyting daftarchasi"da qayd etilmaydi.

har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan baholash turlarining (JB, OB va YAB) natijalari dekanat va kafedralar tomonidan reyting nazorati ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi.

Reyting nazorati ekranini tashkil etish va uni belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish vazifasi fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

Kurs ishlari, kurs loyihasi mustaqil ravishda baholanadi. Kafedra kurs ishlariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, uni 30 (kurs loyihasi uchun 50) ballik tizim bilan baholash meoyorini ishlab chiqiladi. Bunda talaba kurs ishi (loyiha)ning ilmiy va amaliy qimmati, pedagogik faoliyatdagi ahamiyati hisobga olinib, uning yoritilish darajasi, ijodiy yondashish nuqtai nazardan baholanadi.

Pedagogik amaliyot ham mustaqil baholanadi. Bunda avvalgi semestrda o'tkazilgan uzluksiz pedagogik amaliyot oldi ishlari, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, maktab, maktabgacha tarbiya muassasalari dastur va darsliklarni o'zlashtirish darajasi, reja-konspekt tuzish, kuzatilgan darslarni tahlil qilish, dars berish texnikasini egallay borish, hisobot yozish, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishdagi ijodkorligi, o'quv va tarbiyalanuvchilar bilan chiqishib ketishi va boshqa faoliyati hisobga olinadi va meoyorlarga solinadi.

Pedagogika va psixologiya hamda xususiy metodika kafedralari pedagogik amaliyot reytingi meoyorlarini birgalikda ishlab chiqaradi va fakultet kengashida tasdiqlab oladi. Pedagogik amaliyotning baholanishi ham meoyorlar asosida bo'ladi.

Umumiy ballar miqdori kuniga 6 soat hisobida belgilanadi. Masalan, 8 haftalik pedagogik amaliyot uchun maksimal ball $8 \times 6 \times 6 = 228$ ni tashkil qiladi.

O'quv amaliyoti ham mustaqil baholanadi va uning eng yuqori balli amaliyot davom etgan vaqt bilan belgilanadi, yaoni o'quv amaliyoti ikki haftaga rejalangan bo'lib kun hisobida 12 kunni tashkil etsa, eng yuqori ball 72 ballni tashkil etadi, kunlik ball 6 balldan iborat bo'lib, u talabaga 1 kunlik topshiriqni to'la bajargan holdagina beriladi, aks holda bu ko'rsatkich kamayishi mumkin. Kunlik topshiriqlarning bajarilishi darajasini aks ettiradigan karta yoki boshqa hujjat kafedra tomonidan ishlab chiqilishi va fakulptet o'quv-metodik kengashida tasdiqlanishi zarur.

Bakalavrlar tayyorlash o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanlardan "YAkuniy Davlat attestatsiyasi" uchun (har bir fan uchun) 100 ballik tizim qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonun. – T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T., 1997.
3. Gusinskiy E.N., Turchaninova YU.I. Vvedenie v filosofiyu obrazovaniya. M., 2000.
4. Polat E. Новые pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v obrazovanii. M., 2002.
5. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy praktike. Riga, 1995.
6. Farberman B.L. Il-or pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.
7. Farberman B.L., Musina R.G. Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy o'qitish uslublari. – T., 2001.
8. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T., 2003.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
10. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований. M., 1992.
11. Теоретические основы процесса обучения/под ред. V.V.Kraevskogo i I.YA.Lerner. M., "Pedagogika", 1989.

